

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**YETIM BOLALAR VA OTA-ONASINING YOKI BOSHQA QONUNIY VAKILLARINING
QARAMOG'IDAN MAHRUM BO'LGAN BOLALARNING IJTIMOIY HIMOYASINI
YANADA KUCHAYTIRISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2019-yil 11-fevraldag'i PQ-4185-son **qarori** ijrosini ta'minlash, shuningdek, yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar huquqlari kafolatlarining huquqiy asoslarini takomillashtirish, ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada kuchaytirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda Moliya vazirligining:

yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar davlat tarbiya, davolash-sog'lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalarida hamda ularni tamomlagandan so'ng akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar (keyingi o'rnlarda — ta'lim muassasalarini), shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya oladigan muddatda to'liq davlat ta'minotida bo'lishi;

ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ularning shaxsiy xarajatlari uchun har oyda bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida pul mablag'lari to'lanishi to'g'risidagi takliflariga rozilik berilsin.

2. Belgilansinki:

to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar ta'lim muassasalarini bitirib, ishga qabul qilinayotganda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar sotib olish uchun nafaqa to'lash bilan bog'liq xarajatlardan ta'lim muassasalarini faoliyatini moliyaviy ta'minlash uchun tegishli yilga nazarda tutiladigan O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobiga qoplanadi;

to'liq davlat ta'minoti pul nafaqalari hamda oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar, shuningdek, transportda yurish kartochkalaridan iborat bo'ladi;

davlat ta'minotiga olingan bolalarga (keyingi o'rnlarda — o'quvchi (talaba) ular ta'lim muassasasini bitirayotganda, ishga qabul qilinayotganda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar sotib olish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari miqdorida, yo'l xarajatlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida pul nafaqasi (keyingi o'rnlarda — bitiruv nafaqasi) beriladi.

3. Quyidagilar:

Umumiyoq o'rta ta'lim muassasalarini, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda ta'lim olayotgan to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi nizom **1-ilovaga** muvofiq;

Mehribonlik uyi to'g'risidagi nizom **2-ilovaga** muvofiq;

Bolalar shaharchasi to'g'risidagi nizom **3-ilovaga** muvofiq;

Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi nizom **4-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

4. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **5-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining **6-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda o‘zlari qabul qilgan normativ-huquqiy hujjatlarni bir oy muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining ijtimoiy rivojlantirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.A. Musayev va O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi vaziri Sh.X. Shermatov hamda oliv va o‘rta maxsus ta’lim vaziri I.U. Madjidov zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2020-yil 21-noyabr,
739-son

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-son qaroriga
1-ILOVA

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda ta’lim olayotgan to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom umumiy o‘rta ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda (keyingi o‘rinlarda — ta’lim muassasalari) ta’lim olayotgan to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta’minlash tartibini belgilaydi.

2. Davlat tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalariga qabul qilingan, ushbu muassasalarni tamomlab akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlar, shuningdek, oliv ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar o‘qishga qabul qilingan kundan boshlab o‘qishni tamomlagunga qadar to‘liq davlat ta’minotida bo‘ladi.

3. Ushbu Nizom:

a) quyidagilarga nisbatan tatbiq etiladi:

davlat tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalariga qabul qilingan, ushbu muassasalarni tamomlab ta’lim muassasalarida, shuningdek, oliv ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga;

ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan davrida yetim va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lib qolgan hamda homiy tayinlashning imkonii mavjud bo‘limganligi sababli to‘liq davlat ta’minotiga olingan bolalarga (keyingi o‘rinlarda — o‘quvchi (talaba);

b) quyidagilarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

davlat tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalarida tarbiyalanayotgan to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolalarga;

vasiylik yoki homiylik belgilangan bolalarga;

oilaga tarbiyaga (patronat) olingan bolalarga;

oliy ta’lim muassasalarida ikkinchi va undan keyingi ta’lim yo‘nalishi, ta’limning sirtqi shaklida ta’lim olayotgan, shuningdek, magistratura mutaxassisligi bo‘yicha bakalavriat bosqichini bitirgan yili o‘qishga qabul qilinmagan talabalarga.

4. To‘liq davlat ta’minoti pul nafaqalari hamda oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar, shuningdek, transportda yurish kartochkalaridan iborat bo‘ladi.

O‘quvchi (talaba)lar ushbu Nizomga **1-ilovaga** muvofiq oziq-ovqat mahsulotlari bilan, **2-ilovaga** muvofiq kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta’minlanadi.

Shuningdek, o‘quvchi (talaba)larga ular ta’lim muassasasini bitirayotganda, ishga qabul qilinayotganda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar sotib olish uchun bazaviy hisoblash miqdorining 100 baravari miqdorida, yo‘l xarajatlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 5 baravari miqdorida pul nafaqasi (keyingi o‘rinlarda — bitiruv nafaqasi) beriladi, ushbu Nizomning 8-band **uchinchchi xatboshisida** ko‘rsatilgan o‘quvchi (talaba)lar bundan mustasno.

5. Agar o‘quvchi (talaba)ning yashash joyi u ta’lim olayotgan ta’lim muassasasi joylashgan joydan 3 kilometrdan ortiq masofani tashkil etsa, o‘quvchilar transportda yurish kartochkalari bilan ta’minlanadi.

6. Ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan vaqtida voyaga yetganligi (18 yoshga to‘lganligi) munosabati bilan vasiyligi (homiyligi), oilaga tarbiyaga (patronat) berilganligi to‘htatilgan yoki bekor qilingan o‘quvchilarga shaxsiy xarajatlari uchun muassasani tamomlagunlariga qadar har oyda bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravari miqdorida pul mablag‘lari berib boriladi.

Ushbu pul mablag‘i oliv ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalarga to‘lanmaydi.

7. Ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan vaqtida to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar, ushbu muassasalarni tamomlab, oliv ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgandan so‘ng ham to‘liq davlat ta’minotida bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalarida o‘qiyotgan ushbu toifadagi talabalar ushbu Nizomga **1** va **2- ilovalarda** nazarda tutilgan oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta’minlanadi.

8. Ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan vaqtida yetim bo‘lib qolgan, ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan o‘quvchi (talaba)larga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda homiy tayinlanadi. Homiy tayinlashning imkonni bo‘limgan hollarda muassasa joylashgan hududdagi tuman (shahar) hokimining qarori bilan ushbu o‘quvchi (talaba)larga nisbatan ular ta’lim olayotgan muassasa o‘quvchi (talaba) muassasani tamomlagunga qadar homiy etib tayinlanadi.

Tuman (shahar) hokimining qarori o‘quvchi (talaba)ning to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolalar toifasiga kirishiga asos hisoblanadi.

Ushbu toifadagi o‘quvchi (talaba)larga ta’lim muassasasini bitirayotganda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgetidan (keyingi o‘rinlarda — budget) berilishi belgilangan bir yo‘la to‘lanadigan bitiruv nafaqasi berilmaydi.

2-bob. O‘quvchi (talaba)larga pul nafaqalari hamda oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar, shuningdek transportda yurish kartochkalari berish masalasini ko‘rib chiqish tartibi

9. Ta’lim muassasasida o‘quvchi (talaba)larga pul nafaqalari hamda oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar (keyingi o‘rinlarda — ijtimoiy ta’minot yordami), shuningdek, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini berish yuzasidan murojaatlarni o‘rganish bo‘yicha doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda — ishchi guruh) tuziladi.

10. Ishchi guruh tarkibiga muassasaning tegishli xodimlari kiritiladi va muassasa rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

Ishchi guruh kamida yetti kishidan iborat quyidagi tarkibda tuziladi:

ishchi guruh rahbari — muassasa rahbari;

ishchi guruhning mas’ul kotibi — muassasa rahbarining ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari;

muassasa yuriskonsulti;

muassasa buxgalteri;

to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolaning guruh rahbari yoki murabbiyi;

tanlov asosida bir nafar pedagog;
kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi.

11. O'quvchi (talaba)larga ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini berish masalasini ko'rib chiqish tartibi ushbu Nizomga [3-ilovada](#) keltirilgan sxemaga muvofiq amalga oshiriladi.

12. O'quvchi (talaba)larga ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini berish bo'yicha tegishli hujjatlarni yig'ish va rasmiylashtirish o'quvchi (talaba)ning guruh rahbari yoki murabbiyi (keyingi o'rnlarda — guruh rahbari) tomonidan amalgam oshiriladi.

13. O'quvchi (talaba) ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasi olish uchun muassasa rahbariga ariza bilan murojaat qiladi.

14. O'quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasi berish masalasini hal qilish uchun guruh rahbari tomonidan ishchi guruhga o'quvchi (talaba)ning murojaatidan so'ng uch ish kunida quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) o'quvchi (talaba)ning arizasi;

b) tuman (shahar) hokimining o'quvchi (talaba)ni davlat tarbiya, davolash-sog'lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirish yoki to'liq davlat ta'minotiga olish haqidagi qarori nusxasi;

v) o'quvchi (talaba)ning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi yoki pasporti nusxasi;

g) o'quvchi (talaba)ning yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lganligini tasdiqllovchi hujjatlar:

ota-onasining o'limi haqidagi guvohnoma nusxasi yoki sudning ota-onani vafot etgan deb topganligi to'g'risidagi qarori nusxasi;

ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lganligini tasdiqllovchi hujjat nusxasi.

15. Hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o'n ish kunida ishchi guruh tomonidan ko'rib chiqiladi.

16. Tushgan hujjatlarni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha o'quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasining berilishi yoki rad etilishi to'g'risida ishchi guruhning qarori qabul qilinadi va ta'lim muassasasi rahbari tomonidan tasdiqlangan bayonnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Ishchi guruh tomonidan barcha hujjatlar to'liq, asoslangan holda taqdim etilganligi aniqlanganda o'quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini berish to'g'risida, aksincha taqdim etilgan hujjatlarda kamchilik mavjudligi, hujjatlarning haqiqiy emasligi aniqlanganda nafaqa berilishini rad etish to'g'risida qaror qabul qilinadi.

Ishchi guruh tomonidan qaror nusxasi uch ish kunida o'quvchi (talaba)ga yetkaziladi.

O'quvchi (talaba) qaror nusxasini olgan kundan boshlab bir oy davomida tegishli kamchiliklarni bartaraf etgan holda nafaqa olish bo'yicha ishchi guruhga qayta murojaat qilish huquqiga ega bo'ladi.

17. Ishchi guruh rahbari va a'zolari ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasining berilishi yoki rad etilishi to'g'risida ishchi guruh qarorining qonuniyligi va uning to'g'ri qabul qilinganligi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi.

3-bob. O'quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta'minot yordamini berishni rasmiylashtirish tartibi

18. O'quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta'minot yordami ishchi guruhning qaroriga muvofiq qabul qilingan ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'iga asosan beriladi.

19. Muassasa buxgalteri tomonidan ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini berish bo'yicha ushbu Nizomga [4-ilovaga](#) muvofiq shaklda ikki nusxada so'rovnomasi tuziladi.

20. So'rovnomaning bir nusxasi uch ish kunida tegishliligi bo'yicha budjet mablag'larini taqsimlovchilarning moliya-iqtisod bo'linmalariga (keyingi o'rnlarda — moliya organlari) taqdim etiladi.

21. So'rovnama muassasaning birinchi bosqichiga qabul qilingan o'quvchi (talaba)lar uchun har yili 15-sentabrgacha, boshqa o'quvchi (talaba)larga esa kelgusi yil uchun joriy yilning 15-dekabriga qadar shakllantiriladi.

Muassasada ta'lim olayotgan davrida to'liq davlat ta'minotiga olingan o'quvchi (talaba)lar uchun so'rovnama u to'liq davlat ta'minotiga olingandan so'ng 15 kun ichida shakllantiriladi.

22. Moliya organlari tomonidan so'rovnomaga binoan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda muassasaning xarajatlar smetasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish orqali mablag' ajratiladi.

4-bob. O'quvchi (talaba)larga ijtimoiy ta'minot yordamini berish tartibi

23. O'quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta'minot yordamini berish naqd pul shaklida yoki ularning bank plastik kartasiga pul o'tkazish orqali amalga oshiriladi.

24. O'quvchi (talaba)larning xohishiga ko'ra ijtimoiy ta'minot yordamini olish uchun to'lanadigan pul mablag'larining o'rniga unga teng miqdorda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashayoviy ta'minot buyumlari berilishi mumkin.

Kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashayoviy ta'minot buyumlari ushbu Nizomga [2- ilovaga](#) muvofiq ro'yxatda belgilangan ashayoviy ta'minot buyumlari orasidan o'zi istagan buyumlarni ko'rsatgan holda o'quvchi (talaba)ning muassasa rahbari nomiga yozgan arizasiga binoan beriladi.

25. O'quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta'minot yordami shaxsiy imzosi qo'yilgan tarqatish qaydnomasi asosida beriladi.

26. Ayrim sabablarga ko'ra o'tgan davr uchun to'lanmay qolgan ijtimoiy ta'minot yordami keyingi to'lov larga qo'shib to'lanadi.

5-bob. O'quvchi (talaba)larni transportda yurish kartochkalari bilan ta'minlash tartibi

27. Transportda yurish kartochkalari yo'lovchi tashish transportida (taksidan tashqari) yurish uchun oylik yo'l chiptalari joriy etilgan hududlarda beriladi.

Agar o'quvchi (talaba) o'qiydigan tuman (shahar)da yoki aholi punktida bu turdag'i kartochka tizimi bo'lmasa, u holda ularga jamoat transportida yurishlari uchun oylik yo'l chiptasi miqdoridagi pul mablag'i o'quvchi (talaba)ning bank plastik kartasiga pul o'tkazish orqali yoki naqd pul shaklida beriladi.

28. Transportda yurish kartochkalari muassasalarning xarajatlar smetasiga ajratilgan mablag'lar hisobidan sotib olinadi.

29. Transportda yurish kartochkalari muassasalar tomonidan yo'lovchilar tashish transporti xizmatlarini ko'rsatuvchi tashkilotning shaxsiy g'azna hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li bilan xarid qilinadi.

30. Transportda yurish kartochkalari o'quvchi (talaba)larga joriy oy tugashiga kamida ikki kun qolganida tarqatiladi.

Transportda yurish kartochkalari o'qish davri uchun beriladi.

6-bob. O'quvchi (talaba)larga bitiruv nafaqasini berish tartibi

31. O'quvchi (talaba)larga bitiruv nafaqasi bir marta, ular ta'lim muassasasini bitirayotganda, ishga qabul qilinayotganda o'zi ta'lim olgan ta'lim muassasasidan beriladi.

Davlat tarbiya, davolash-sog'lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalari bitiruvchilariga bitiruv nafaqasi ular ishga qabul qilinayotganda, ushbu muassasalardan beriladi.

32. Agar o'quvchi (talaba) umumiy o'rta ta'lim muassasasining 11-sinfini yoki muassasani bitirib, oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan taqdirda, unga bitiruv nafaqasi o'zi ta'lim olayotgan oliy ta'lim muassasasini bitirayotganda, ishga qabul qilinayotganda ushbu oliy ta'lim muassasasi tomonidan beriladi.

33. Bitiruv nafaqasi har yili 1-sentabrgacha bitiruvchining bank plastik kartasiga pul o'tkazish orqali yoki naqd pul shaklida beriladi.

34. O'quvchi (talaba)larga bitiruv nafaqasi shaxsiy imzosi qo'yilgan tarqatish qaydnomasi asosida beriladi.

35. Bitiruvchi o'z xohishiga ko'ra bitiruv nafaqasi o'rniga unga teng miqdorda kiyim-bosh, poyabzal va boshqa ashayoviy ta'minot buyumlarini olishi mumkin.

7-bob. Ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va hisoboti

36. Ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini moliyalashtirish budget mablag'lari hisobidan qonun hujjalarda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

37. O'quvchi (talaba)larga ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasi uchun sarflanadigan xarajatlar miqdori ular ta'lim olayotgan muassasalar tomonidan taqdim etilgan so'rovnomalarga asosan muassasalarining xarajatlar smetasida rejalashtiriladi.

38. Ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini berish uchun sarflanadigan mablag'larning buxgalteriya hisobi va hisoboti tegishli ta'lim muassasasining buxgalteriyasi tomonidan amalga oshiriladi.

39. Muassasalar tomonidan har o'quv yili yakunida ushbu Nizomga [5-ilovaga](#) muvofiq shakl bo'yicha hisobot tayyorlanadi va moliya organlariga taqdim etiladi.

Moliya organlari tomonidan ushbu hisobotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga hisobot taqdim etiladi.

40. Asossiz ravishda to'langan ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalari belgilangan tartibda budjetga qaytariladi.

8-bob. Yakunlovchi qoidalar

41. Muassasalarining ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini berish bilan bog'liq faoliyatini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati departamentining hududiy bo'linmalari tomonidan amalga oshiriladi.

42. Shaxsiy javobgarlik:

ta'lim muassasasi tomonidan ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini asosli tayinlash va to'lash tartibiga rioya qilinganligi va moliyaviy hisobotlarning to'g'riliqi bo'yicha ishchi guruh rahbariga;

ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalari uchun ajratilgan mablag'larning muassasalarga o'z vaqtida va to'liq o'tkazib berilishi bo'yicha moliya organi rahbariga;

ta'lim muassasasi tomonidan ijtimoiy ta'minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarining o'quvchi (talaba)ga o'z vaqtida va to'liq to'lab berilishi bo'yicha muassasa rahbari va bosh buxgalterga yuklatiladi.

43. Ushub Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjalarda belgilangan tartibda javob beradilar.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda ta'lim olayotgan to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi [nizomga](#)

1-ILOVA

To'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni oziq-ovqat bilan ta'minlash

NORMALARI

(bir kishi hisobiga kuniga gramm (brutto)

| T/r | Oziq-ovqatmahsulotlarining nomi | 15 — 18 yosh |
|-----|---------------------------------|--------------|
| 1. | 1-sort bug'doy non | 600 |
| 2. | Bug'doyuni* | 35 |
| 3. | Kartoshka kraxmali* | 3 |

| | | |
|-----|-----------------------------------------------------------------|-----|
| 4. | Dukkaklilaryormasi, makaron mahsulotlari* | 75 |
| 5. | Qand-shakar | 90 |
| 6. | Qandolatchilikmahsulotlari | 25 |
| 7. | Sariyog* | 30 |
| 8. | O'simlikyog'i* | 20 |
| 9. | Sut va sutmahsulotlari | 400 |
| 10. | Qaymoq | 10 |
| 11. | Suzma* | 70 |
| 12. | Pishloq* | 12 |
| 13. | Go'sht, parrandago'shti | 200 |
| 14. | Pishirilgan kolbasa, sosiskalar* | 25 |
| 15. | Baliq | 35 |
| 16. | Tuxum (dona) | 1 |
| 17. | Kartoshka* | 400 |
| 18. | Sabzavotlar, oshko'klar, tuzlamalar, shu jumladan, tomat (3 g.) | 455 |
| 19. | Ho'lmevalar | 250 |
| 20. | Meva, sabzavotsharbatlari | 200 |
| 21. | Quruqmevalar, shu jumladan, na'matak (5 g.) | 15 |
| 22. | Choy | 0,5 |
| 23. | Yodlangan tuz | 8 |
| 24. | Achitqilar* | 1 |
| 25. | Ziravor ar* | 2 |

* Bir hafta uchun o‘rtacha sutkalik normalar.

Izoh:

1. Ayrim oziq-ovqat mahsulotlarini muassasalarda O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan mahsulotlarni asosiy oziq-ovqat moddalarini bo'yicha almashtirish jadvaliga muvofiq ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar doirasida almashtirishga ruxsat etiladi.

2. Muassasalar va yotoqxonalarida issiq ovqat mavjud bo‘lmasa, shuningdek, faqat bir martalik issiq ovqat mavjud bo‘lganda, o‘quvchi (talaba)larga bir martalik ovqat bilan kompensatsiya qilinmagan miqdorda (savdo ustamasini hisobga olgan holda) to‘liq yoki qisman naqd pul beriladi.

3. Muassasalarda boshqa shaharlardan kelgan yetim bolalar va ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga ular muassasaga yetib kelgan vaqtidan boshlab o‘qishga qabul qilingungacha bepul oyaqt beriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda ta'lim olayotgan to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'iidan mahrum bo'lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh,

ilan ta'min

To‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni kiyim-bosh, poyabzal va boshqa

NORMAL API

| NORMALARI | | | | | |
|-----------|----------------------------------------------|-----------------|-------------------------------|---------------------------|-------------------|
| T/r | Kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar nomi | O'Ichov birligi | Biro‘quvchi (talaba) hisobiga | | |
| | | | O‘g‘il bolalar uchun | | Qiz bolalar uchun |
| | | | soni | foydalanish muddati (yil) | soni |

| | | | | | | |
|------------------------------------|--------------------------------------------------------------|---------|---|---|---|---|
| 1. | Qishki palto | dona | 1 | 3 | 1 | 3 |
| 2. | Mavsumiy palto, kurtka | dona | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 3. | O‘qish uchun kostyum: | dona | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 4. | Qishki | to‘plam | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 5. | Yozgi | to‘plam | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 6. | O‘qish uchun ip gazlamadan tikilgan oq ko‘ylaklar | dona | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 7. | Sport formasivaketalar | to‘plam | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 8. | O‘g‘il bolalar uchu kostyumlar | to‘plam | 3 | 2 | | |
| 9. | Qizlar uchun ko‘ylaklar (yubkalar, bluzkalar) | dona | | | 3 | 2 |
| 10. | Qizlar uchun uy xalatlari | dona | | | 2 | 2 |
| 11. | O‘g‘il bolalar uchun ip gazlamadan tikilgan ustki ko‘ylaklar | dona | 3 | 1 | | |
| 12. | Bayramlar uchun qishki kostyum yoki ko‘ylak | dona | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 13. | Bayramlar uchun yozgi kostyum yoki ko‘ylak | dona | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 14. | Jun sviter (jemper) | dona | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 15. | Qizlar uchun reytuzalar | dona | | | 2 | 1 |
| 16. | Yozgi bosh kiyim | dona | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 17. | Qishki bosh kiyim | dona | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 18. | Dastro‘mol | dona | 4 | 1 | 4 | 1 |
| 19. | Uyshimlari (jinsilar) | dona | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 20. | O‘g‘il bolalar uchun shimkamarlari | dona | 1 | 1 | | |
| 21. | Yarim jun sharflar | dona | 1 | 3 | 1 | 3 |
| 22. | Qo‘lqoplar (panjasiz qo‘lqoplar) | juft | 1 | 3 | 1 | 3 |
| 23. | Byustgalter | dona | | | 3 | 1 |
| 24. | Qizlar uchun triko | dona | | | 5 | 1 |
| 25. | Kalta sport ishtonlari | dona | 2 | 1 | | |
| 26. | Shortilar | dona | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 27. | Mayka | dona | 3 | 1 | | |
| 28. | Futbolka | dona | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 29. | Ip gazlama paypoqlar, golflar | juft | 5 | 1 | 5 | 1 |
| 30. | Tungi ko‘ylaklar, pijamalar | ta | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 31. | Kolgotkalar | juft | | | 5 | 1 |
| 32. | Cho‘milish ko‘ylagi, plavkilar | ta | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Poyabzal | | | | | | |
| 33. | Botinkalar, tuflilar, krossovkalar | juft | 3 | 1 | 3 | 1 |
| 34. | Shippaklar | juft | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 35. | Etiklar, qishki botinkalar | juft | 1 | 1 | 1 | 1 |
| Ashyoviy ta’minot buyumlari | | | | | | |
| 36. | Portfellar, sumkalar | dona | 2 | 3 | 2 | 3 |
| 37. | Jomadon | dona | 1 | 5 | 1 | 5 |

| | | | | | | |
|-----|---------------------------------------|------|---|---|---|---|
| 38. | Choyshablar | dona | 3 | 2 | 3 | 2 |
| 39. | Ko‘rpa choyshablari | dona | 2 | 3 | 2 | 3 |
| 40. | Kichik yostiq jildi | dona | 1 | 4 | 1 | 4 |
| 41. | Katta yostiq jildi | dona | 3 | 3 | 3 | 3 |
| 42. | Sochiq | dona | 3 | 2 | 3 | 2 |
| 43. | Paxmoq sochiq | dona | 3 | 3 | 3 | 3 |
| 44. | Jun yoki momiqqli adyol | dona | 1 | 6 | 1 | 6 |
| 45. | Paxmoq adyol | dona | 1 | 4 | 1 | 4 |
| 46. | To‘sak | dona | 1 | 4 | 1 | 4 |
| 47. | Yostiq | dona | 1 | 6 | 1 | 6 |
| 48. | To‘sak qoplamasasi | dona | 1 | 6 | 1 | 6 |
| 49. | Karavot oldiga to‘shaladigan gilamcha | dona | 1 | 6 | 1 | 6 |

Shaxsiy gigiyena buyumlar

| | | | | | | |
|-----|---------------------------------------------|--------------------------|----|---|----|---|
| 50. | Tish pastasi | dona | 12 | 1 | 12 | 1 |
| 51. | Tish cho‘tkasi | dona | 3 | 1 | 3 | 1 |
| 52. | Kir sovun | dona | 12 | 1 | 12 | 1 |
| 53. | Atirsovun | dona | 24 | 1 | 24 | 1 |
| 54. | Kir yuvish poroshoklari | o‘ram (400 g.) | 12 | 1 | 12 | 1 |
| 55. | Soqol olish buyumlari | dona | 12 | 1 | 5 | 1 |
| 56. | Taroq | dona | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 57. | Hojatxona qog‘ozzi | o‘ram | 24 | 1 | 24 | 1 |
| 58. | Shampun | dona (200 g.) | 12 | 1 | 12 | 1 |
| 59. | Dezodorant (aerozol) | dona | 6 | 1 | 6 | 1 |
| 60. | Gigiyena qistirmalari | o‘ram (10 tadan) | | | 12 | 1 |
| 61. | Momiq | o‘ram (200 g.) | | | 4 | 1 |
| 62. | Poyabzal moyi | tyubik | 6 | 1 | 6 | 1 |
| 63. | Soqol olingandan keyin ishlatiladigan loson | flakon (100 — 150 g.) | 6 | 1 | | |
| 64. | Badanni yuvish uchun gubka | dona | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 65. | Tog‘ora | dona | 1 | 3 | 1 | 3 |

Izoh: Muassasalar rahbarlariga ko‘rsatib o‘tilgan ta’midot normalariga yangi fasonlarni va o‘quvchi (talaba)lar xohishini hisobga olgan holda ushu maqsadlar uchun o‘quv muassasasiga ajratiladigan mablag‘lar doirasida o‘zgartirishlar kiritish huquqi beriladi.

Umumiy o‘ta ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda ta’lim olayotgan to‘liq davlat ta’midotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta’minalash tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**

3-ILOVA

O‘quvchi (talaba)larga ijtimoiy ta’midot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini berish masalasini ko‘rib chiqish tartibi

SXEMASI

| | | | | | | | |
|------------|--------------------------|------------|--------------------------|-----------|--------------------------|-----------|--------------------------|
| Bosqichlar | <input type="checkbox"/> | Ijrochilar | <input type="checkbox"/> | Tadbirlar | <input type="checkbox"/> | Muddatlar | <input type="checkbox"/> |
|------------|--------------------------|------------|--------------------------|-----------|--------------------------|-----------|--------------------------|

| | | | |
|-----------|--------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich | O‘quvchi (talaba) | Ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini olish uchun muassasa rahbariga ariza bilan murojaat qiladi. | Zaruratga ko‘ra |
| 2-bosqich | O‘quvchi (talaba)ning guruh rahbari yoki murabbiyi | O‘quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasini berish masalasini hal qilish uchun murojaatlarni o‘rganish bo‘yicha muassasada tashkil etiladigan doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruhga hujjatlarni taqdim etadi. | O‘quvchi (talaba)ning murojaatidan so‘ng uch ish kunida |
| 3-bosqich | Muassasada tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruh | 1. O‘quvchi (talaba)ning guruh rahbari yoki murabbiyi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni ko‘rib chiqadi. 2. Tushgan hujjatlarni ko‘rib chiqish natijasi bo‘yicha o‘quvchi (talaba)ga ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqasining berilishi yoki rad etilishi to‘g‘risida qaror qabul qiladi. | Hujjatlar taqdim etilgan kundan boshlab o‘n ish kunida |
| 4-bosqich | Ta’lim muassasasi rahbari | Ishchi guruhning qarorini tasdiqlaydi va bayonnomma bilan rasmiylashtirilishini ta’minlaydi. | Ishchi guruhning qarori qabul qilingan kundan so‘ng bir ish kunida |
| 5-bosqich | Muassasada tashkil etilgan doimiy faoliyat yurituvchi ishchi guruh | Qaror nusxasini o‘quvchi (talaba)ga yetkazadi. | Uch ish kunida |

Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda ta’lim olayotgan to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta’minalash tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**

4-ILOVA

Ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalari uchun budjetdan mablag‘ ajratish SO‘ROVNOMA

Muassasa nomi:

| T/r | O‘quvchi (talaba)ning F.I.O. | Ijtimoiy ta’minot yordami turi (so‘m) | | | | | |
|----------------------------|------------------------------|---------------------------------------|------------|------------------------|----------------------------|-----------------------------|----------------------------------|
| | | Nafaqa | Oziq-ovqat | Kiyim-bosh va poyabzal | Shaxsiy gigiyena buyumlari | Ashyoviy ta’minot buyumlari | Transportda yurish kartochkalari |
| Ta’lim muassasasi rahbari: | | | | | | (F.I.O.) | (imzo) |

Bosh buxgalter:

(F.I.O.)

(imzo)

Umumiy o‘rtta ta’lim muassasalari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlar va texnikumlarda ta’lim olayotgan to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni pul nafaqalari hamda oziq-ovqat, kiyim-bosh, poyabzal va boshqa buyumlar bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi **nizomga**

5-ILOVA

**Ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv
nafaqalarini tayinlash va to‘lash bo‘yicha
HISOBOT**

20 ____ yil ____ chorak uchun

Muassasa nomi: _____

Muassasa joylashgan tuman (shahar) _____

| T/r | Ijtimoiy ta’minot yordami turi | O‘lchov birligi | Yil boshidan |
|-----|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------|--------------|
| 1. | Ijtimoiy ta’minot yordami uchun muassasaga ajratilgan mablag‘lar miqdori | so‘m | |
| 2. | Qaydnomaga asosan berilgan ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini miqdori | so‘m | |
| 3. | Qaydnomaga asosan ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini olayotgan to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolalar soni | nafar | |
| 4. | Ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini olish yuzasidan arizalar soni | nafar | |
| 5. | Ko‘rib chiqilgan arizalar soni | nafar | |
| 6. | Ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini tayinlash to‘g‘risidagi qarorlar soni | dona | |
| 7. | Ijtimoiy ta’minot yordami, transportda yurish kartochkalari hamda bitiruv nafaqalarini tayinlashni rad etish to‘g‘risidagi qarorlar soni | dona | |

Ta’lim muassasasi rahbari: _____

(F.I.O.)

(imzo)

Bosh buxgalter: _____

(F.I.O.)

(imzo)

20 ____ yil “ ____ ” _____

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-son qaroriga
2-ILOVA

**Mehribonlik uyi to‘g‘risida
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

- Ushbu Nizom Mehribonlik uylari maqomini, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.
- Mehribonlik uyi yetim bolalar va ota-onalarning qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun davlat tarbiya muassasasidir.

3. Mehribonlik uyi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi **Konstitutsiyasi** va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek, o‘z ustaviga amal qiladi.

4. Quyidagilar Mehribonlik uyining asosiy vazifalari hisoblanadi:

yetim bolalar va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni (keyingi o‘rinlarda — tarbiyalanuvchilar) tarbiyalash, kamol toptirish va qo‘llab-quvvatlash;

tarbiyalanuvchilarni to‘liq ruhiy sog‘lomlashtirishga, ijtimoiy moslashtirishga va jamiyatga uyg‘unlashtirishga ko‘maklashadigan, ularning sifatli ta’lim va tarbiya olishi, shuningdek, ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish uchun uy sharoitiga eng ko‘p darajada yaqinlashtirilgan muhitni yaratish;

tarbiyalanuvchilarning vasiysi (homiysi) sifatida qonuniy huquq va manfaatlari himoya qilinishini ta’minalash;

tarbiyalanuvchilarning hayoti va sog‘lig‘i, psixologik va jismoniy rivojlanishi himoya qilinishini ta’minalash.

2-bob. Mehribonlik uyini tashkil etish tartibi

5. Mehribonlik uyi muassisning qarori asosida tashkil etiladi.

Mehribonlik uyi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan kelishgan holda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining muassisligida ham Mehribonlik uyi tashkil etilishi mumkin.

6. Mehribonlik uyi belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

7. Mehribonlik uyining namunaviy ustavi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Mehribonlik uyining ustavi uning muassisi tomonidan tasdiqlanadi.

8. Mehribonlik uylari quyidagi tiplarga bo‘linadi:

maktabgacha yoshdagи bolalar uchun Mehribonlik uyi (3 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun);

Mehribonlik uyi (maktabgacha va maktab yoshidagi yoki faqat maktab yoshidagi bolalar uchun);

ixtisoslashtirilgan korreksion Mehribonlik uyi (jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan bolalar uchun).

Mehribonlik uyi tipi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan belgilanadi.

9. Mehribonlik uylari faoliyatini muvofiqlashtirish Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

10. Mehribonlik uyi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi tasviri tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga ega bo‘ladi.

3-bob. Mehribonlik uyiga bolalarni qabul qilish

11. Quyidagilar Mehribonlik uyiga qabul qilinadi:

ota-onalari vafot etgan bolalar;

ota-onalari ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan bolalar;

ota-onalarining ota-onalik huquqlari cheklangan bolalar;

ota-onalari muomalaga layoqatsiz deb topilgan bolalar;

uzoq muddat kasal bo‘lganligi uchun ota-onalik vazifalarini bajara olmagan ota-onalarning bolalari;

ota-onalari bilan birga olti oydan ortiq muddat yashamagan hamda qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari tomonidan vasiylik yoki homiylikka olish rad qilingan bolalar;

ota-onalar bolalarni tarbiyalashdan yoki ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdan bosh tortgan, shu jumladan, ota-onalar o‘z bolalarini davlat tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish va tibbiy-ijtimoiy muassasalar va shunga o‘xshash boshqa muassasalaridan olishni rad etgan hollarda, shuningdek, bolalar ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan boshqa hollarda.

12. Mehribonlik uyiga bolalar 3 yoshdan boshlab qabul qilinadi hamda ular majburiy umumiyl o‘rta va o‘rta maxsus ta’limni tamomlagunga qadar muassasada bo‘ladilar.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan yetim va ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar Mehribonlik uyiga qabul qilinganidan so‘ng ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) yuboriladi.

13. Mehribonlik uyiga kam ta’minlangan oilalarning bolalari ushbu oilalarni bir yilgacha muddatda ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida tuman (shahar) hokimligi huzuridagi vasiylik va homiylik bo‘yicha komissiyaning xulosasiga ko‘ra tuman (shahar) hokimining qarori bilan vaqtinchalik qabul qilinadi.

Mehribonlik uyida bo‘lish muddatini yana bir yilga uzaytirish tarbiyalanuvchini dastlabki joylashtirish joyidagi tuman (shahar) hokimligi huzuridagi vasiylik va homiylik bo‘yicha komissiyaning oilaning yashash sharoiti moddiy ahvoli yaxshilanmaganligi hamda bolaning oilaga qaytishi maqsadga muvofiq emasligi to‘g‘risidagi xulosasiga ko‘ra tuman (shahar) hokimining qarori bilan amalga oshiriladi.

14. Mehribonlik uyidagi tarbiyalanuvchilar soni Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga rioya qilgan holda belgilanadi, lekin tarbiyalanuvchilarning soni 140 nafardan oshmasligi kerak.

Tarbiyalanuvchilar soni 140 nafardan oshishiga sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq, muassasaning tarbiyalanuvchilar bilan to‘ldirilish sig‘imidan kelib chiqib O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda Xalq ta’limi vazirligining roziligi asosida yo‘l qo‘yiladi.

15. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari har xil yoki bir xil yoshdagi tarbiyalanuvchilar guruhlariga birlashtiriladi. 7 yoshgacha bo‘lgan turli yoshdagi bolalar guruhlarida tarbiyalanuvchilar soni 10 nafar etib belgilanadi, bir xil yoshdagi tarbiyalanuvchilar guruhlarida esa: 4 yoshgacha bo‘lgan bolalar — 8 nafar, 4 yoshdan 7 yoshgacha bo‘lgan bolalar guruhida esa — 12 nafar bola bo‘ladi; tarbiyalanuvchilar guruhlaridagi o‘quvchilar soni I — XI sinflarda — 15 nafar bo‘lishi lozim.

Mehribonlik uyida ijtimoiy-pedagogik, tibbiy-psixologik qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan korreksion guruhlar, shu jumladan, sport va harbiy sohaga qiziqishi bo‘lgan VII — XI sinflarda o‘qiydigan bolalar uchun vatanparvarlik-sport yo‘nalishidagi guruhlar tashkil etilishi mumkin.

Tarbiyalanuvchilarni ixtisoslashtirilgan korreksion guruhlarga yo‘llash faqat tibbiy-psixologik-pedagogik komissiyaning xulosasi asosida amalga oshiriladi.

Ixtisoslashtirilgan korreksion guruhlardagi bolalar soni jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta’lim muassasalarining (maktablar, maktab-internatlarning) tarbiya guruhlaridagi bolalar soni me‘yorlariga muvofiq ravishda belgilanadi.

Vatanparvarlik-sport yo‘nalishidagi guruhlar O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining buyrug‘iga asosan tashkil etiladi.

16. Bolalarni Mehribonlik uyiga yo‘llash bola yashaydigan joy bo‘yicha tuman (shahar) hokimining qarori asosida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

17. Mehribonlik uyiga yuboriladigan har bir bola uchun vasiylik va homiylik organi tomonidan, bir Mehribonlik uyidan boshqasiga o‘tkazishda esa — Mehribonlik uyi ma’muriyat tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- a) Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasining bolani Mehribonlik uyiga yuborish to'g'risidagi yo'llanmasi;
- b) tuman (shahar) hokimining bolani Mehribonlik uyiga joylashtirish haqidagi qarori (qarorda voyaga yetmagan bola, uning oilasi, turar joy maydoni bolaga biriktirilganligi to'g'risidagi aniq qaydnama bilan birgalikda turar joy maydoni mavjudligi to'g'risidagi dalilli va to'liq ma'lumotlar bo'lishi kerak);
- v) tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, tug'ilganlik haqida dalolatnama yozuvidan ko'chirma, guvohnoma bo'lмаган taqdirda — bolaning yoshini aniqlaydigan tibbiy ekspertiza xulosasi;
- g) analizlar natijalari va tibbiy-psixologik-pedagogik xulosa ilova qilingan holda bolaning psixik va jismoniy sog'lig'i haqidagi tibbiy hujjatlar (tibbiy tekshirishlar natijalari ilova qilingan holda);
- d) ma'lumoti haqidagi hujjat (maktab yoshidagi bolalar uchun);
- e) ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlar (ota-onalarning pasportlari nusxalari yoki ularning vafoti haqidagi guvohnoma nusxasi, sudning hukmi yoki qarori, ota-onasining surunkali kasalligi yoki qidiruvda ekanligi haqidagi, ota-onasining yo'qligi yoki ularning o'z farzandlarini tarbiyalay olmasligi haqidagi hujjatlar);
- j) bolaning turmush sharoiti va tarbiyasi haqidagi tekshiruv dalolatnomasi;
- z) bolaning yaqin qarindoshlari mavjudligi haqida ma'lumotnomma;
- i) bolaning ota-onasidan qolgan mol-mulki (agar bor bo'lsa) ro'yxati, ushbu mol-mulkning qayerda joylashganligi, uni saqlash uchun qanday choralar ko'rilmaganligi va ularni saqlash uchun javobgar shaxslar haqidagi ma'lumot;
- k) bolaga turar joy biriktirilganligi to'g'risidagi hujjatlar (dalolatnama, uy daftari, turar joy chizmasi nusxalari, turar joyning egasi va xususiy tasdiqlanganligi holati to'g'risida tuman (shahar) yer resurslari va davlat kadastri bo'limidan ma'lumotnomma);
- l) pensiya oluvchi bolalarning pensiya daftarchasi, bola foydasiga aliman undirish haqidagi sud qarori, omonat daftarchasi.

Bolani mazkur Nizomning **13-bandiga** muvofiq Mehribonlik uyiga joylashtirishda yuqorida ko'rsatilgan hujjatlar bilan birga ota-onaning arizasi, turar joyi, kam ta'minlangan oila sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organida ro'yxatda turganligi haqidagi ma'lumotnomalar taqdim etiladi.

18. Bir oilaning a'zolari bo'lgan bolalar yoki qarindoshlar bir muassasaga yuboriladi. Tibbiy yoki boshqa sabablarga ko'ra ushbu bolalarni alohida tarbiyalash va joylashtirish kerak bo'lgan hollar bundan mustasno.

19. Tarbiyanuvchilarini maktabgacha Mehribonlik uyidan maktab yoshidagi bolalar uchun Mehribonlik uyiga yoki bir Mehribonlik uyidan boshqa Mehribonlik uyiga o'tkazish 1-iyundan 25-avgustga qadar amalga oshiriladi.

Tarbiyanuvchilarini Bolalar uylaridan Mehribonlik uyiga qabul qilish majburiy tartibda, bola 3 yoshga to'lgandan so'ng ushbu Nizomning **17-bandiga** muvofiq amalga oshiriladi.

4-bob. Mehribonlik uyining tarbiyanuvchilari

20. Mehribonlik uylari tarbiyanuvchilarining ta'limi, tarbiyasi va ta'minoti to'liq davlat ta'minoti asosida amalga oshiriladi.

21. Mehribonlik uyi tarbiyanuvchilar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan Mehribonlik uylari tarbiyanuvchilarining oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishining o'rtacha sutkalik maqbul meyorlariga muvofiq oziq-ovqat, shuningdek, ushbu Nizomga **1-ilovaga** muvofiq norma bo'yicha oziq-ovqat, **2-ilovaga** muvofiq norma bo'yicha kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq jihozlar, **3-ilovaga** muvofiq norma bo'yicha shaxsiy gigiyena buyumlari bilan ta'minlanadilar.

22. Mehribonlik uyi ma'muriyat tarbiyanuvchilarining ushbu Mehribonlik uyida bo'lishining birinchi yili mobaynida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashiga, viloyatlar

va Toshkent shahar hokimliklariga, ota-onas qaramog‘idan mahrum bo‘lgan, uy-joy maydoniga ehtiyojmand bo‘lgan tarbiyalanuvchilar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni taqdim etadi.

23. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari Mehribonlik uylarining ehtiyojmand tarbiyalanuvchilarini qonun hujjalarda belgilangan tartibda uy-joy bilan ta’minalashlari kerak.

24. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarning akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar va oliy ta’lim muassasalariga o‘qishiga kirishiga yordam beriladi.

25. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar va oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan taqdirda, Mehribonlik uyi ma’muriyati tarbiyalanuvchiga homiylik qilishni bundan keyin mazkur ta’lim muassasasiga berish uchun tarbiyalanuvchi o‘qishga kirgan ta’lim muassassasi joylashgan joy bo‘yicha vasiylik va homiylik organini hamda tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi vasiylik va homiylik bo‘yicha komissiyani xabardor qiladi.

Mazkur muassasalar voyaga yetmaganning qonuniy vakili sifatida uning qonuniy manfaatlarini himoya qilish choralarini ko‘radilar hamda homiylik vazifalarini to‘liq bajaradilar.

26. Akademik litseylarda o‘qiyotgan tarbiyalanuvchilar mazkur muassasada yotoqxona mavjud bo‘lmagan taqdirda, Mehribonlik uyi ma’muriyati bilan kelishgan holda, ular o‘qishni tamomlaguniga qadar Mehribonlik uyida yashashi mumkin.

Ushbu bitiruvchilarning yashashi hamda ovqatlanishi bilan bog‘liq xarajatlar Mehribonlik uyi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

27. Mehribonlik uyining akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar va oliy ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan sobiq tarbiyalanuvchilari o‘zлari ta’lim olayotgan ta’lim muassasalari ma’muriyati bilan kelishgan holda ta’til davrida, dam olish va bayram kunlarida, shuningdek, kasallik davrida yashaganlik uchun haq to‘lamasdan Mehribonlik uyida turishlari mumkin.

Ularning yashashi hamda ovqatlanishi bilan bog‘liq xarajatlar Mehribonlik uyi mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

28. Tarbiyalanuvchilar qonun hujjalariiga, odob-axloq normalariga, Mehribonlik uyining ichki tartib-qoidalariga rioya qilishga, bilimlarni, amaliy ko‘nikmalarni, kasb mahoratini muntazam va puxta egallashga, o‘zlarining umumiyligi va madaniy saviyasini oshirib borishga majbur.

29. Mehribonlik uyidan chiqarishda tarbiyalanuvchilarga quyidagi hujjalarni beriladi:

- a) tug‘ilganlik to‘g‘risidagi guvohnoma, 16 yoshga to‘lganlar esa pasport;
- b) Mehribonlik uyida bo‘lganlik haqidagi ma’lumotnomasi;
- v) sog‘lig‘i haqidagi ma’lumotnomasi (tibbiy hujjalarni);
- g) ma’lumoti to‘g‘risida hujjat (maktab yoshidagi bolalar uchun);
- d) ota-onasi va boshqa yaqin qarindoshlari haqidagi ma’lumotlar.

Bolaning mol-mulkka, pul mablag‘lariiga, turar joyga (o‘zi yoki ota-onasiga qarashli bo‘lgan) egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjalarni, pensiya va omonat daftarchalari, alimentlar undirish to‘g‘risidagi ijro varaqasi va shaxsiy hujjalarni yig‘majildidagi boshqa hujjalarni ham beriladi.

30. Tarbiyalanuvchilarning Mehribonlik uyini bitirishi to‘g‘risidagi qaror kollegial organ — Mehribonlik uyi Kengashi tomonidan qabul qilinadiva Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadi.

31. Tarbiyalanuvchilarni ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tomonidan Mehribonlik uyidan qaytarib olish ushbu Nizomning **29-bandiga** muvofiq amalga oshiriladi. Bolaning yoshidan va qaytish holatlaridan qat‘i nazar, bola yashaydigan joy bo‘yicha vasiylik va homiylik organining xulosasiga muvofiq chiqarilgan tuman (shahar) hokimining qarori tarbiyalanuvchining qaytishi uchun asos hisoblanadi.

32. Mehribonlik uyi direktori tarbiyalanuvchilarni qabul qilish va ularni Mehribonlik uyidan chiqarish uchun ushbu Nizom talablariga muvofiq shaxsan javob beradi.

5-bob. Mehribonlik uyida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etish

33. Tarbiyalanuvchilarni o‘qitish Mehribonlik uyiga yaqin atrofda joylashgan umumta’lim va ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalarida amalga oshiriladi.

Har bir bosqichda o‘qish yoshi va o‘qishning qancha vaqt davom etishi Mehribonlik uyi yoki tarbiyalanuvchi o‘qiyotgan boshqa ta’lim muassasasining ustavida belgilanadi. Har bir bosqichda o‘qishning qancha vaqt davom etishi to‘g‘risidagi xulosa Mehribonlik uyi rahbari ishtirotkida tarbiyalanuvchi o‘qiyotgan ta’lim muassasasi pedagogik kengashining qarori bilan qabul qilinadi.

34. Tarbiyalanuvchilar bilim olayotgan ta’lim muassasalarining o‘quv-tarbiyaviy va boshqa masalalari Mehribonlik uyi pedagogik jamoasi bilan yaqin hamkorlikda hal qilinadi.

35. Mehribonlik uyidagi ta’lim-tarbiya, ma’naviy-axloqiy ishlari ta’lim va tarbiyaning insonparvarlik, demokratik va dunyoviy tamoyillari asosida quriladi.

36. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarning umumiy o‘rta ta’lim davlat standartlariga muvofiq fanlarning asoslari bo‘yicha muntazam bilim, malaka va ko‘nikmalarni egallab olishiga ko‘maklashadi, shuningdek, milliy va umuminsoniy ma’naviy qadriyatlar asosida ma’naviy-axloqiy fazilatlar shakllanishi, ijodiy qobiliyatlar, mehnat ko‘nikmalari, atrof muhitga va kasb tanlashga ongli munosabatda bo‘lishning rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.

Mehribonlik uylarida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy moslashuvi va kasb-hunarni muvaffaqiyatli tanlashi, ularda ijtimoiy va hayotiy ko‘nikmalarni hosil qilishga yo‘naltirilgan o‘quv kurslari tashkil etiladi.

O‘quv kurslari faoliyatini tashkil etish va ularni zarur moddiy-texnika vositalar bilan ta’minalash muassasa mablag‘lari hamda boshqa mablag‘lar hisobidan amalga oshiriladi.

37. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarning intellektual, axloqiy, jismoniy va quvnoq rivojlanishi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash uchun eng ko‘p darajada qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda tarbiyalanuvchilarning psixologik-pedagogik xususiyatlari hisobga olingan holda tarbiyaning maqbul texnologiyalari, shakllari va usullari tanlanadi.

38. Maktabgacha yoshdagi bolalarga mo‘ljallangan Mehribonlik uyi, shuningdek, Mehribonlik uyining maktabgacha yoshdagi bolalar guruhlari o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan maktabgacha ta’lim muassasalari uchun davlat ta’lim talablari bo‘yicha ishlab chiqilgan ta’lim-tarbiya dasturiga muvofiq amalga oshiradi.

39. Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsonlari bo‘lgan tarbiyalanuvchilarning ta’lim-tarbiya jarayoni rivojlanishidagi nuqsonlarga muvofiq ta’lim va tarbiyaning maxsus dasturlari bo‘yicha tashkil etiladi.

40. Tarbiyalanuvchilarning individual, ta’lim-rivojlantiruvchi ehtiyojlarini qondirish, ularning iste’dod va qobiliyatlarini rivojlantirish, shuningdek, keyinchalik kasbga yo‘naltirish uchun ularning qiziqishlari va moyilliklarini aniqlash, bo‘sh vaqtlarini va dam olishini tashkil qilish maqsadida Mehribonlik uyida ham muassasaning mablag‘lari, ham boshqa mablag‘lar hisobiga turli klublar, seksiyalar, to‘garaklar, studiyalar tashkil etiladi.

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilari madaniy-estetik, tabiiy-ilmiy, texnik, sport va boshqa yo‘nalishlardagi mактабдан ташқари та’лим muassasalari ishlariда qatnashishlari mumkin.

41. Tarbiyalanuvchilarning madaniy-ommaviy, sport va mehnat faoliyatining turli shakllarida qatnashishi tashabbuskorlik, mustaqillik va vijdoniylik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

42. Bolaga nisbatan do‘stona munosabatlar muhitini yaratish va yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash maqsadida Mehribonlik uyida bolalar birlashmalari tashkil qilinishi mumkin.

43. Ta’til vaqtida bolalarning dam olishi Mehribonlik uyining shahar tashqarisidagi oromgohlarda, dala hovlilarida, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tizimidagi Respublika Mehribonlik uylari sog‘lomlashtirish oromgohida hamda boshqa sog‘lomlashtirish oromgohlarida tashkil etiladi.

44. Ta’lim, mehnat, dam olish va turli tadbirlarning tibbiy-pedagogik jihatdan o‘zaro asosli bog‘liqligini ta’minlaydigan kun tartibi tarbiyalanuvchilarning Mehribonlik uyida kecha-kunduz bo‘lishlarini hisobga olgan holda tuziladi.

6-bob. Ijtimoiy-psixologik pedagogik ko‘maklashishni tashkil etish

45. Mehribonlik uyida tarbiyalanuvchilar, pedagoglar, tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga ijtimoiy, psixologik-pedagogik yordam berish hamda tarbiyalanuvchilarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash maqsadida ijtimoiy xizmat (keyingi o‘rinlarda — xizmat) tashkil etiladi.

Xizmat tarkibi Mehribonlik uyining ijtimoiy muhofaza bo‘yicha direktor o‘rnbosari, psixolog, vrach, defektolog, yoshlar yetakchisi rahbari, guruh rahbaridan iborat bo‘ladi. Xizmatga ijtimoiy ximoya bo‘yicha direktor o‘rnbosari boshchilik qiladi.

46. Xizmat xodimlari:

tarbiyalanuvchilarning huquq va qonuniy manfaatlarini, ularning mol-mulkini himoya qiladilar;

tarbiyalanuvchilar bilan diagnostik, psixologik-profilaktik, korreksion, maslahat berish va reabilitatsiya ishlarini olib boradilar;

Mehribonlik uyining tarbiyalanuvchilari, pedagoglari, ma’muriyati va boshqa xodimlari bilan psixologik-profilaktik maslahat berish, ta’lim (seminarlar, treninglar) ishlarini olib boradilar;

tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bilan maslahat berish va reabilitatsiya ishlarini olib boradilar.

47. Xizmatning xodimlari quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha ish olib boradilar:

a) tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida:
tarbiyalanuvchining shaxsiy hujjatlar yig‘ma jildini o‘rganish va uning ijtimoiy maqomi barqarorligini aniqlash;

tarbiyalanuvchilarning mulkiy va nomulkiy huquqlari himoya qilinishini ta’minlash;

da’vo bo‘yicha ish olib borish va yetishmayotgan hujjatlarni to‘plash;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tarbiyalanuvchilar va ularning mol-mulkiga nisbatan qonun buzilishiga yo‘l qo‘yayotgan shaxslar javobgarlikka tortilishiga ko‘maklashish;

ota-onalarni aniqlash va ular bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish;

tarbiyalanuvchilarning manfaatlarini ko‘zlab sud majlislarida qatnashish;

ijtimoiy bilimlar, o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tarbiyalanuvchilar orasida ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish;

b) bolaning Mehribonlik uyida yashashga moslashish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarning xulq-atvoridagi chekinishlar profilaktikasi sohasida:

ijtimoiy rivojlanish va (yoki) reabilitatsiya qilishga ehtiyojmand bo‘lgan tarbiyalanuvchilar toifasini aniqlash;

kamol topishning tibbiy-ijtimoiy va psixologik-pedagogik muammolari tashxisi;

tarbiyalanuvchini kamol toptirish va reabilitatsiya qilishning shaxsiy dasturini tuzish;

shaxsning kamol topishi va uning jamiyatga reabilitatsiyasining ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari yaratilishiga ko‘maklashish (pedagog xodimlar, tengdoshlar guruhlari, do’stlar bilan ish olib borish);

tarbiyalanuvchilarni kasbga yo‘llash;

tarbiyalanuvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;

tarbiyalanuvchilarda o‘z taqdiri uchun mas’uliyat tuyg‘usini shakllantirish;

v) tarbiyalanuvchilarni oilaga o‘tkazish sohasida:

tarbiyalanuvchini mustaqil hayotga tayyorlash;

ota-onalarni yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni tarbiyalanuvchini oilaga qabul qilishga tayyorlash;

tarbiyalanuvchini o‘z oilasiga qaytarishga tayyorlash va qaytarish;

tarbiyalanuvchini farzandlikka olgan oilada yashashga tayyorlash.

Bundan tashqari, xizmat vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga asosan tarbiyalanuvchini oilaga farzandlikka yoki tarbiyaga (patronat) oluvchi nomzodlarni tanlash yuzasidan quyidagilarni amalga oshiradi:

nomzodlar bilan suhbatlashish;

tarbiyalanuvchilarning shaxsiy hujjatlari bilan nomzodlarni tanishtirish;

nomzodlar uchun tarbiyalanuvchilarning kuzatuvini tashkil etish;

nomzodlarga tarbiyalanuvchini oilaga farzandilikka yoki tarbiyaga (patronat) olish yuzasidan tavsiya berish.

48. Tarbiyalanuvchi Mehribonlik uyi hayotiga to'laqonli kirishib ketishini va keyinchalik uning jamiyatga ijtimoiy moslashishini ta'minlash uchun ijtimoiy xodim, psixolog, pedagog-tarbiyachi va vrach tomonidan birgalikda tarbiyalanuvchi bilan shaxsiy korreksion-tarbiya ishlarini olib borish dasturi ishlab chiqiladi.

7-bob. Mehribonlik uyi xodimlari

49. Pedagog xodimlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mehnat shartnomasi (kontrakt) asosida ishga qabul qilinadi.

50. Mehribonlik uyining tibbiyot xodimlari tarbiyalanuvchilarning chuqurlashtirilgan tibbiy ko'riklardan o'tkazilishi, ularning o'z vaqtida ixtisoslashtirilgan davolash-profilaktika muassasalariga yo'naltirilishi, tarbiyalanuvchilarning reabilitatsiya tadbirlariga jalb etilishi, Mehribonlik uyida sanitariya-gigiyena tadbirlari va epidemiyaga qarshi tadbirlar tashkil qilinishi, tarbiyalanuvchilarning sifatli ovqatlantirilishi amaldagi sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq bo'lishi uchun javob beradilar.

Mehribonlik uyida davolash-maslahat yordami va o'tkazilgan davolash-sog'lomlashtirish tadbirlari tahlili tegishli sog'liqni saqlash organlari tomonidan amalga oshiriladi.

51. Mehribonlik uyida ta'lim-tarbiya jarayonini psixologik ta'minlashni psixolog amalga oshiradi.

52. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini ijtimoiy muhofaza qilish va ijtimoiy kuzatib borish ijtimoiy soha organi xodimi tomonidan amalga oshiriladi.

53. Mehribonlik uyi ma'muriyati pedagog, tibbiyot va ijtimoiy soha xodimlarining pedagogik, kasbiy va psixologik mahorati doimiy ravishda takomillashtirib borilishi, ularning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash uchun javob beradi.

54. Mehribonlik uyining pedagog va tibbiyot xodimlari malakasini oshirish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

55. Mehribonlik uyining pedagog va tibbiyot hamda boshqa xodimlari Mehribonlik uyining ustaviga, ichki tartib-qoidalariga rioya qilishi, kasbiy axloq-odobga qat'iy rioya etishi, ta'lim-tarbiya jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlashi, tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy-psixologik va tibbiy jihatdan kuzatib borishi, o'z kasbiy malakasini muntazam oshirishi shart.

56. Mehribonlik uyi xodimlarining lavozim bo'yicha huquqlari va majburiyatları, rahbarlarining layoqati va funksiyalari qonun hujjatlarida, shuningdek, Mehribonlik uyi ustavida belgilanadi.

8-bob. Mehribonlik uyini boshqarish

57. Mehribonlik uyini boshqarish demokratiya, oshkorlik prinsiplari asosida va Mehribonlik uyi jamoasi bilan jamoatchilikning o'zaro hamkorligida amalga oshiriladi.

Mehribonlik uyi Kengashi ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga ko'maklashadi.

Mehribonlik uyi Kengashining funksiyalari O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Namunaviy ustavdan kelib chiqib, Mehribonlik uyi ustavida belgilanadi.

58. Mehribonlik uyi Kengashi faoliyat yo'nalishi bo'yicha metodik birlashmalarga birlashadi.

59. Mehribonlik uyida jamoaning umumiy yig'ilishi (konferensiya), pedagogik kengash faoliyat ko'rsatishi mumkin.

60. Mehribonlik uyiga bevosita rahbarlik qilish muassasa ma'muriyatiga boshchilik qiladigan hamda mazkur Nizomga va Mehribonlik uyi ustaviga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Mehribonlik uyi direktori O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Mehribonlik uyi direktori lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Direktor Mehribonlik uyidagi ta'lim-tarbiya jarayonlarining holati va faoliyati uchun to'liq javob beradi.

61. Direktor Mehribonlik uyi nomidan ish olib boradi, uning manfaatlarini ifodalaydi, Mehribonlik uyining mol-mulkini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda boshqaradi va shartnomalar tuzadi.

Direktor:

Mehribonlik uyi vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha qaror qabul qiladi hamda Mehribonlik uyiga yuklangan vazifa va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

o'z o'rinnbosarlar o'rtasida vazifalarni taqsimlaydi, ularning vakolatlarini va javobgarlik darajasini belgilaydi;

o'z vakolatlari doirasida Mehribonlik uyining barcha xodimlari uchun majburiy bo'lgan buyruqlar chiqaradi va ko'rsatmalar beradi;

tegishli xalq ta'limi organlariga moddiy-texnik bazani mustahkamlashga, tarbiya va ta'lim ishlarini takomillashtirishga, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlashga yo'naltirilgan masalalarni hal etish hamda Mehribonlik uyi faoliyatining boshqa masalalari bo'yicha takliflarni ko'rib chiqish uchun kiritadi;

pedagog xodimlar va boshqa xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzadi;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

62. Har bir Mehribonlik uyida Homiylik kengashi tuziladi. Mehribonlik uyi faoliyatini jamoatchilik asosida samarali boshqarishni ta'minlash, uni moddiy-texnik jihozlashga, xo'jalik faoliyatiga, ta'lim-tarbiya jarayonini metodik va kadrlar bilan ta'minlashga, kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga taalluqli muhim vazifalarga ko'maklashish va ularni hal etish Homiylik kengashining maqsadi hisoblanadi.

Homiylilik kengashi o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan Namunaviy nizom asosida amalga oshiradi.

9-bob. Moliya-xo'jalik faoliyati

63. Mehribonlik uyining moddiy-texnik bazasi zarur bino, sport inshootlari, kommunikatsiyalar, asbob-anjomlar, transport vositalari va o'qitishda, tarbiyalashda hamda ta'lim-tarbiya sohasidagi boshqa vazifalarni hal etishda foydalaniladigan boshqa mol-mulkdan iborat bo'ladi.

Mehribonlik uyi binolari texnika xavfsizligi qoidalariiga hamda sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq jihozlanadi va ulardan foydalaniladi.

64. Mehribonlik uyini mablag' bilan ta'minlash belgilangan tartibda:

O'zbekiston Respublikasi Davlat budgeti mablag'lari;

jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarida taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobiga amalga oshiriladi.

65. Mehribonlik uyi tegishli moliya organlarida ro'yxatdan o'tkazilgan va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasdiqlangan xarajatlar smetasiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

66. Budget mablag'larini sarflash tasdiqlangan xarajatlar smetasiga qat'iy rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

Mehribonlik uyi homiylik orqali olingan mablag'lardan pedagogik kengash qaroriga asosan mustaqil ravishda foydalanish huquqiga ega.

67. Yil davomida foydalanimagan mablag‘lar olib qo‘yilmaydi, ushbu mablag‘lar qonun hujjatlariga muvofiq Mehribonlik uyining ehtiyojlariga sarflanadi.

68. Shtatlar jadvali qonun hujjatlarida belgilangan tartibda namunaviy shtatlarga muvofiq tuziladi.

69. Mehribonlik uyi xodimlarining ish haqi qonun hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

70. Mehribonlik uyi davlat vakolatli organlari tomonidan belgilangan moliya va statistika hisobotlarini yuritadi.

71. Mehribonlik uyining moliya-xo‘jalik faoliyatini nazorat qilish tegishli moliya organlari tomonidan amalga oshiriladi.

10-bob. Yakunlovchi qoidalar

72. Mehribonlik uyi qonun hujjatlariga muvofiq o‘z yo‘nalishi bo‘yicha xalqaro faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega.

73. Mehribonlik uyini qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

**Mehribonlik uyi to‘g‘risidagi nizomga
1-ILOVA**

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq jihozlar bilan ta’minlash

NORMALARI

| T/r | Kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq jihozlar nomi | O‘lchov birligi | Maktab yoshidagi bir nafar tarbiyalanuvchi uchun | | | Maktabgacha yoshdag bir nafar tarbiyalanuvchi uchun | |
|----------------------|-------------------------------------------------------------|--------------------|-----------------------------------------------------|-------------------------|------------------------------|-----------------------------------------------------------|------------------------------|
| | | | Soni | | Foydalanish muddati (yil) | Soni | Foydalanish muddati (yil) |
| | | | O‘g‘il bolalar uchun | Qiz bolalar uchun | | | |
| Kiyim-boshlar | | | | | | | |
| 1. | Qishki palto/kurtka | ta | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 2. | Mavsumiy palto, kurtka | ta | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 3. | Maktab formasi | to‘plam | 1 | 1 | 1 | - | - |
| 4. | O‘g‘il bolalar uchun kostyumlar (galstuk bilan) | to‘plam | 2 | - | 2 | 2 | 2 |
| 5. | Jun kostyum (bayram uchun) | to‘plam | 1 | - | 2 | 1 | 2 |
| 6. | O‘g‘il bolalar uchun ip gazlamadan maktab ko‘ylaklari | ta | 3 | - | 1 | - | - |
| 7. | O‘g‘il bolalar uchun ip gazlamadan ustki ko‘ylak | ta | 3 | - | 1 | 3 | 1 |
| 8. | Qizlar uchun ko‘ylak (yubka, bluzka) | ta | - | 3 | 1 | 3 | 1 |
| 9. | Qizlar uchun uy xalatlari/ko‘ylaklari | ta | - | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 10. | Qishki ko‘ylak (bayram uchun) | ta | - | 1 | 1 | 1 | 1 |

| T/r | Kiyim-bosh, moyabzal va yumshoq jihozlar nomi | O'lcov birligi | Maktab yoshidagi bir nafar tarbiyalanuvchi uchun | | | Maktabgacha yoshdagi bir nafar tarbiyalanuvchi uchun | |
|-------------------------|------------------------------------------------|----------------|--------------------------------------------------|-------------------|---------------------------|------------------------------------------------------|---------------------------|
| | | | Soni | | Foydalanish muddati (yil) | Soni | Foydalanish muddati (yil) |
| | | | O'g'il bolalar uchun | Qiz bolalar uchun | | | |
| 11. | Jun svityerlar (jempyerlar) | ta | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 12. | Yozgi ko'yylaklar (bayram uchun) | ta | - | 3 | 1 | 3 | 1 |
| 13. | Yozgi bosh kiyim | ta | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 14. | Qishki bosh kiyim | ta | 2 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 15. | Qizlar uchun triko va shim | ta | - | 4 | 1 | 4 | 1 |
| 16. | Dastro'mollar | ta | 6 | 6 | 1 | 6 | 1 |
| 17. | O'g'il bolalar uchun shim kamari | ta | 1 | - | 1 | - | - |
| 18. | Sharf | ta | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 19. | Qo'lqoplar | juft | 2 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 20. | Ichki ko'yylak (pijama) | to'plam | 4 | 4 | 2 | 5 | 2 |
| 21. | Sport formasi, krossovka | to'plam | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 22. | Byustgalter | ta | - | 3 | 1 | - | - |
| 23. | Kalta sport ishtoni | ta | 2 | 2 | 1 | 1 | 1 |
| 24. | Maykalar | ta | 4 | 4 | 1 | 4 | 1 |
| 25. | Ip paypoqlar, golflar | juft | 5 | 5 | 1 | 6 | 1 |
| 26. | Jun paypoqlar, golflar | juft | 5 | 5 | 1 | 6 | 1 |
| 27. | Botinkalar, tuflilar | juft | 3 | 3 | 1 | 3 | 1 |
| 28. | Shippaklar | juft | 2 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 29. | Qishki etiklar, botinkalar | juft | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 30. | Kalishlar | juft | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 31. | Yarim jun sport kostyumi | ta | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 32. | Tungi pijamalar | ta | 2 | 1 | 1 | 2 | 1 |
| 33. | Kolgotkalar | ta | - | 5 | 1 | 6 | 1 |
| 34. | Cho'milish kiyimlari | ta | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 35. | Rezina shapka | ta | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 |
| 36. | Ish kiyimi | to'plam | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 |
| 37. | Portfellar, sumkalar | ta | 1 | 1 | 1 | - | - |
| 38. | Shaxsiy buyumlarni saqlash uchun ryukzak/sumka | ta | 1 | 1 | 3 | 1 | 5 |
| Yumshoq jihozlar | | | | | | | |
| 39. | Choyshab | ta | 3 | 1 | 5 | 1 | |
| 40. | Ko'rpa choyshabi | ta | 2 | 1 | 2 | 1 | |
| 41. | Yostiq jildi | ta | 3 | 1 | 4 | 1 | |

| T/r | Kiyim-bosh, moyabzal va yumshoq jihozlar nomi | O'lcov birligi | Maktab yoshidagi bir nafar tarbiyalanuvchi uchun | | | Maktabgacha yoshdagi bir nafar tarbiyalanuvchi uchun | |
|-----|-----------------------------------------------|----------------|--------------------------------------------------|-------------------|---------------------------|------------------------------------------------------|---------------------------|
| | | | Soni | | Foydalanish muddati (yil) | Soni | Foydalanish muddati (yil) |
| | | | O'g'il bolalar uchun | Qiz bolalar uchun | | | |
| 42. | Sochiq | ta | 2 | | 1 | 2 | 1 |
| 43. | Paxmoq sochiq | ta | 2 | | 1 | 2 | 1 |
| 44. | Jun yoki paxtali adyol | ta | 1 | | 6 | 1 | 6 |
| 45. | Paxmoq adyol | ta | 1 | | 3 | 2 | 3 |
| 46. | To'shak | ta | 1 | | 4 | 2 | 3 |
| 47. | Momiqli va patli yostiq | ta | 1 | | 6 | 2 | 4 |
| 48. | Katta choyshab | ta | 1 | | 3 | 1 | 3 |
| 49. | Karavot yoniga to'shaladigan gilamcha | ta | 1 | | 4 | 1 | 4 |

Mehribonlik uyi to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchilarini shaxsiy gigiyena buyumlari bilan yillik ta'minlash

NORMALARI

| T/r | Buyumlarning nomi | O'lcov birligi | 3 — 7 yoshli bolalar uchun (soni) | | 8 — 13 yoshli bolalar uchun (soni) | | 14 — 16 yoshli bolalar uchun (soni) | |
|-----|--------------------------------------------------------|-------------------|-----------------------------------|-------------|------------------------------------|-------------|-------------------------------------|-------------|
| | | | o'g'il bolalar | qiz bolalar | o'g'il bolalar | qiz bolalar | o'g'il bolalar | qiz bolalar |
| 1. | Atir sovun (100 gr) | dona | 24 | 24 | 24 | 24 | 24 | 24 |
| 2. | Xo'jalik (kir) sovuni (100 gr) | dona | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 |
| 3. | Shampun (200 gr) | dona | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 |
| 4. | Tish pastasi (30 gr) | tyubik | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 |
| 5. | Tish cho'tkasi | dona | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| 6. | Taroq | dona | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 7. | Badanni yuvish uchun gubka | dona | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 7. | Poyabzal moyi | tyubik | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 8. | Hojatxona qog'ozni | o'ram | 24 | 24 | 24 | 24 | 24 | 24 |
| 9. | Qiz bolalar uchun shaxsiy gigiyena vositasi (qistirma) | to'plam (10 dona) | - | - | - | 12 | - | 12 |
| 10. | Kir yuvish kukuni (400 gr) | upakovka | 8 | 8 | 8 | 8 | 12 | 12 |

| | | | | | | | | |
|-----|------------------------------------------------------------------------------|---------|---|---|---|---|----|---|
| 11. | Tog‘ora (plastmassa) (sig‘imi 10 l) (foydalinish muddati 3 yil) | dona | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 12. | Soqol olish bu♦mi (britva), bir martalik | dona | - | - | - | - | 12 | 5 |
| 13. | Soqol olish vositasi (soqol olish ko‘pigi, loson) (100 — 150 gr) | flakon | - | - | - | - | 6 | - |
| 14. | Dezodorant (aerozol) | dona | - | - | - | - | 6 | 6 |
| 15. | Momiq (paxta) (200 gr) | to‘plam | - | 4 | - | 4 | - | 4 |

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-sod qaroriga
3-ILOVA

Bolalar shaharchaci to‘g‘risidagi

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolalar uchun bolalar shaharchasi maqomini, ularning faoliyatini tashkil etish tartibini, ularda ta’lim-tarbiya jarayonini, ushbu muassasalar xodimlarining hamda bunday muassasalarga tarbiyalash uchun berilgan bolalarning (keyingi o‘rinlarda — tarbiyalanuvchilar) huquq va majburiyatlarini belgilaydi.

Bolalar shaharchasini moliyalashtirish O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

2. Bolalar shaharchasi tarbiya muassasasi hisoblanadi, uning doirasida ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolalar kichik guruhlar shaklida oiladagiga yaqinlashtirilgan sharoitlarda tarbiyalanadi.

Bolalar shaharchalari ota-onasining qarovisiz qolgan va to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolalar uchun tarbiya muassasalarining yanada mukammallashgan turlari sifatida, shu jumladan, “Mehribonlik” uylarini bolalar shaharchalariga bosqichma-bosqich aylantirish shartlarida tashkil etiladi.

3. Bolalar shaharchasi ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolalarning yashashga va oilada tarbiyalashga bo‘lgan huquqlarini ro‘yobga chiqarish, shuningdek, ijtimoiy moslashish va jamiyatga integratsiyalash uchun ularning ma’naviy-axloqiy, mehnat tarbiyasi va ta’lim olishini har tomonlama ta’minalash maqsadida tashkil etiladi.

4. Quyidagilar Bolalar shaharchasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

tarbiyalanuvchilarning aqliy, emotsiyonal va jismoniy rivojlanishiga ko‘maklashuvchi oilaviy muhitni yaratish;

tarbiyalanuvchilarning hayotini muhofaza qilishni va sog‘lig‘ini mustahkamlashni ta’minalash, shuningdek, profilaktika tadbirlarini amalga oshirish;

tarbiyalanuvchilarni ijtimoiy muhofaza qilishni, psixologik va tibbiy-pedagogik reabilitatsiya qilishni va ularni jamiyatga moslashirishni ta’minalash;

bolalarni milliy an‘analar va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash;

tarbiyalanuvchilarda mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, ularga kasb tanlashi uchun shartsharoitlar yaratish.

5. Bolalar shaharchasi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi [Konstitutsiyasi](#) va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, ushbu Nizomga, boshqa qonun hujjatlariga, shuningdek o‘z ustaviga amal qiladi.

6. Bolalar shaharchasi yuridik shaxs hisoblanadi, O‘zbekiston Respublikasi davlat gerbi tushirilgan va o‘z nomi davlat tilida yozilgan muhrga va blankalarga, mustaqil balansga hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G‘aznachiligidagi shaxsiy g‘azna hisobvarag‘iga ega bo‘ladi.

Davlat bolalar shaharchasi bilan bir qatorda nodavlat bolalar shaharchalari tashkil etilishi mumkin.

2-bob. Bolalar shaharchasini tashkil etish tartibi

7. Bolalar shaharchasi muassisining qarori asosida tashkil etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari davlat Bolalar shaharchasining muassisi bo‘lishi mumkin.

Nodavlat tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar nodavlat Bolalar shaharchasining muassisi bo‘lishi mumkin.

Nodavlat Bolalar shaharchasi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda tegishlicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat yoki Toshkent shahar hokimligi bilan kelishgan holda tashkil etiladi.

Nodavlat Bolalar shaharchasini tashkil etishda muassis tomonidan uni kamida 3 yil mobaynida o‘z vaqtida va to‘liq moliyalashtirishning aniq manbalari kafolatlari va tasdiqnomasi taqdim etiladi.

8. Bolalar shaharchasi ustav asosida faoliyat ko‘rsatadi. Bolalar shaharchasining namunaviy ustavi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Bolalar shaharchasining ustavi uning muassisi tomonidan tasdiqlanadi. Nodavlat Bolalar shaharchasi ustavi ularning hududiy joylashishiga ko‘ra Qoraqalpog‘iston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi, viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi bilan kelishgan holda tasdiqlanadi.

9. Bolalar shaharchasi belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi.

3-bob. Tarbiyalanuvchilarni Bolalar shaharchasiga qabul qilish tartibi

10. Ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan va to‘liq davlat ta’minotida bo‘lgan bolalarni Bolalar shaharchasi oilasiga berish qonun hujjatlarida va ushbu Nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bolalar shaharchasiga ota-onasining qarovisiz qolgan yangidan aniqlangan bolalar ham, ixtisoslashtirilgan bolalar ta’lim muassasalarining tarbiyalanuvchilari ham yuboriladi.

11. Bolalar shaharchasiga quyidagilar qabul qilinadi:

ota-onalari vafot etgan bolalar;

ota-onalari ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan bolalar;

ota-onalarining ota-onalik huquqlari cheklangan bolalar;

ota-onalari muomalaga layoqatsiz deb topilgan bolalar;

uzoq muddat kasal bo‘lganligi uchun ota-onalik vazifalarini bajara olmagan shaxslarning bolalari;

ota-onalari bilan birga olti oydan ortiq muddat yashamagan hamda qarindoshlari yoki boshqa yaqin kishilari tomonidan vasiylik yoki homiylikka olish rad qilingan bolalar;

ota-onalar bolalarni tarbiyalashdan yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bosh tortgan, shu jumladan, ota-onalar o‘z bolalarini davlat tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish va

tibbiy-ijtimoiy muassasalar va shunga o'xshash muassasalardan olishni rad etgan hollarda, shuningdek, bolalar ota-onalar qaramog'i dan mahrum bo'lган boshqa hollarda.

12. Bolalarni Bolalar shaharchasiga yo'llash bola yashaydigan joy bo'yicha tuman (shahar) hokimining qarori asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi.

13. Bolalar shaharchasiga yuboriladigan har bir bola uchun vasiylik va homiylik organi tomonidan, bir Bolalar shaharchasidan boshqasiga o'tkazishda esa — Bolalar shaharchasi ma'muriyati tomonidan quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari va Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasining bolani Bolalar shaharchasiga yuborish to'g'risidagi yo'llanmasi;

b) tuman (shahar) hokimining bolani Bolalar shaharchasiga joylashtirish haqidagi qarori (qarorda voyaga yetmagan bola, uning oilasi, turar joy maydoni bolaga biriktirilganligi to'g'risidagi aniq qaydnoma bilan birgalikda turar joy maydoni mavjudligi to'g'risidagi dalilli va to'liq ma'lumotlar bo'lishi kerak);

v) tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, tug'ilganlik haqida dalolatnama yozuvidan ko'chirma, guvohnoma bo'lмаган taqdirda — bolaning yoshini aniqlaydigan tibbiy ekspertiza xulosasi;

g) sog'lig'i to'g'risidagi tibbiy ma'lumotnoma va bolaning rivojlanish tarixi (112/h-shakli)dan ko'chirma;

d) ma'lumoti to'g'risidagi hujjat (maktab yoshidagi bolalar uchun);

e) ota-onalar yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslar haqidagi ma'lumotlar (ota-onalarning vafoti haqidagi guvohnoma nusxasi, ota-onalik huquqlari cheklanganligi, ota-onalar muomalaga layoqatsiz deb e'tirof etilganligi to'g'risida sudning hukmi yoki qarori nusxasi, ota-onasining surunkali kasalligi yoki qidiruvda ekanligi haqidagi, ota-onasining yo'qligi yoki ularning o'z farzandlarini tarbiyalay olmasligi haqidagi hujjatlar);

j) bolaning yaqin qarindoshlari mavjudligi haqida ma'lumotnoma;

z) bolaning ota-onasidan qolgan mol-mulki (agar bor bo'lsa) ro'yxati, ushbu mol-mulkning qayerda joylashganligi, uni saqlash uchun qanday choralar ko'rilganligi va ularni saqlash uchun javobgar shaxslar haqidagi ma'lumot;

i) bolaga turar joy biriktirilganligi to'g'risidagi hujjatlar (dalolatnama, uy daftari, turar joy chizmasi nusxalari, turar joyning egasi va xususiyashtirilganligi holati to'g'risida kadastr agentligining tuman (shahar) bo'limlaridan ma'lumotnoma);

k) nafaqa, pensiya va boshqa ijtimoiy to'lovlar olish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar (agar mavjud bo'lsa).

14. Bolalarni Bolalar shaharchasiga tarbiyalash uchun berishda vasiylik va homiylik organlari bolalarning manfaatlarini hisobga olishi kerak. O'n yoshga to'lган bolalar Bolalar shaharchasi oilasiga faqat ularning roziligi bilan berilishi mumkin.

15. Tarbiyalanuvchilarini Bolalar uylaridan Bolalar shaharchasiga qabul qilish majburiy tartibda, bola 3 yoshga to'lгandan so'ng ushbu Nizomning **13-bandiga** muvofiq amalga oshiriladi.

16. Bolalar shaharchasidan chiqarishda tarbiyalanuvchilarga quyidagi hujjatlar beriladi:

a) tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnoma, 16 yoshga to'lganlarga esa pasport ham;

b) Bolalar shaharchasida bo'lганlik haqida ma'lumotnoma;

v) sog'lig'i haqida ma'lumotnoma (tibbiy hujjatlar);

g) ma'lumoti to'g'risida hujjat (maktab yoshidagi bolalar uchun);

d) ota-onasi va boshqa yaqin qarindoshlari haqidagi ma'lumotlar.

Bolaning mol-mulkka, pul mablag'lariga, turar joyga (o'zi yoki ota-onasiga qarashli bo'lган) egalik qilish huquqini tasdiqlovchi hujjatlar, pensiya va omonat daftarchalari, alimentlar undirish to'g'risidagi ijro varaqasi va shaxsiy hujjatlar yig'ma jildidagi boshqa hujjatlar ham beriladi.

17. Tarbiyalanuvchilarning Bolalar shaharchalarini bitirishi to'g'risidagi qaror kollegial organ — Bolalar shaharchasi Kengashi tomonidan qabul qilinadi va ushbu qaror tarbiyalanuvchini muassasadan chiqarishga asos hisoblanadi.

18. Bolalar shaharchasi direktori tarbiyalanuvchilarni qabul qilish va ularni Bolalar shaharchasidan chiqarish uchun ushbu Nizom talablariga muvofiq shaxsan javob beradi.

19. Vasiylik va homiylik organlari bolalarni Bolalar shaharchasiga tarbiyalash uchun tanlashda ularga meros, hadya tartibida yoki boshqa qonuniy asoslarda o'tgan mol-mulk mavjudligini aniqlashi hamda bolalarning mulkiy huquqlari muhofaza qilinishi va ushbu mol-mulk saqlanishi yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rishlari shart (qonun bo'yicha bolalar meros qilib olishi kerak bo'lgan mol-mulkni aniqlash, saqlash va boshqarish, mol-mulkni noqonuniy egallab olgan shaxslardan uni talab qilish, qarzdorlardan pul va boshqa mablag'larni undirish hamda hokazolar).

20. Agar Bolalar shaharchasiga tarbiyalash uchun berilgan bolalarda boshqa joyda turgan mol-mulk mavjud bo'lsa, u holda ushbu mol-mulkni muhofaza qilish mol-mulk turgan joydag'i vasiylik va homiylik organi tomonidan amalga oshiriladi va zaruriyat bo'lganda ular tomonidan mol-mulkka vasiy tayinlanishi mumkin.

4-bob. Bolalar shaharchalarida tarbiya jarayonini tashkil etish

21. Bolalar shaharchasida tarbiya jarayoni oilaviy tipga ko'ra tashkil etiladi. Bolalar shaharchasiga tarbiyalash uchun berilgan bolalar tarbiyachi boshchiligidagi guruhlarga bo'linadi, guruhlar oilalar deb ataladi. Har qaysi oilada turli yoshdagi 6 nafardan 8 nafargacha bolalar tarbiyalanadi.

22. Bolalar shaharchasining har qaysi oilasi alohida uylarga yoki alohida turar joylarga (kvartiralarga) joylashtiriladi.

23. Bolalar shaharchasida kamida 6 ta oila tashkil etiladi. Tarbiyalanuvchi bolalarning umumiy soni 140 nafardan oshmasligi kerak.

Tarbiyalanuvchilar soni 140 nafardan oshishiga sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq, muassasaning tarbiyalanuvchilar bilan to'ldirilish sig'imidan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan kelishgan holda Xalq ta'limi vazirligining roziligi asosida yo'l qo'yiladi.

24. Bolalar shaharchasiga bolalar 3 yoshdan boshlab qabul qilinadi hamda ular majburiy umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'limni tamomlagunga qadar muassasada bo'ladilar.

Jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan yetim va ota-onasi qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar Bolalar shaharchasiga qabul qilinganidan so'ng ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalariga (maktablar, maktab-internatlar) yuboriladi.

25. Tarbiyachilar bolalarni tarbiyalash usullarini belgilashda vasiylik va homiylik organizining tavsiyanomalariga amal qiladilar.

26. Tarbiyachi tarbiyalanuvchining ta'lim muassasasini va o'qitish shaklini tanlashda bolalarning xohishlarini hisobga olishi va bolalarning umumiy o'rta ta'lim olishi uchun shart-sharoitlar yaratishi shart.

27. Tarbiyachilar o'z vakolatlarini amalga oshirishda bolalarning jismoniy va ruhiy holatiga, ularning axloqiy rivojlanishiga zarar yetkazishga haqli emas. Tarbiyalash usullari bolalarning qadr-qimmatini tahqirlovchi mensimaslik, shafqatsizlik, qo'pollik munosabatlaridan xoli bo'lishi kerak.

28. Bolalar shaharchasida tarbiyalanuvchilar, pedagoglar, tarbiyalanuvchilarning ota-onalari yoki ularning o'rmini bosuvchi shaxslarga ijtimoiy, psixologik-pedagogik yordam berish hamda tarbiyalanuvchilarni joylashtirishning muqobil shakllarini tanlash maqsadida ijtimoiy xizmat (keyingi o'rnlarda — xizmat) tashkil etiladi.

Xizmat tarkibi Bolalar shaharchasining o'quv va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rnbosari, ijtimoiy xodim, psixolog, vrach, guruh rahbaridan iborat bo'ladi. Xizmatga ijtimoiy xodim boshchilik qiladi.

29. Xizmatning xodimlari quyidagi yo'naliishlar bo'yicha ish olib boradilar:

a) tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy huquq va manfaatlarini himoya qilish sohasida:

tarbiyalanuvchining shaxsiy hujjatlar yig'ma jildini o'rganish va uning ijtimoiy maqomi barqarorligini aniqlash;

tarbiyalanuvchilarning mulkiy va nomulkiy huquqlari himoya qilinishini ta'minlash;
da'vo bo'yicha ish olib borish va yetishmayotgan hujjatlarni to'plash;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tarbiyalanuvchilar va ularning mol-mulkiga nisbatan qonun buzilishiga yo‘l qo‘yayotgan shaxslar javobgarlikka tortilishiga ko‘maklashish; ota-onalarni aniqlash va ular bilan mustahkam aloqalar o‘rnatish; tarbiyalanuvchilarning manfaatlarini ko‘zlab sud majlislarida qatnashish; ijtimoiy bilimlar, o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha tarbiyalanuvchilar orasida ta’lim-tarbiya ishlarini tashkil etish.

b) bolaning Bolalar shaharchasida yashashga moslashish uchun zarur bo‘lgan imkoniyatlarini aniqlash va rivojlantirish, tarbiyalanuvchilarning xulq-atvoridagi chekinishlar profilaktikasi sohasida:

ijtimoiy rivojlanish va (yoki) reabilitatsiya qilishga ehtiyojmand bo‘lgan tarbiyalanuvchilar toifasini aniqlash;

kamol topishning tibbiy-ijtimoiy va psixologik-pedagogik muammolari tashxisi;

tarbiyalanuvchini kamol toptirish va reabilitatsiya qilishning shaxsiy dasturini tuzish;

shaxsning kamol topishi va uning jamiyatga reabilitatsiyasining ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari yaratilishiga ko‘maklashish (pedagog xodimlar, tengdoshlar guruhlari, do‘stlar bilan ish olib borish);

tarbiyalanuvchilarni kasbga yo‘llash;

tarbiyalanuvchilarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish;

tarbiyalanuvchilarda o‘z taqdiri uchun mas‘uliyat tuyg‘usini shakllantirish.

v) tarbiyalanuvchilarni oilaga o‘tkazish sohasida:

tarbiyalanuvchini mustaqil hayotga tayyorlash;

ota-onalarni yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarni tarbiyalanuvchini oilaga qabul qilishga tayyorlash;

tarbiyalanuvchini o‘z oilasiga qaytarishga tayyorlash va qaytarish;

tarbiyalanuvchini farzandlikka olgan oilada yashashga tayyorlash.

Bundan tashqari, xizmat vasiylik va homiylik organi tavsiyasiga asosan tarbiyalanuvchini oilaga farzandilikka yoki tarbiyaga (patronat) oluvchi nomzodlarni tanlash yuzasidan quyidagilarni amalga oshiradi:

nomzodlar bilan suhbatlashish;

tarbiyalanuvchilarning shaxsiy hujjatlari bilan nomzodlarni tanishtirish;

nomzodlar uchun tarbiyalanuvchilarning kuzatuvini tashkil etish;

nomzodlarga tarbiyalanuvchini oilaga farzandilikka yoki tarbiyaga (patronat) olish yuzasidan tavsija berish.

30. Bolalar shaharchasi xodimlari tarbiyalanuvchilarning aka-ukalari va opa-singillarini, boshqa qarindoshlarini qidirib topishga hamda ularning munosabatlarini qo‘llab-quvvatlashga ko‘maklashishlari shart, tarbiyalanuvchilarning manfaatlariga zid bo‘lgan holatlar bundan mustasno.

Nizoli hollarda tarbiyalanuvchi bilan uning ota-onalari, qarindoshlari o‘rtasidagi munosabatlar tartibi vasiylik va homiylik organi tomonidan belgilanadi.

31. Bolalar shaharchasining rahbarlari va pedagog xodimlari tarbiyalanuvchilarni oilaga joylashtirish chora-tadbirlarini ko‘rishlari shart.

32. Bolalarni oilaga berishda Bolalar shaharchasi ma’muriyati, birinchi navbatda, bolalarning manfaatlariga amal qilishi, ularning etnik jihatdan kelib chiqishini, muayyan dinga va madaniyatga mansubligini hisobga olishi, ona tilida muomala qilishi uchun shart-sharoitlar yaratishi, tarbiyalash va ta’lim berishda izchillikni ta’minlashi kerak.

Aka-ukalar va opa-singillar bitta oilaga berilishi kerak, tibbiy yoxud boshqa sabablarga ko‘ra ular birgalikda tarbiyalanishi mumkin bo‘lmagan holatlar bundan mustasno. Bolalarning birgalikda tarbiyalanishiga monelik qiladigan kasalliklar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

33. Tarbiyalash uchun Bolalar shaharchasiga berilishi mumkin bo‘lgan bolalar soni va ularni berish navbatni Bolalar shaharchasi oilasining ma’muriyati, pedagog-psixologi va tarbiyachisi bilan birgalikda belgilanadi.

Tarbiyachilar tarbiyalanuvchilarni tanlash maqsadida davlat Bolalar shaharchasi ma'muriyatining yozma ruxsatnomasi bo'yicha Mehrbonlik uylari tarbiyalanuvchilarini dam olish, bayram va ta'til kunlari taklif qilishlari mumkin. Mehrbonlik uylari ma'muriyati tarbiyachilarini ushbu tarbiyalanuvchilarning shaxsiy hujjatlari yig'ma jiddlari bilan tanishtirishi shart.

34. Bolalar shaharchasi tarbiyachilari Bolalar shaharchasi oilalari bilan to'liq moddiy javobgarlik to'g'risidagi shartnoma asosida birkitilgan mol-mulkning saqlanishini ta'minlaydilar.

35. Bolalar shaharchasi ma'muriyati tarbiyalanuvchilarning ota-onalari bilan uchrashuviga va ularning ota-onalik huquqlari tiklangan taqdirda, ular bilan birlashishiga hamda bolaning manfaatlariga zid bo'lмаган boshqa hollarda qarshilik ko'rsatmasligi kerak.

36. Tarbiyalanuvchilarni ota-onalar yoki ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar tomonidan Bolalar shaharchasidan qaytarib olish ushbu Nizomning **16-bandiga** muvofiq amalga oshiriladi. Bolaning yoshidan va qaytarib olish sabablaridan qat'i nazar, bola yashaydigan joy bo'yicha vasiylik va homiylik organining xulosasiga muvofiq chiqarilgan hokimning qarori tarbiyalanuvchining muassasadan chiqarilishi uchun asos hisoblanadi.

5-bob. Tarbiyalanuvchilarning huquq va majburiyatları

37. Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilari qonun hujjatlariga va Bolalar shaharchasi ustaviga muvofiq huquqlarga ega va majburiyatlarni oladi.

38. Tarbiyalanuvchining huquqlari va qonuniy manfaatlari Bolalar shaharchasi ma'muriyati, vasiylik va homiylik organi, shuningdek, qonun hujjatlariga muvofiq boshqa organlar tomonidan himoya qilinadi.

39. Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchisi Bolalar shaharchasi ma'muriyati, shuningdek, tarbiyachi tomonidan suiiste'molliklar sodir etilishidan himoyalanish huquqiga ega.

40. Tarbiyalanuvchi Bolalar shaharchasida bo'lган butun davrda meros yoki hadya tartibida, shuningdek, boshqa qonuniy asoslarga ko'ra ota-onalar, qarindoshlar yoki boshqa shaxslardan unga o'tgan mol-mulkka, turar joyga mulk huquqini saqlab qoladi. Turar joy tarbiyalanuvchi Bolalar uyida bo'lган butun davr mobaynida unda saqlanib qoladi.

41. Tarbiyalanuvchi unga berilishi kerak bo'lган alimentlar, ijtimoiy nafaqalar, pensiyaga bo'lган huquqni (boquvchisini yo'qtganda, nogiron bo'lib qolganda) hamda ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar uchun qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ijtimoiy imtiyozlar va kafolatlarga huquqni o'zida saqlab qoladi.

Bolalar uyidagi tarbiyalanuvchining ta'minoti uchun ota-onadan undiriladigan mablag'lar, unga tayinlangan nafaqa va boshqa to'lovlar tarbiyalanuvchining nomiga ochilgan bank hisobraqamlariga o'tkazilishi kerak.

42. Tarbiyalanuvchi o'ziga tegishli bo'lган uy-joy ijaraga berilishidan olingan daromadlarga, ijodiy, kasbiy, mehnat faoliyatidan va boshqa faoliyatdan olingan daromadlarga huquqni saqlab qoladi. Bitimlardan olingan daromadlar ma'muriyat tomonidan faqat tarbiyalanuvchining manfaatlarini ko'zlab hamda vasiylik va homiylik organining roziligi bilan sarflanishi mumkin.

43. Tarbiyalanuvchi oilaga qaytganda (farzandlikka olinganda) yoki Bolalar shaharchasidan tarbiyalab chiqarilgandan keyin tarbiyalanuvchining mol-mulki va hujjatlari notarial tartibda tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha ota-onasiga yoki tarbiyalanuvchining o'ziga beriladi.

44. Tarbiyalanuvchilarga tibbiy xizmat ko'rsatish Bolalar shaharchasi vrachi, shuningdek, Bolalar shaharchasi joylashgan joydagи davolash-profilaktika muassasalarining tibbiyot xodimlari tomonidan ta'minlanadi.

Bolalar shaharchasi ma'muriyati tibbiyot xodimi uchun alohida xona va tibbiy asbob-uskunalar ajratadi.

45. Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilari maktabgacha tarbiya va umumta'lim muassasalarida umumiylashtirish uchun o'qitiladi, bunda bolalar davlat maktabgacha tarbiya muassasalarida bo'lган vaqt uchun to'lov undirilmaydi.

46. Bolalar shaharchasida tarbiyalanuvchilar uchun qo'shimcha ta'lim (to'garaklar, studiyalar, sport seksiyalari va hokazolar) tashkil etiladi.

Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilari davlatga qarashli matabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'qiganligi uchun to'lov undirilmaydi.

47. Ta'til vaqtida bolalarning dam olishi Bolalar shaharchasiga qaraydigan shahar tashqarisidagi oromgohda, dala hovlilarda, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tizimidagi respublika Mehribonlik uylari sog'lomlashtirish oromgohida hamda boshqa sog'lomlashtirish oromgohlarida tashkil etiladi.

48. Rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlar mavjud bo'lgan maktabgacha yoshdag'i tarbiyalanuvchilar bilan psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya tomonidan bolalarning rivojlanishida aniqlangan nuqsonlarga muvofiq maktabgacha yoshdag'i bolalarni psixofizik rivojlanish xususiyatlariga ega bo'lgan tarbiyalash va o'qitish dasturlari bo'yicha ta'lim tashkil etilishi mumkin.

49. Bolalar shaharchasi ma'muriyati tarbiyalanuvchilarining akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar va oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishiga yordam beradi.

50. Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilariga akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar va oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun yo'llanma berishda qonun hujjatlariga muvofiq yo'l haqi va yo'l dagi vaqtida ovqatlanish xarajatlari to'lanadi.

51. Akademik litseyda o'qiyotgan tarbiyalanuvchilar mazkur muassasada yotoqxona mavjud bo'limgan taqdirda ushbu muassasalarni tamomlaguniga qadar Bolalar shaharchasida yashaydi.

Tarbiyalanuvchilar Bolalar shaharchasi ma'muriyati bilan kelishuv asosida, akademik litseyni tamomlagunga qadar, agar mazkur ta'lim muassasasida yotoqxona bo'lmasa yoki mazkur ta'lim muassasasi va Bolalar shaharchasi bitta aholi punktida joylashgan bo'lsa, Bolalar shaharchasida yashash huquqiga egadirlar.

Ushbu bitiruvchilarining yashashi hamda ovqatlanishi bilan bog'liq harajatlar Bolalar shaharchasi mablag'lari hisobidan qoplanadi.

52. Bolalar shaharchasining akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar va oliy ta'lim muassasasida ta'lim olayotgan sobiq tarbiyalanuvchilari o'zları ta'lim olayotgan ta'lim muassasalari ma'muriyati bilan kelishgan holda ta'til davrida, dam olish va bayram kunlarida, shuningdek kasallik davrida yashaganlik uchun haq to'lamasdan Bolalar shaharchasida turishlari mumkin. Vaqtincha yashaydigan o'quvchilar va talabalar Bolalar shaharchasi uchun belgilangan normalar bo'yicha haq to'lash sharti bilan ovqat bilan ta'minlanadilar.

53. Vasiylik va homiylik organlari tarbiyalanuvchilarining farovonligi, sog'lig'i (sog'liqni saqlash organlari bilan birgalikda) va kamol topishi, ularning huquqlari va qonuniy manfaatlariga rioya qilinishi ustidan oylik nazoratni amalga oshiriladi.

6-bob. Bolalar shaharchasini boshqarish

54. Bolalar shaharchasiga bevosita rahbarlik muassasa ma'muriyatiga boshchilik qiladigan hamda mazkur Nizomga va Bolalar shaharchasi ustaviga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan direktor tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat Bolalar shaharchasi direktori O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishgan holda qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishliligi bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalari, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Nodavlat Bolalar shaharchasi direktori O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi bilan kelishgan holda nodavlat Bolalar shaharchasi muassisasi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

Bolalar shaharchasi direktori lavozimiga qo'yiladigan malaka talablari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Ushbu malaka talablari nodavlat Bolalar shaharchalariga ham tatbiq etiladi. Bolalar shaharchasiga bevosita rahbarlik muassasa ma'muriyatiga boshchilik qiladigan hamda mazkur Nizomga va Bolalar shaharchasi ustaviga muvofiq faoliyat ko'rsatadigan direktor tomonidan amalga oshiriladi.

55. Bolalar shaharchasi direktori:

Bolalar shaharchasi nomidan ish ko‘radi, barcha tashkilotlarda uning manfaatlarini ifodalaydi;

o‘ziga berilgan vakolatlar doirasida Bolalar shaharchasi mol-mulkini boshqaradi; ishonchnomalar beradi;

g‘aznachilik bo‘linmalarida shaxsiy g‘azna hisobvaraqlari va boshqa bank hisob raqamlari ochadi;

kadrlarni ishga qabul qiladi va joy-joyiga qo‘yadi, Bolalar shaharchasi xodimlarini rag‘batlantiradi, ularga intizomiy jazolar beradi va ular bilan mehnat shartnomalari (kontraktlari)ni bekor qiladi;

o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar chiqaradi va farmoyishlar beradi;

tarbiyalanuvchilarning hayoti muhofaza qilinishi va sog‘lig‘i mustahkamlanishi, o‘quv-tarbiya jarayonining holati, moliya-xo‘jalik faoliyati, buxgalteriya hisobi va hisoboti, moddiy-texnik bazaning mustahkamlanishi va moddiy boyliklarning saqlanishi uchun javob beradi.

56. Bolalar shaharchasi direktorining uch nafar: tarbiyaviy ishlari, ijtimoiy masalalar va ma‘muriy-xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari bo‘ladi.

Davlat Bolalar shaharchasi direktorining o‘rinbosarlari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi bilan kelishgan holda direktor tomonidan lavozimga tayinlanadi.

57. Direktor va uning o‘rinbosarlari lavozimlarining malaka tavsiflari O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

58. Bolalar shaharchasi direktori va uning o‘rinbosarlari bilan mehnat shartnomasi bir yil muddatga tuziladi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi Bolalar shaharchasi direktori va uning o‘rinbosarlari faoliyatiga baho berish mezonlarini ishlab chiqadi, ushbu mezonlar asosida ularning faoliyati baholanadi va keyingi yil uchun mehnat shartnomasini uzaytirish to‘g‘risidagi masala ko‘rib chiqiladi.

59. Bolalar shaharchasi ma‘muriyati har yili Bolalar shaharchasi joylashgan joydagi vasiylik va homiylik organlariga tarbiyalanuvchilarning sog‘lig‘i, ularni tarbiyalash ishlari to‘g‘risida, shuningdek tarbiyalanuvchilarning mol-mulkini boshqarish bo‘yicha hisobot taqdim etadi.

7-bob. Bolalar shaharchasi xodimlari

60. Bolalar shaharchasi direktori jismoniy va yuridik shaxslar bilan munosabatlarda, shuningdek, sudlarda tarbiyalanuvchilarning huquqlari va manfaatlarini himoya qiladigan qonuniy vakil hisoblanadi.

Direktor, agar vasiylik va homiylik organi tomonidan ma‘muriyat va bolalarning manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik mavjudligi aniqlansa, bolalarning manfaatlarini ifodalashga haqli emas. Ular o‘rtasida kelishmovchiliklar bo‘lgan taqdirda, vasiylik va homiylik organi boshqa vakilni tayinlashi shart.

61. Bolalar shaharchasi oilalarida tarbiyachilar O‘zbekiston Respublikasining 30 yoshga to‘lgan, biroq 55 yoshdan katta bo‘limgan fuqarolari — yolg‘iz ayollar yoki farzandsiz er-xotinlar bo‘lishi mumkin.

62. Tarbiyachi Bolalar shaharchasi oilasi boshlig‘i hisoblanadi. Tarbiyachilar belgilangan tartibda direktor tomonidan tanlov asosida ishga qabul qilinadi. Tarbiyachilarning malaka talablari Xalq ta’limi vazirligi tomonidan belgilanadi.

Tarbiyachilarni tanlashda oliv yoki o‘rta maxsus pedagogik, psixologik yoki tibbiy ma‘lumotli, ijtimoiy ish ko‘nikmasiga ega bo‘lgan shaxslarga ustunlik beriladi.

Quyidagi shaxslar tarbiyachilar bo‘lishi mumkin emas:

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb e’tirof etilganlar;

sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilinganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

qonun bilan o‘ziga yuklangan majburiyatlar zarur tarzda ijro etilmaganligi uchun vasiy (homiy) majburiyatlaridan chetlatilganlar;

agar farzandlikka olish ularning aybi bilan sud tomonidan bekor qilingan bo‘lsa, sobiq farzandlikka olganlar;

qasddan sodir qilgan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilinganlar;

asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro‘yxatda turuvchilar;

O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan bola tarbiyasi bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga qodir bo‘lmagan ishga qo‘yish uchun qarshilik ko‘rsatuvchi umumiy tibbiy moneliklarga ega bo‘lgan shaxslar.

Shaxsning tarbiyachi bo‘lishiga monelik qiladigan kasalliklar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

63. Tarbiyachi quyidagilarga majbur:

bolalarni tarbiyalash, ularning sog‘lig‘i, jismoniy, psixik, axloqiy-ma’naviy kamol topishi to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish;

oilada axloqiy-ma’naviy va uy muhitini yaratish;

o‘z majburiyatlarini tarbiyalanuvchilarning huquqlari va manfaatlariga zarar yetkazmagan holda bajarish;

bola uchun o‘ziga berilgan hujjatlarning saqlanishini ta’minalash;

har olti oyda tibbiy dispanser ko‘rigidan o‘tish;

belgilangan tartibda malaka oshirish kurslaridan o‘tish;

har ikki yilda O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markaziy institutida qo‘sishma o‘qitishning ikki haftalik kursidan o‘tish;

qonun hujjatlariga va mehnat shartnomasiga muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

64. Tarbiyachi ota-onalar (ularning o‘rnini bosadigan shaxslar) uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi, aliman to‘lash majburiyati bundan mustasno.

65. Tarbiyachi bilan mehnat shartnomasi belgilangan tartibda, shuningdek, bolalar ota-onalariga qaytarilgan (farzandlikka olingan) taqdirda bekor qilinishi mumkin.

66. Tarbiyachilar Bolalar shaharchasida mehnat shartnomasining butun amal qilish muddati mobaynida yashaydilar va tarbiyalanuvchilar bilan birga bepul ovqatlanadilar.

Tarbiyachining ovqatlanish xarajatlarini rejalashtirish bir bola uchun o‘rtacha sutkalik ovqatlanish me’yorlari miqdorida amalga oshiriladi.

67. Bolalar shaharchasidagi tarbiyalanuvchilar manfaatlarini yanada to‘liq ta’minalash uchun tarbiyachilarga Bolalar shaharchasi hududida yashaydigan tarbiyachi yordamchilari yordam beradilar hamda ular bo‘limganda va ularning ta’tili davrida ularning vazifasini bajarib turadilar.

68. Bolalar shaharchasining mukammal faoliyat yuritishi uchun Bolalar shaharchasi xodimlari soni va zarur lavozimlar ro‘yxati ushbu Nizomga [1-ilovaga](#) muvofiq uning tuzilmasiga kiradigan oilalar soniga bog‘liq holda namunaviy shtatlarga asosan belgilanadi.

69. Bolalar shaharchasi xodimlari bir yil muddatga tanlov asosida ishga qabul qilinadi, ushbu muddat yillik ish natijalariga ko‘ra keyingi yilga uzaytirilishi mumkin.

70. Pedagoglar, ijtimoiy xodimlar va psixologlar qonun hujjatlariga muvofiq tarbiyalanuvchilarga ruhiy va ijtimoiy pedagogik yordam ko‘rsatadilar, ular Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarining ruhiy, shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishidagi nuqsonlarni tuzatish ishlarini tashkil qiladilar.

71. Bolalar shaharchasining tibbiyot xodimlari tarbiyalanuvchilarning chuqurlashtirilgan tibbiy ko‘rigini tashkil etish, ularning o‘z vaqtida ixtisoslashtirilgan davolanishga yo‘naltirilishi, tarbiyalanuvchilarning reabilitatsiya tadbirlariga kiritilishi, Bolalar shaharchasida sanitariya va epidemiyaga qarshi rejimlarga rioya qilinishi, tarbiyalanuvchilarning sifatli ovqatlanishi, ularning jismoniy va aqliy yuklamalari me’yorlari, sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq bo‘lishi uchun javob beradilar.

8-bob. Bolalar shaharchalari ta’minoti va ularni moddiy-texnik ta’minalash

72. Davlat Bolalar shaharchalari ta’minoti va ularni moddiy-texnik ta’minalash O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari, yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy homiylik

xayriyalari, shuningdek, qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi.

Davlat bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilari to'liq davlat ta'minotida bo'ladi.

Nodavlat bolalar shaharchalari ("SOS" — O'zbekiston bolalar mahallalari" uyushmasining tarbiyaviy muassasalari bundan mustasno) tarbiyalanuvchilari muassislar ta'minotida bo'ladi. Bunda mablag' bilan ta'minlash ushbu Nizomda davlat bolalar shaharchalari uchun belgilangan miqdorlar va normativlardan kam bo'lishi mumkin emas.

73. Bolalar shaharchalari, qoidaga ko'ra, tumanlar markazlarida va yirik shaharlarning shahar atrofi hududlarida joylashtiriladi.

Bolalar shaharchasi hududi, binolari va inshootlariga nisbatan minimal talablar O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Sog'lijni saqlash vazirligi bilan birgalikda belgilanadi.

Bolalar shaharchasining moddiy-texnik jihozlanishiga nisbatan minimal talablar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Sog'lijni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

Bolalar shaharchasining moddiy-texnik Bolalar shaharchasi binolari texnika xavfsizligi qoidalariga, shuningdek sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiq jihozlanadi va foydalaniladi.

74. Bolalar shaharchasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng uning xarajatlar smetasi va shtatlar jadvali belgilangan tartibda tegishli moliya organlari tomonidan ro'yxatdan o'tkaziladi.

Nodavlat bolalar shaharchalari tarmoqlar, shtatlar jadvali va contingent bo'yicha moliya organlariga hisobot topshiradilar.

75. Davlat bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilari O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi tomonidan belgilangan tartibda tasdiqlangan Bolalar shaharchalari tarbiyalanuvchilarining oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol qilishining o'rtacha sutkalik maqbul me'yorlariga muvofiq oziq-ovqat, shuningdek, ushbu Nizomga [2-ilovaga](#) muvofiq norma bo'yicha kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq jihozlar, [3-ilovaga](#) muvofiq norma bo'yicha shaxsiy gigiyena buyumlari bilan ta'minlanadilar.

76. Binolar saqlanishi uchun xarajatlar va Bolalar shaharchalari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan boshqa joriy xarajatlar bilan birgalikda kommunal xizmatlar bo'yicha xarajatlarni mablag' bilan ta'minlash naqd pulsiz to'lovlar orqali amalga oshiriladi.

77. Davlat bolalar shaharchalarida har oyda tarbiyachiga oila xarajatlarini qoplash uchun zarur bo'lgan mablag'lar muassasaning xarajatlar smetasi doirasida naqd pul shaklida to'lanadi.

Oila xarajatlariga quyidagilar kiradi:

oziq-ovqat mahsulotlari, kiyim-kechaklar, poyabzallar, choyshablar va sochiqlar, kundalik xo'jalik va shaxsiy gigiyena buyumlari, o'yinchoqlar, o'quv qurollari, badiiy kitoblar, boshqa mayda xo'jalik buyumlari sotib olish va transport xarajatlari;

sog'lomashtirish, ta'lim berish va madaniy-ommaviy tadbirlar.

78. Tarbiyachilar tomonidan oila budgeti mablag'laridan tejab qolning pullar oila bayramlari va oilaning boshqa maqsadlari uchun ishlatalishi mumkin.

79. Davlat Bolalar shaharchalarini moliyalashtirish, shuningdek, ularning moddiy-texnika bazasini rivojlantirishga xarajatlar ajratish Mehribonlik uylari uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq amalga oshiriladi.

80. Davlat Bolalar shaharchalaridagi bitta tarbiyalanuvchining oziq-ovqat, kiyim-kechak, poyabzal va yumshoq mebel bilan ta'minlash me'yorlari Mehribonlik uylari uchun tasdiqlangan me'yorlarga o'xshash holda belgilanadi.

81. Bolalar shaharchasida moliyaviy boshqarish tizimi Bolalar shaharchasining har bir oilasida moliyaviy javobgarlik va hisobot berishga yo'naltirilgan.

Ma'muriy-boshqaruv mexanizmlari Bolalar shaharchasi rahbariyati tomonidan har bir oilaning tabiiy jarayonlariga aralashishini kamaytirishni nazarda tutadi.

82. Bolalar shaharchasining barcha rahbar, pedagog va boshqa xodimlariga yetim bolalar bilan ishslashning maxsus sharoitlari uchun ish haqi stavkasiga 50 foiz miqdorida qo'shimcha haq belgilanadi.

Tarbiyachilar va tarbiyachining yordamchilariga bolalar bilan kecha-kunduz, shu jumladan, tungi vaqtida ishlaganligi uchun ish haqi stavkasiga 100 foiz miqdorida qo'shimcha haq belgilanadi.

83. Budgetning g'aznachilik ijrosiga o'tmagan mintaqalarda davlat Bolalar shaharchasi ta'minoti uchun ajratiladigan pul mablag'lari har oyda uning bankdagi hisob raqamiga belgilangan muddatlarda va tartibda o'tkaziladi.

84. Budgetning g'aznachilik ijrosiga o'tgan mintaqalarda davlat Bolalar shaharchasi xarajatlarini davlat budgeti mablag'lari hisobiga moliya organlarida, shuningdek, g'aznachilik bo'linmalarida belgilangan tartibda tasdiqlangan va ro'yxatga olingan xarajatlar smetalari asosida to'lash uchun g'aznachilik hisob raqami ochiladi.

85. Bolalar shaharchasini moddiy qo'llab-quvvatlash, tarbiyalanuvchilarni mustaqil hayot va mehnatga tayyorlash maqsadida Bolalar shaharchasi ma'muriyati vasiylik va homiylik organlari bilan kelishgan holda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan tadbirdorlik yoki boshqa faoliyatni tashkil etish huquqiga ega.

Bolalar shaharchasi ma'muriyati budgetdan tashqari mablag'larni o'tkazish uchun alohida bank hisob raqamini ochish huquqiga ega.

86. Bolalar shaharchasiga berilgan bolalarning ta'minoti uchun mablag'lar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha me'yorlar va imtiyozlarni hisobga olgan holda to'liq hajmda to'lanishi lozim. Ayrim sabablarga ko'ra o'tgan moliya yilida to'lanmagan pul mablag'lari keyingi moliya yilida to'lanadi.

87. Yil davomida foydalanimagan mablag'lar olib qo'yilmaydi, ushbu mablag'lar qonun hujjatlariga muvofiq Bolalar shaharchasining ehtiyojlariga sarflanadi.

88. Bolalar shaharchasining barcha moliyav-xo'jalik faoliyati buxgalteriya hisobini Bolalar shaharchasi buxgalteri amalga oshiradi, u tegishli xalq ta'limini moliyalashtirish bo'limlariga har oyda va har chorakda hisobot topshiradi.

89. Bolalar shaharchasi buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotini tuzish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

90. Barcha tarbiyachilar moddiy javobgar hisoblanadilar.

91. Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarining ovqatlanishini tashkil etish tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladi.

92. Oziq-ovqat mahsulotlarini haftasiga kamida bir marta (tez ayniydigan oziq-ovqat mahsulotlarini haftasiga kamida ikki marta) sotib olish tarbiyachi tomonidan amalga oshiriladi.

Tarbiyachi tarbiyalanuvchilarning ularning yoshiga muvofiq ravishda balanslangan ovqatlanishini ta'minlaydi.

Tarbiyachi ovqat pishirish uchun zarur bo'lgan mahsulotlardan sarflangan mahsulotlarni keyinchalik taomnoma bo'yicha hisobdan chiqarmasdan foydalanadi.

Oiladagi bolalarning sifatlari va to'laqonli ovqatlanishining tashkil etilganligi bolalarni doimiy ravishda tibbiy ko'rikdan o'tkazish, umumiyl rivojanishi, o'sishi, vazni, shuningdek, vrach va Bolalar shaharchasi ma'muriyatining tanlab nazorat qilish natijalariga ko'ra aniqlanadi.

93. Mahsulotlar chakana savdo tashkilotlaridan xarid qilganda to'lov cheklari saqlab qo'yiladi, oziq-ovqat bozoridan naqd pulga xarid qilingan mahsulotlar uchun esa dalolatnomaga tuziladi.

94. Oziq-ovqat mahsulotlarini va boshqa tovarlarni hisobdan chiqarish tarbiyachilar tomonidan taqdim etilgan cheklar va dalolatnomalar asosida doimiy ishlaydigan komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

95. Doimiy ishlaydigan komissiya tarkibi Bolalar shaharchasi direktori tomonidan bir yilga belgilanadi va uning buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

96. Bolalar shaharchasidan uzoq masofada joylashgan umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida o'qiyotgan tarbiyalanuvchilarga, yirik xaridlardan tashqari, Bolalar shaharchasidagi tushlik pul qiymatidan oshmaydigan miqdorda tushlikka naqd pul beriladi.

97. Tushlik uchun naqd pullar normativlari summalarini tarbiyalanuvchilarning yoshiga qarab taqsimlagan holda tasdiqlanadi.

98. Bolalar shaharchasining tarbiyalanuvchilari Mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari uchun ko‘zda tutilgan barcha imtiyozlarga ega bo‘ladi.

99. Bolalar shaharchasi vrachi tarbiyachiga oziq-ovqat mahsulotlari tanlashda maslahat yordami beradi va ovqatlanishni tashkil etishni va uning sifatini tanlab nazorat qiladi.

Bolalar shaharchasi vrachi buxgalteriya va tarbiyachilarining dori-darmonlar va oziq-ovqat mahsulotlari xarid qilish uchun ishlatgan mablag‘lari bilan bog‘liq bo‘lgan barcha hisob-kitob yozishmalarini to‘sinqiksiz olish huquqiga ega.

100. Bolalar shaharchasining moliya-xo‘jalik faoliyati yuzasidan nazoratni moliya organlari amalga oshiradilar.

101. Bolalar shaharchasining moddiy-texnika bazasi binolar, inshootlar, yer uchastkalari, kommunikatsiyalar, inventarlar, asbob-uskunalar, transport vositalari va boshqalardan iborat bo‘ladi.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

102. Bolalar shaharchasi maqomi oxirgi tarbiyalanuvchi voyaga yetgunga, vasiylikka, homiylikka, oilaga tarbiyaga (patronatga) yoki shu turdagи boshqa muassasaga joylashtirilgunga qadar saqlanib qoladi.

103. Bolalar shaharchasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

104. Bolalar shaharchasi tugatilganda uning pul mablag‘lari va mol-mulkidan, uning majburiyatlarini qoplash to‘lovlarini chegirgan holda qonun hujjatlariga va uning ustaviga muvofiq foydalaniladi.

Bolalar shaharchasi to‘g‘risidagi **nizomga**
1-ILOVA

Bolalar shaharchalarining namunaviy shtatlari

| T/r | Lavozimlar nomi | Oilalar soniga ko‘ra shtat birliklari soni | | |
|-----|----------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------|---------|-----------------------|
| | | 12 oila | 16 oila | 18 va undan ko‘p oila |
| 1. | Direktor | 1 | 1 | 1 |
| 2. | Direktorning o‘quv va ma’naviy-ma’rifiy ishlari bo‘yicha o‘rinbosari | 1 | 1 | 1 |
| 3. | Direktorning ijtimoiy masalalar bo‘yichao‘rinbosari | 1 | 1 | 1 |
| 4. | Direktorning ma’muriy-xo‘jalik ishlari bo‘yicha o‘rinbosari | 1 | 1 | 1 |
| 5. | Yuristkonsult | 0,5 | 0,5 | 0,5 |
| 6. | Tarbiyachi | 12 | 16 | 18 va undan ortiq |
| 7. | Tarbiyachining yordamchisi | 6 | 8 | 9 va undan ortiq |
| 8. | Ijtimoiy xodim | 1 | 1,5 | 2 |
| 9. | Psixolog | 1 | 1,5 | 2 |
| 10. | Bosh buxgalter | 1 | 1 | 1 |
| 11. | Buxgalter | 1 | 1 | 1 |
| 12. | Kassir | 1 | 1 | 1 |
| 13. | Vrach | 1 | 1 | 1 |
| 14. | Ish yurituvchi kotib | 1 | 1 | 1 |
| 15. | Musiqa rahbari | 1 | 1 | 1 |
| 16. | Tibbiy hamshira | 1 | 1 | 1 |
| 17. | Jismoniy tarbiya instruktori | 1 | 1 | 1 |

Izoh.

Ishlovchilar soni 200 nafargacha bo‘lgan bolalar shaharchalariga bir necha lavozimda ishslash shartlarida ish haqi to‘langan holda 0,5 shtat birligidan iborat bo‘lgan fuqaro mudosaasi bo‘yicha mutaxassis lavozimi kiritiladi.

Avtomobil, avtobus, mikroavtobus yoki yuk transporti mavjud bo‘lgan bolalar shaharchalarida haydovchi lavozimi joriy etiladi.

Qorovul lavozimi dam olish kunlari, bayram kunlari va ta’til davrida o‘rniga o‘zganing ishslashini hisobga olgan holda 2,5 — 3 shtat birligi miqdorida belgilanadi.

Bolalar shaharchalarida ma‘muriy binolar hududini supurish-yig‘ishtirish uchun xizmatchi lavozimi joriy etiladi.

Mevali bog‘ yoki manzarali o‘simliklardan iborat bo‘lgan kamida 1,5 ga yer uchastkasi mayjud bo‘lgan bolalar shaharchalarida bog‘bon lavozimi joriy etiladi.

Isitish mavsumida (kochegarlar), binolar, inshootlar va asbob-uskunalarga kompleks xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash bo‘yicha ishchilar (kochegarlar) yoki quyidagi hisob-kitoblar bo‘yicha o‘t yoquvchilar (kochegarlar) lavozimlari joriy etiladi:

markaziy isitish tarmog‘i mayjud bo‘lganda — har bir bug‘qozonga bir smena uchun 1 birlik kochegar lavozimi, isitish yuzasi 75 kv. metrdan ortiq bo‘lgan, yoqilg‘ining qattiq turlari (torf, toshko‘mir) qo‘llanadigan bug‘qozonlarga — har bir bug‘qozon uchun bir smenada 2 birlik kochegar lavozimi;

gaz bilan isitishda — bir smena uchun 1 birlik kochegar lavozimi, xavfsizlik avtomatikasi mayjud bo‘lmagan bug‘qozonxonalarda esa bir smena uchun 2 birlik kochegar lavozimi.

Binolarga kompleks xizmat ko‘rsatish va ularni ta‘mirlash bo‘yicha ishchilar lavozimi quyidagi hisob-kitob bo‘yicha belgilanadi:

har 500 yoritish nuqtasi uchun 1 birlik elektromontyor lavozimi, biroq u Bolalar shaharchasi uchun 0,5 birlikdan kam bo‘lmasligi kerak;

suv quvuri va kanalizatsiya bilan ta‘minlangan har 2000 kv. metr foydali maydon uchun 1 birlik chilangarsantexnik lavozimi, biroq u Bolalar shaharchasi uchun 0,5 birlikdan kam bo‘lmasligi kerak;

Bolalar shaharchasi uchun 1 birlik duradgor lavozimi.

Bolalar shaharchalari ta‘minoti uchun xarajatlar smetalarida maktab yoshidagi bolalar va aralash tipdagi bolalar uylari uchun Bolalar shaharchasiga 1 stavka miqdorida — to‘garaklar rahbarlari ish haqiga mablag‘lar ajratish nazarda tutiladi.

**Bolalar shaharchasi to‘g‘risidagi nizomga
2-ILOVA**

Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarini kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq jihozlar bilan ta‘minlash

NORMALARI

| T/r | Kiyim-bosh, poyabzal va yumshoq jihozlar nomi | O‘lchov birligi | Maktab yoshidagi bir nafar tarbiyalanuvchi uchun | | | Maktabgacha yoshdagи bir nafar tarbiyalanuvchi uchun | |
|-------------------------|-----------------------------------------------|-----------------|--------------------------------------------------|--|---------------------------|---------------------------------------------------------|---------------------------|
| | | | Soni | | Foydalanish muddati (yil) | Soni | Foydalanish muddati (yil) |
| O‘g‘il bolalar uchun | Qiz bolalar uchun | | | | | | |
| I. Kiyim-boshlar | | | | | | | |

| | | | | | | | |
|----|-------------------------------------------------------|---------|---|---|---|---|---|
| 1. | Qishki palto/kurtka | ta | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 2. | Mavsumiy palto, kurtka | ta | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 3. | Maktab formasi | to‘plam | 1 | 1 | 1 | - | - |
| 4. | O‘g‘il bolalar uchun kostyumlar (galstuk bilan) | to‘plam | 2 | - | 2 | 2 | 2 |
| 5. | Jun kostyum (bayram uchun) | to‘plam | 1 | - | 2 | 1 | 2 |
| 6. | O‘g‘il bolalar uchun ip gazlamadan maktab ko‘ylaklari | ta | 3 | - | 1 | - | - |

| | | | | | | | |
|-----|--------------------------------------------------|---------|---|---|---|---|---|
| 7. | O‘g‘il bolalar uchun ip gazlamadan ustki ko‘ylak | ta | 3 | - | 1 | 3 | 1 |
| 8. | Qizlar uchun ko‘ylak (yubka, bluzka) | ta | - | 3 | 1 | 3 | 1 |
| 9. | Qizlar uchun uy xalatlari/ko‘ylaklari | ta | - | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 10. | Qishki ko‘ylak (bayram uchun) | ta | - | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 11. | Jun svityerlar (jempyerlar) | ta | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 12. | Yozgi ko‘ylaklar (bayram uchun) | ta | - | 3 | 1 | 3 | 1 |
| 13. | Yozgi bosh kiyim | ta | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 14. | Qishki bosh kiyim | ta | 2 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 15. | Qizlar uchun triko va shim | ta | - | 4 | 1 | 4 | 1 |
| 16. | Dastro‘mollar | ta | 6 | 6 | 1 | 6 | 1 |
| 17. | O‘g‘il bolalar uchun shim kamari | ta | 1 | - | 1 | - | - |
| 18. | Sharf | ta | 1 | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 19. | Qo‘lqoplar | juft | 2 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 20. | Ichki ko‘ylak (pijama) | to‘plam | 4 | 4 | 2 | 5 | 2 |
| 21. | Sport formasi, krossovka | to‘plam | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 22. | Byustgalter | ta | - | 3 | 1 | - | - |
| 23. | Kalta sport ishtonni | ta | 2 | 2 | 1 | 1 | 1 |
| 24. | Maykalar | ta | 4 | 4 | 1 | 4 | 1 |
| 25. | Ip paypoqlar, golflar | juft | 5 | 5 | 1 | 6 | 1 |
| 26. | Jun paypoqlar, golflar | juft | 5 | 5 | 1 | 6 | 1 |
| 27. | Botinkalar, tuflilar | juft | 3 | 3 | 1 | 3 | 1 |
| 28. | Shippaklar | juft | 2 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 29. | Qishki etiklar, botinkalar | juft | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 30. | Kalishlar | juft | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 31. | Yarim jun sport kostyumi | ta | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 32. | Tungi pijamalar | ta | 2 | 1 | 1 | 2 | 1 |
| 33. | Kolgotkalar | ta | - | 5 | 1 | 6 | 1 |
| 34. | Cho‘milish kiyimlari | ta | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 35. | Rezina shapka | ta | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 |
| 36. | Ish kiyimi | to‘plam | 1 | 1 | 2 | 1 | 1 |
| 37. | Portellar, sumkalar | ta | 1 | 1 | 1 | - | - |
| 38. | Shaxsiy buyumlarni saqlash uchun ryukzak/sumka | ta | 1 | 1 | 3 | 1 | 5 |

II. Yumshoq jihozlar

| | | | | | | |
|-----|---------------------------------------|----|---|---|---|---|
| 39. | Choyshab | ta | 3 | 1 | 5 | 1 |
| 40. | Ko‘rpa choyshabi | ta | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 41. | Yostiq jildi | ta | 3 | 1 | 4 | 1 |
| 42. | Sochiq | ta | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 43. | Paxmoq sochiq | ta | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 44. | Jun yoki paxtali adyol | ta | 1 | 6 | 1 | 6 |
| 45. | Paxmoq adyol | ta | 1 | 3 | 2 | 3 |
| 46. | To‘shak | ta | 1 | 4 | 2 | 3 |
| 47. | Momiqli va patli yostiq | ta | 1 | 6 | 2 | 4 |
| 48. | Katta choyshab | ta | 1 | 3 | 1 | 3 |
| 49. | Karavot yoniga to‘shaladigan gilamcha | ta | 1 | 4 | 1 | 4 |

Bolalar shaharchasi to‘g‘risidagi nizomga
3-ILOVA

**Bolalar shaharchasi tarbiyalanuvchilarini shaxsiy gigiyena buyumlari bilan yillik ta’minlash
NORMALARI**

| T/r | Buyumlarning nomi | O‘lchov birligi | 3 — 7 yoshli bolalar uchun (soni) | | 8 — 13 yoshli bolalar uchun (soni) | | 14 — 16 yoshli bolalar uchun (soni) | |
|-----|------------------------------------------------------------------|-------------------|-----------------------------------|-------------|------------------------------------|-------------|-------------------------------------|-------------|
| | | | o‘g‘il bolalar | qiz bolalar | o‘g‘il bolalar | qiz bolalar | o‘g‘il bolalar | qiz bolalar |
| 1. | Atir sovun (100 gr) | dona | 24 | 24 | 24 | 24 | 24 | 24 |
| 2. | Xo‘jalik (kir) sovuni (100 gr) | dona | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 |
| 3. | Shampun (200 gr) | dona | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 |
| 4. | Tish pastasi (30 gr) | tyubik | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 | 12 |
| 5. | Tish cho‘tkasi | dona | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 |
| 6. | Taroq | dona | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 7. | Badanni yuvish uchun gubka | dona | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 8. | Poyabzal moyi | tyubik | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 |
| 9. | Hojatxona qog‘ozi | o‘ram | 24 | 24 | 24 | 24 | 24 | 24 |
| 10. | Qiz bolalar uchun shaxsiy gigiyena vositasi (qistirma) | to‘plam (10 dona) | - | - | - | 12 | - | 12 |
| 11. | Kir yuvish kukuni (400 gr) | upakovka | 8 | 8 | 8 | 8 | 12 | 12 |
| 12. | Tog‘ora (plastmassa) (sig‘imi 10 l) (foydanish muddati 3 yil) | dona | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 13. | Soqol olish buyumi (britva), bir martalik | dona | - | - | - | - | 12 | 5 |
| 14. | Soqol olish vositasi (soqol olish ko‘pigi, loson) (100 — 150 gr) | flakon | - | - | - | - | 6 | - |

| | | | | | | | | |
|-----|------------------------|---------|---|---|---|---|---|---|
| 15. | Dezodorant (aerozol) | dona | - | - | - | - | 6 | 6 |
| 16. | Momiq (paxta) (200 gr) | to‘plam | - | 4 | - | 4 | - | 4 |

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-son qaroriga
4-ILOVA

Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat to‘g‘risida)

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka olish O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksi, Fuqarolik protsessual kodeksi va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

2. Farzandlikka olishga faqat voyaga yetmagan bolalarga nisbatan va faqat ularning manfaatlarini ko‘zlab yo‘l qo‘yiladi.

Aka-ukalar va opa-singillarni turli shaxslar tomonidan farzandlikka olishga yo‘l qo‘yilmaydi, farzandlikka olish bolalarning manfaatlariga muvofiq kelgan hollar bundan mustasno.

3. Farzandlikka olish bolani farzandlikka olishni xohlagan, farzandlikka bola olishga nomzod sifatida ro‘yxatda turgan shaxs(lar)ning arizasiga hamda vasiylik va homiylik organlarining farzandlikka olish asosli va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi haqidagi xulosasiga ko‘ra sud tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxs(lar)ni farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo‘yish ularning turar joyidagi vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

4. Farzandlikka oluvchilar — bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha ota-onasi majburiyatlarini ixtiyoriy ravishda o‘z zimmasiga olgan shaxslardir.

2-bob. Farzandlikka olinishi lozim bo‘lgan bolalarni va ularni farzandlikka olishni xohlagan shaxslarni hisobga olish

5. Farzandlikka olinishi lozim bo‘lgan bolalar haqidagi ma’lumotlar va farzandlikka olishning asosligi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi haqidagi xulosa bolaning turgan joyidagi vasiylik va homiylik organlari tomonidan tayyorlanadi.

6. Ota-onalar qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga ega bo‘lgan muassasalar (maktabgacha tarbiya va umumta’lim muassasalari, davolash muassasalari va boshqa muassasalar)ning mansabdor shaxslari va boshqa fuqarolar bu haqida bolalar yashab turgan joydagi vasiylik va homiylik organlarini uch kun muddatda xabardor qilishlari shart.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan muassasalar tomonidan farzandlikka olinishi lozim bo‘lgan bolalar haqidagi ma’lumotlar boshqa tashkilotlar va muassasalarga, shuningdek, fuqarolarga qonunda belgilangan hollardan tashqari berilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

7. Quyidagilar farzandlikka olinishi lozim bo‘lgan bolalar sifatida hisobga olinadi:

ota-onasi vafot etgan;

ota-onasi ota-onalik huquqidan mahrum etilgan;

ota-onasi sud tomonidan muomalaga layoqatsiz deb topilgan;

ota-onasi bolalarni tarbiyalash yoki ularning huquq va manfaatlarini himoya qilishdan bo‘yin tovlagan;

ota-onasi bir yildan ortiq muddat davomida bolalar muassasalari yoki tibbiy muassasalardagi bolasidan uzrli sabablersiz xabar olmagan;

ota-onasi tarbiyalash, davolash muassasalaridan, aholini ijtimoiy himoyalash muassasasidan va boshqa muassasalardan bolasini olishdan bosh tortgan;

ota-onasi bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb e’lon qilingan bolalar.

8. Farzandlikka olishni xohlovchi shaxs yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

farzandlikka olishni xohlovchi shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, nikohda qachondan beri turganligi, er-xotinning birga yoki alohida yashashi, agar farzandlari bo'lsa, ularning soni va yoshi, farzandlikka olinayotgan bolani yoshi va jinsi ko'rsatilgan hamda farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo'yish so'ralgan ariza;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat va uning nusxasi;

nikoh to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi (agar nikohda bo'lsa) yoki nikohda turmasligi haqidagi ma'lumotnama;

er-xotindan biri tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa, boshqasining roziligi (agar er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo'lsa va arning (xotinning) yashash (turgan) joyi noma'lum bo'lsa, shuningdek, bu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi);

ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi ko'rsatilgan yoki boshqa daromad manbalari to'g'risidagi ma'lumotnama;

farzandlikka olishni xohlovchi shaxsning sog'lig'i holati haqida tibbiy xulosa (psixiatriya, sil kasalligiga qarshi kurash va narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari ma'lumotnomalari);

qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari sudlanmaganligi haqida ichki ishlar organining axborot markazidan olingan ma'lumotnama;

turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat.

Farzandlikka olish istagini bildirgan shaxslar to'g'risida xulosa tayyorlash uchun vasiylik va homiylik organlari farzandlikka olishni hohlovchi shaxsning yashash sharoitini hamda mazkur bandning [ikkinci — o'n birinchi xatboshilarida](#) ko'rsatilgan hujjatlarni qabul qilgan kunidan boshlab 10 ish kuni ichida o'rganib chiqadi va tegishli dalolatnomada tuzadi. Vasiylik va homiylik organlari tomonidan tuzilgan dalolatnomada boshqa barcha ma'lumotlar bilan bir qatorda farzandlikka olishga to'sqinlik qiluvchi O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining [152-moddasida](#) nazarda tutilgan holatlar mavjud bo'lsa ko'rsatib o'tiladi.

Ariza va unga ilova qilingan hujjatlar, shuningdek, bolani farzandlikka olishni hohlagan shaxslarning turmush sharoitlarini o'rganib chiqish dalolatnomasi asosida vasiylik va homiylik organi ariza berilgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida ularning farzandlikka oluvchilar bo'lishi imkoniyati to'g'risidagi xulosani tayyorlaydi.

Farzandlikka oluvchilar bo'lishi imkoniyati to'g'risidagi xulosa bilan birga ariza beruvchiga uning farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo'yilganligi haqidagi hujjat beriladi.

Agar farzandlikka olinayotgan bola farzandlikka olishni hohlovchi shaxsga qarindosh (nevara, o'gay o'g'il yoki o'gay qiz va hokazo) bo'lsa yoki uning oilasida yashayotgan bo'lsa, farzandlikka oluvchi bo'lish imkoniyati to'g'risidagi xulosa 10 ish kuni mobaynida tuziladi va ariza beruvchiga beriladi.

Vasiylik va homiylik organlari salbiy xulosa va unga asoslangan farzandlikka olishga nomzodlar sifatida hisobga qo'yishning rad etilishini xulosa imzolangan sanadan boshlab 5 kun muddatda ariza beruvchining e'tiboriga yetkazadilar. Ayni bir vaqtida ariza beruvchiga barcha hujjatlar qaytariladi va qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi tushuntiriladi.

Vasiylik va homiylik organi barcha hujjatlarning nusxalarini o'ziga olib qoladi va aslini ariza beruvchiga kelgusida sudga taqdim etish uchun qaytarib beradi.

9. Voyaga yetgan erkak yoki ayol fuqarolar farzandlikka oluvchilar bo'lishi mumkin, quyidagi shaxslar bundan mustasno:

ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

qonun bilan belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilganlar;

asab kasalliklari yoki narkologiya muassasalarida ro'yxatda turuvchilar;

sobiq farzandlikka oluvchilar, agar ular farzandlikka olish bo'yicha zimmalariga yuklangan majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlaganliklari yoki ularni lozim darajada bajarmaganliklari, ota-onalik huquqini suiiste'mol qilganliklari, farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan

muomalada bo‘lganliklari, shuningdek, surunkali ichkilikbozlik yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lganliklari munosabati bilan farzandlikka olish bekor qilingan bo‘lsa; qasddan sodir qilgan jinoyati uchun ilgari hukm qilinganlar.

Farzandlikka oluvchi va farzandlikka olinuvchilar yoshidagi farq o‘n besh yoshdan kam bo‘lmasligi shart, o‘gay ota va o‘gay ona tomonidan farzandlikka olish hollari bundan mustasno.

10. Farzandlikka olishda quyidagilar ustunlik huquqiga ega bo‘ladilar:

turar joyidan qat’i nazar, farzandlikka olinuvchining qarindoshlari;

oиласида farzandlikka olinuvchi bola yashayotgan shaxs;

aka-uka, opa-singillarni ular orasidagi qarindoshlik aloqalarini buzmasdan farzandlikka olayotgan shaxslar;

o‘gay ota va o‘gay ona;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari;

kasallik, baxtsiz hodisa oqibatida farzandlaridan ajralgan shaxslar.

3-bob. Farzandlikka olish uchun bolalarni tanlash

11. Vasiylik va homiylik organi fuqarolar farzandlikka oluvchi nomzodlar sifatida hisobga qo‘yilgandan keyin ularga farzandlikka olish mumkin bo‘lgan bola (bolalar) to‘g‘risidagi axborotni taqdim etadi va bola (bolalar) yashaydigan (turgan) joyda bolani (bolalarni) ko‘rish uchun yo‘llanma beradi.

Agar farzandlikka olishga nomzodlar o‘z yashash joyida farzandlikka olish uchun bolani tanlay olmasa, ular farzandlikka olinadigan bola to‘g‘risida ma’lumot olish uchun o‘z hohishlariga ko‘ra boshqa vasiylik va homiylik organiga yoki O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga murojaat qilishlari mumkin.

12. Farzandlikka olishga nomzodlar quyidagi huquqlarga ega:

bola to‘g‘risidagi bat afsil ma’lumotni va uning qarindoshlari borligi haqidagi ma’lumotlarni olish;

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi va Sog‘liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlanadigan tartibda bola turgan muassasaning vakili ishtirokida bolani farzandlikka olishni mustaqil tibbiy tekshiruvdan o‘tkazish uchun tibbiyot muassasasiga murojaat qilish.

13. Farzandlikka olishga nomzodlar shaxsan:

bola bilan tanishishga va u bilan aloqa o‘rnatishga;

farzandlikka olinadigan bolaning hujjatlari bilan tanishishga;

bolaning sog‘lig‘i to‘g‘risidagi tibbiy xulosa bilan tanishganlikni yozma shaklda tasdiqlashga majbur.

14. Vasiylik va homiylikdagi, davlat bolalar muassasalari tarbiyasi va ta’midotidagi bolalarni farzandlikka olish, ota-onasining roziligi talab qilinmaydigan hollarda, vasiy (homiy) yoki ushbu muassasa ma’muriyati roziligi bilan amalga oshiriladi.

4-bob. Farzandlikka olish asosli va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi to‘g‘risidagi xulosani tuzish

15. Farzandlikka olish uchun bola tanlangandan keyin farzandlikka oluvchi bo‘lish imkoniyati to‘g‘risidagi xulosa asosida farzandlikka oluvchi nomzod Fuqarolik protsessual [kodeksida](#) belgilangan tartibda sudga ariza bilan murojaat qiladi.

Sudning so‘roviga ko‘ra vasiylik va homiylik organlari farzandlikka olish asosli ekanligi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi haqidagi xulosani sudga taqdim etadilar. Xulosaga quyidagilar ilova qilinadi:

farzandlikka olinayotgan bolaning yashash (turgan) joyi yoki farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yashash joyi bo‘yicha vasiylik va homiylik organi tomonidan tuzilgan farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) yashash sharoitlarini tekshirish dalolatnomasi.

farzandlikka olinayotgan bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnomasi yozuvidan ko‘chirma;

farzandlikka olinayotgan bolaning sog‘lig‘i holati, jismoniy va aqliy rivojlanishi haqidagi tibbiy xulosa;

o'n yoshga to'lgan farzandlikka olinayotgan bolaning farzandlikka olishga, shuningdek, familiyasi, ismi, otasining ismi o'zgartirilishi mumkinligiga va farzandlikka oluvchilarning (oluvchining) uning ota-onasi (otasi yoki onasi) sifatida qayd etilishiga roziligi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining **156-moddasida** nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

bola ota-onasining (otasining yoki onasining) uning farzandlikka olinishiga roziligi, o'n olti yoshga to'limgan ota-onaning bolasi farzandlikka olinayotganda esa ota-ona qonuniy vakillarining ham roziligi, qonuniy vakillar mavjud bo'limgan taqdirda esa vasiylik va homiylik organining roziligi, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining **160-moddasida** nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

bola uning qarindoshlari bo'limgan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo'limgan shaxslar tomonidan farzandlikka olinganda ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni va farzandlikka olishga nomzodlarni hisobga olish bo'yicha ma'lumotlar bazasida farzandlikka olinayotgan bola haqidagi ma'lumotlar mavjudligini tasdiqlovchi hujjat, shuningdek, bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari oilasiga tarbiyaga olish yoki bolaning qarindoshlari tomonidan ushbu qarindoshlarning fuqaroligi va yashash joyidan qat'i nazar farzandlikka olinishi imkoniyati mavjud emasligini tasdiqlovchi hujjatlar.

Zarurat bo'lganda, sud boshqa hujjatlarni (ma'lumotlarni) ham talab qilib olishi mumkin.

5-bob. Chet el fuqarosi bo'lgan yoki fuqaroligi bo'limgan bolani O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tomonidan farzandlikka olish

16. Chet el fuqarosi bo'lgan yoki fuqaroligi bo'limgan bolani farzandlikka olishni xohlovchi shaxs o'z turar joyidagi vasiylik va xomiylik organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etgan holda murojaat qilish xuquqiga ega:

farzandlikka olishni xohlovchi shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, nikohda qachondan beri turganligi, er-xotinning birga yoki alohida yashashi, agar farzandlari bo'lsa, ularning soni va yoshi, farzandlikka olinayotgan bolaning yoshi, jinsi va yashayotgan (turgan) mamlakati ko'rsatilgan hamda farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo'yish so'ralgan ariza;

shaxsni tasdiqlovchi hujjat va uning nusxasi;

nikoh to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi (agar nikohda bo'lsa) yoki nikohda turmasligi haqidagi ma'lumotnomasi;

er-xotindan biri tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa, boshqasining roziligi (agar er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo'lsa va arning (xotinning) yashash (turgan) joyi noma'lum bo'lsa, shuningdek, bu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi);

ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi ko'rsatilgan yoki boshqa daromad manbalari to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

farzandlikka olishni xohlovchi shaxsning sog'lig'i holati haqida tibbiy xulosa (psixiatriya, sil kasalligiga qarshi kurash va narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari ma'lumotnomalari);

qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari sudlanmaganligi haqida ichki ishlar organining axborot markazidan olingan ma'lumotnomasi;

turar joyga bo'lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat;

farzandlikka olinayotgan bola bilan qarindoshligini tasdiqlovchi hujjat yoki turli sabablarga ko'ra o'z vatanida farzandlikka olishning imkoni yo'qligini tasdiqlovchi hujjat;

farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi vafot etganligi to'g'risidagi guvoxnomasi nusxasi yoki bolaning ota-onasi bedarak yo'qolganligi, vafot etgan deb e'lon qilinganligi to'g'risidagi sud qarori;

farzandlikka olinayotgan bolaning tug'ilganlik to'g'risidagi dalolatnomasi yozuvidan ko'chirma;

farzandlikka olinayotgan bolaning sog'lig'i holati, jismoniy va aqliy rivojlanishi haqidagi tibbiy xulosa;

tegishli davlat organining farzandlikka olinayotgan bolaning (boshqa mamlakatda doimo yashab kelayotgan bola uchun) O‘zbekiston Respublikasiga kirishi va doimiy yashashi uchun ruxsatnoma;

o‘n yoshga to‘lgan farzandlikka olinuvchining farzandlikka olinishga roziligi, shuningdek, familiyasi, ismi, otasining ismi o‘zgarishiga va farzandlikka oluvchilarni uning ota-onasi sifatida yozilishiga roziligi, O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining [156-moddasida](#) nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosining chet el fuqarosi bo‘lgan yoki O‘zbekiston Respublikasi hududida yashayotgan (turgan) fuqaroligi bo‘lмаган bolani farzandlikka olish xaqidagi arizasiga mazkur bandda ko‘rsatilgan hujjatlardan tashqari bola qonuniy vakilining va bola qaysi davlat fuqarosi bo‘lsa, o‘sha davlat vakolatlari organining roziligi (fuqaroligi bor bo‘lsa) ham ilova qilinadi.

[O‘n uchinchi](#), [o‘n to‘rtinchi](#), [o‘n beshinchi](#), [o‘n yettinchi](#) va [o‘n sakkizinchi xatboshilarida](#) ko‘rsatilan hujjatlari belgilangan tartibda legalizatsiya qilinishi yoxud ularga belgilangan tartibda apostil qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Taqdim etiladigan hujjatlari O‘zbekiston Respublikasining davlat tiliga tarjima qilingan va notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

17. Farzandlikka olinayotgan bolaning O‘zbekiston Respublikasiga kirishi va doimiy yashashiga ruxsatnoma O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlari vazirligi tomonidan beriladi.

Ruxsatnomani olish uchun fuqarolar doimiy yashash joyidagi ichki ishlari organlariga tegishli shakldagi anketa-arizani to‘ldirgan holda murojaat qiladilar.

Arizaga quyidagi hujjatlari ilova qilinadi:

shaxsni tasdiqlovchi hujjat va uning nusxasi;

nikoh to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi (agar nikohda bo‘lsa) yoki nikohda turmasligi haqidagi ma’lumotnomasi;

ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi ko‘rsatilgan yoki boshqa daromad manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotnomasi;

farzandlikka olinayotgan bola bilan qarindoshligini tasdiqlovchi hujjat yoki turli sabablarga ko‘ra o‘z vatanida farzandlikka olishning imkoniyati yo‘qligini tasdiqlovchi hujjat;

farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi yoki bolaning ota-onasi bedarak yo‘qolganligi, vafot etgan deb e’lon qilinganligi to‘g‘risidagi sud qarori;

farzandlikka olinayotgan bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnomasi yozuvidan ko‘chirma.

Tekshiruv natijalariga ko‘ra ichki ishlari organlari so‘rovnama va boshqa hujjatlarni olgan kundan boshlab o‘ttiz ish kuni mobaynida farzandlikka olinayotgan bolaga O‘zbekiston Respublikasiga kirishiga va doimiy yashashiga ruxsat beradi yoki rad etadi.

18. Farzandlikka oluvchi bo‘lish imkoniyati to‘g‘risida xulosa tayyorlash uchun vasiylik va homiylik organlari tegishli hujjatlarni qabul qilingan kundan boshlab 10 ish kuni ichida farzandlikka olishni xohlovchi shaxsning yashash sharoitini o‘rganib chiqladi va dalolatnomada tuzadi. Vasiylik va homiylik organlari tomonidan tuzilgan dalolatnomada boshqa barcha ma’lumotlar bilan bir qatorda farzandlikka olishga to‘sinqil qiluvchi O‘zbekiston Respublikasining Oila kodeksining [152-moddasida](#) ko‘zda tutilgan holatlar bo‘lsa ko‘rsatib o‘tiladi.

Ariza va unga ilova qilingan hujjatlari, shuningdek, bolani farzandlikka olishni xohlagan shaxslarning turmush sharoitlarini o‘rganib chiqish dalolatnomasi asosida vasiylik va homiylik organi ariza berilgan kundan boshlab 30 ish kuni mobaynida ularning farzandlikka oluvchilar bo‘lishi imkoniyati to‘g‘risidagi xulosani tayyorlaydi. Farzandlikka oluvchilar bo‘lishi imkoniyati to‘g‘risidagi xulosa bilan birga ariza beruvchiga u farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo‘yilganligi haqidagi hujjat beriladi.

Vasiylik va homiylik organining fuqaroning farzandlikka olishga nomzod sifatida hisobga qo‘yishning rad etilishi haqidagi asosli xulosa imzolangan kundan boshlab 5 kun muddatda ariza beruvchiga yetkaziladi. Ayni bir vaqtida ariza beruvchiga barcha hujjatlari qaytariladi va qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi tushuntiriladi.

Vasiylik va homiylik organi barcha hujjatlarning nusxalarini o‘ziga olib qoladi va aslini ariza beruvchiga kelgusida sudga taqdim etish uchun qaytarib beradi.

19. Farzand olishga ruxsat olmoqchi bo‘lgan chet elda doimiy yashayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari Oila kodeksining [161¹-moddasida](#) nazarda tutilgan holatlarda O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalariga ariza bilan murojaat qilishlari mumkin. Arizada farzandlikka olishni xohlovchi shaxsning familiysi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, nikohda qachondan beri turganligi, er-xotinning birga yoki alohida yashashi, agar farzandlari bo‘lsa, ularning soni va yoshi, farzandlikka olinayotgan bolaning yoshi va jinsi ko‘rsatiladi.

Arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

shaxsni tasdiqlovchi hujjat va uning nusxasi;

nikoh to‘g‘risidagi guvohnomaning nusxasi (agar nikohda bo‘lsa) yoki nikohda turmasligi haqidagi ma’lumotnama;

er-xotindan biri tomonidan farzandlikka olinayotgan bo‘lsa, boshqasining roziligi (agar er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo‘lsa va arning (xotinning) yashash (turgan) joyi noma’lum bo‘lsa, shuningdek, bu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo‘lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi);

farzandlikka olishni xohlovchi shaxslarning (shaxsning) ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi ko‘rsatilgan yoki boshqa daromad manbalari to‘g‘risidagi ma’lumotnama;

farzandlikka olishni xohlovchi shaxsning sog‘lig‘i holati haqida tibbiy xulosa (psixiatriya, sil kasalligiga qarshi kurash va narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari ma’lumotnomalari);

qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari sudlanmaganligi haqida ichki ishlar organining axborot markazidan olingan ma’lumotnama;

turar joyga bo‘lgan mulk huquqini yoki turar joydan foydalanish huquqini tasdiqlovchi hujjat;

farzandlikka olinayotgan bola bilan qarindoshligini tasdiqlovchi hujjat yoki turli sabablarga ko‘ra o‘z vatanida farzandlikka olishning imkoniyati to‘g‘risidagi xulosa;

farzandlikka olinayotgan bolaning ota-onasi vafot etganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi yoki bolaning ota-onasi bedarak yo‘qolganligi, vafot etgan deb e’lon qilinganligi to‘g‘risidagi sud qarori;

O‘zbekiston Respublikasining vakolatli organi tomonidan farzandlikka oluvchining oilaviy sharoiti va farzandlikka oluvchi bo‘lishi imkoniyati to‘g‘risidagi xulosa;

bolaning fuqaroligi (fuqaroligi mavjud bo‘lsa) bo‘lgan davlat vakolatli organining roziligi;

farzandlikka olinayotgan bolaning tug‘ilganlik to‘g‘risidagi dalolatnama yozuvidan ko‘chirma;

farzandlikka olinayotgan bolaning sog‘ligi, ruhiy va jismoniy rivojlanishini tasdiqlovchi tibbiy xulosa;

O‘zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonasi vakillariga farzandlikka olingan bola haqida axborot berish va bola bilan muloqot qilish imkoniyatini berish to‘g‘risidagi notarial tasdiqlangan majburiyat.

20. O‘zbekiston Respublikasining chet elagi diplomatik vakolatxonalari yoki konsullik muassasalari o‘n ish kuni ichida farzandlikka oluvchilarining yashash sharoitlarini o‘rganib chiqib, mazkur Nizomning [16-bandida](#) ko‘rsatilgan ariza va hujjatlarning nusxalarini keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga taqdim etish uchun Tashqi ishlar vazirligiga yuboradi.

Xalq ta’limi vazirligi farzandlikka olinayotgan bolaga O‘zbekiston Respublikasi xududiga kirish va doimiy yashash uchun ruxsatnoma olish uchun ariza beruvchining hujjatlari nusxalarini Ichki ishlar vazirligiga yuboradi.

Tegishli ruxsat (rad) javobi olingandan keyin Xalq ta’limi vazirligi fuqaroni farzandlikka oluvchi bo‘la olishi (bo‘la olmasligi) xaqida xulosa tayyorlaydi.

Fuqaro farzandlikka oluvchi bo‘la olishi (bo‘la olmasligi) xaqidagi xulosa O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligiga ariza beruvchiga taqdim etish uchun yuboriladi.

6-bob. Farzandlikka olishni rasmiylashtirish va uni sir saqlash

21. Farzandlikka olish to‘g‘risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirgandan keyin o‘n kun ichida fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish organlari farzandlikka olinayotganlarning tug‘ilishi qayd etilgan daftarga zarur o‘zgartirishlar kiritishi lozim.

Agar sud qarorida qayd etilgan bo‘lsa, farzandlikka oluvchilar bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi yozuvlar daftariga uning ota-onasi deb yozilishi kerak. Zarur hollarda bolaning familiyasi, ismi, otasining ismigina emas, balki tug‘ilgan sanasi ham bir yildan ortiq bo‘lmagan farq bilan o‘zgartiriladi.

22. Farzandlikka olingan bolaning tug‘ilganligi to‘g‘risidagi yozuvlar daftariga zarur o‘zgartirishlar kiritilgan kun farzandlikka olishning yuzaga kelgan vaqt hisoblanadi.

23. Farzandlikka olishni sir saqlash qonun bilan himoya qilinadi.

Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish daftaridagi va boshqa hujjatlardagi farzandlikka oluvchilar farzandlikka olinganning otasi emasligini bildiradigan mazmundagi yozuvlar bilan tanishtirish, bu yozuvlardan ko‘chirmalar va boshqa ma’lumotlarni farzandlikka oluvchilarning roziligidiz, ular vafot etgan holda, vasiylik va homiylik organining roziligidiz berish taqiqlanadi.

Farzandlikka oluvchining yoki vasiylik va homiylik organining erkiga xilof ravishda farzandlikka olish sirini oshkor qilgan shaxslar qonun bilan belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

7-bob. Farzandlikka olishning huquqiy oqibatlari

24. Farzandlikka olingan bolalar barcha shaxsiy va mulkiy huquqlarda farzandlikka oluvchining o‘z bolalariga tenglashtiriladi.

Farzandlikka olinganlar va ularning ota-onasi (ota-onasining qarindoshlari) bir-birlariga nisbatan shaxsiy va mulkiy huquqlarini hamda majburiyatlarini yo‘qotadilar.

Agar farzanlikka olayotgan erkak kishi bo‘lsa onasining, agar ayol kishi bo‘lsa otasining iltimosiga ko‘ra bolaning manfaatlaridan kelib chiqib uni farzandlikka bir shaxs tomonidan olinayotgandagi mulkiy va nomulkiy huquq va majburiyatlarini saqlanib qolinishi mumkin.

Agar farzandlikka olinayotgan bolaning otasi yoki onasi vafot etgan bo‘lsa, vafot etgan ota yoki onaning ota-onasining (bobo yoki buvi) iltimosiga ko‘ra vafot etgan ota yoki onasi qarindoshlariga nisbatan shaxsiy mulkiy yoki nomulkiy huquq va majburiyatlarini saqlanib qolishi mumkin.

25. Farzandlikka olinish vaqtida boquvchisini yo‘qotganlik uchun pensiya yoki nafaqa olish huquqiga ega bo‘lgan voyaga yetmaganlar farzandlikka olingan taqdirda ham ana shu huquqni saqlab qoladilar.

8-bob. Farzandlikka olishni bekor qilish uchun asoslar va uning oqibatlari

26. Farzandlikka olish agar farzandlikka oluvchilar:

o‘z zimmalariga yuklangan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlayotgan yoki ularni lozim darajada bajarmayotgan bo‘lsalar;

ota-onalik huquqini suiste’mol qilayotgan bo‘lsalar;

farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo‘lsalar;

muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka mubtalo bo‘lgan bo‘lsalar bekor qilinishi lozim.

Farzandlikka olinuvchi o‘n sakkiz yoshga to‘lgandan keyin uning xulq-atvori farzandlikka oluvchilarning sha’ni va qadr-qimmatiga putur yetkazayotgan, ularning hayoti yoki sog‘lig‘iga xavf solayotgan bo‘lsa, farzandlikka olish sud tartibida bekor qilishiga yo‘l qo‘yiladi.

Sud boshqa asoslarga ko‘ra ham bolaning manfaatlaridan kelib chiqib uning fikrini hisobga olgan holda farzandlikka olishni bekor qilishga haqlidir.

27. Farzandlikka olishni sud tartibida bekor qilishni uning ota-onasi, prokuror, vasiylik va homiylik organlari, voyaga yetmaganlar ishlari bo‘yicha idoralalararo komissiyalar, shuningdek, o‘n olti yoshga to‘lgan farzandlikka olingan bola talab qilish huquqiga ega.

28. Farzandlikka olishni bekor qilishga faqat sud tartibida yo‘l qo‘yiladi. Bu toifadagi ishlarni hal qilishda o‘n yoshga to‘lgan bolaning fikri hisobga olinadi.

Farzandlikka olishni bekor qilish to‘g‘risidagi sudning hal qiluv qarori qonuniy kuchga kirganidan keyin uch kundan kechiktirmay sud shu qarordan ko‘chirmani farzandlikka olingan bola tug‘ilgan joydagi fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organiga yuborishi shart.

29. Sud tomonidan farzandlikka olish bekor qilinganda farzandlikka olingan bola bilan farzandlikka oluvchilarning (farzandlikka oluvchilar qarindoshlarining) o‘zaro huquq va majburiyatlar tugatiladi hamda bola bilan uning ota-onasi (ota-onaning qarindoshlari) o‘rtasidagi huquq va majburiyatlar tiklanadi.

Farzandlikka olish bekor qilinganda, bola sudning hal qiluv qarori bilan ota-onasiga olib beriladi.

Bolaning ota-onasi yo‘q bo‘lsa, shuningdek, agar bolani ota-onasiga berish uning manfaatlariga zid bo‘lsa, bola vasiylik va homiylik organlari qaramog‘iga beriladi.

Sudning hal qiluv qarorida farzandlikka olingan bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi saqlanish-saqlanmasligi ko‘rsatilishi kerak.

O‘n yoshga to‘lgan bolaning familiyasi, ismi va otasining ismi faqat uning roziligi bilan o‘zgartirilishi mumkin.

30. Farzandlikka olingan bolalarning shaxsiy hujjalarning nussxalari farzandlikka olish asosli ekanligi va farzandlikka olinayotgan bolaning manfaatlariga muvofiqligi haqidagi xulosani bergen vasiylik va homiylik organida yetmish besh yil mobaynida saqlanadi.

9-bob. Chet el fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan bolalarni farzandlikka olish

31. O‘zbekiston Respublikasi hududida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolani farzandlikka olishda O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining **151 — 167, 237-moddalari**, Fuqarolik protsessual **kodeksi** hamda ushbu Nizom talablariga rioya qilinishi lozim.

32. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan bolalarni farzandlikka olish O‘zbekiston Respublikasida o‘z diplomatik vakolatxonasi mavjud bo‘lgan davlatlarning fuqarolari tomonidan amalga oshirilishi mumkin.

Farzandlikka olishni istovchi shaxslarni ro‘yxatga olish O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan amalga oshiriladi. Bunday farzandlikka olishning asosiy sharti farzandlikka olish masalasini ko‘rib chiqishda farzandlikka oluvchilarning shaxsan ishtirok etishi, diplomatik vakolatxonaning quyidagi ma‘lumotlarni: farzandlikka bola olishni istovchi fuqarolarning familiyasi, ismi, ota ismini, tug‘ilgan vaqtini, turar joyi, moddiy ahvoli haqidagi ma‘lumotlarni, tibbiy xulosa, oilaning axloqiy-ruhiy shart-sharoiti, shuningdek, farzandlikka oluvchining har biriga tavsifnomalarni o‘z ichiga olgan iltimosnomasi hisoblanadi.

Farzandlikka oluvchilar farzandlikka olingan bolalar balog‘atga yetgunlariga qadar har yili xorijiy davlatlarning tegishli diplomatik vakolatxonalari orqali O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligiga bolaning psixik va jismoniy holati, uning yashash va tarbiyalanish sharoitlari to‘g‘risida axborot taqdim etadilar. Ushbu ma‘lumotlar xorijiy davlatning maxsus vakolatli organi yoki bolalarni farzandlikka olish bo‘yicha tashkilot tomonidan tasdiqlanishi kerak.

33. O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi bo‘lgan va O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida yashayotgan bolani farzandlikka olish farzandlikka oluvchi qaysi davlatning fuqarosi bo‘lsa, o‘sha davlatning vakolatli organi tomonidan amalga oshirilganligi, agar bola yoki uning ota-onasi (ulardan biri) O‘zbekiston Respublikasi hududidan jo‘nab ketishdan oldin O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligining farzandlikka olish to‘g‘risidagi ruxsatini olgan bo‘lsagina, O‘zbekiston Respublikasida haqiqiy deb e’tirof etiladi.

Agar farzandlikka olish natijasida bolaning O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari va xalqaro shartnomalar bilan belgilangan huquqlari buzilsa, farzandlikka oluvchi qaysi davlat fuqarosi bo‘lishidan qat‘i nazar, farzandlikka olishni amalga oshirish mumkin emas, agar farzandlikka olingan bo‘lsa, u sud tartibida bekor qilinishi kerak.

10-bob. O‘zbekiston Respublikasi hududida farzandlikka oluvchilar oilalarida bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini nazorat qilish

34. Farzandlikka olingen bolalarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida farzandlikka olingen bolaning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organi uning turmush sharoitlari va tarbiyalanishini nazorat qiladi.

Hududida bola farzandlikka olingen vasiylik va homiylik organi farzandlikka olish to‘g‘risida sud qarori chiqqandan keyin 10 kun muddatda farzandlikka oluvchi (lar)ning yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga farzandlikka olingen bolaning turmush sharoitlari va tarbiyalanishi ustidan nazoratni amalga oshirish uchun tegishli axborotni yuborishi shart. Ko‘rsatib o‘tilgan ma’lumotlarni berishda farzandlikka olish sir saqlanishi kerak. Uni oshkor qilishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq javob beradilar.

35. Farzandlikka olingen bolaning turmush sharoitlari va tarbiyalanishini nazorat tartibida tekshirish vasiylik va homiylik organi vakillari tomonidan, farzandlikka olish belgilangandan dastlabki 3 yil mobaynida har yili o‘tkaziladi. 3 yil o‘tgandan keyin nazorat tartibida tekshirish o‘tkazish zarurligi vasiylik va homiylik organi tomonidan farzandlikka oluvchi (lar) oilasida shakllanayotgan aniq vaziyatga muvofiq yakka tartibda belgilanadi. Farzandlikka olingen bolaning turmush sharoitlari va tarbiyalanishini nazorat tartibida tekshirish farzandlikka olish sir saqlangan holda o‘tkaziladi.

36. Nazorat tartibida tekshirish natijalari bo‘yicha oilani borib ko‘rgan vasiylik va homiylik organi vakili farzandlikka olingen bolaning turmush sharoitlari va tarbiyalanishi to‘g‘risida hisobot tuzadi. Hisobotda bolaning sog‘lig‘i, o‘qishi, uning ruhiy va xulq-atvor jihatdan kamol topishi, o‘ziga o‘zi xizmat qilish ko‘nikmalari, tashqi ko‘rinishi va oiladagi o‘zaro munosabatlар to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks ettirilishi kerak.

11-bob. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat)

37. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish O‘zbekiston Respublikasining Oila [kodeksi](#) va ushbu Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Farzandlikka olgan oila ota-onalar qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash shakllaridan biri hisoblanadi. Ota-onalar qarovisiz qolgan bolani (bolalarni) tarbiya qilish uchun olishni istaydigan fuqarolar (er-xotin yoki alohida fuqarolar) tutingan ota-onalar deb ataladi, ushbu oila esa farzandlikka olgan oila hisoblanadi.

38. Ota-onsa qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan bolalar, shu jumladan, tarbiya va davolash muassasalarida, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalaridagi bolalar oilaga tarbiyaga beriladi.

Farzandlikka olgan oiladagi bolalarning umumiyl soni, o‘z bolalari va farzandlikka olingen bolalar bilan birlgilikda, qoidaga ko‘ra, 8 nafardan oshmasligi kerak.

39. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish ixtiyoriy bo‘lib, u vasiylik va homiylik organlari bilan bolani olish istagini bildirgan shaxslar o‘rtasida tuzilgan maxsus shartnomaga amalga oshiriladi.

12-bob. Farzandlikka olgan oilani tashkil etish tartibi

40. Voyaga yetgan har ikki jinsdagi shaxslar tutingan ota-onsa bo‘lishlari mumkin, quyidagilar bundan mustasno:

sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb e’tirof etilgan shaxslar;

sud tomonidan ota-onalik huquqidan mahrum qilingan yoki ota-onalik huquqi cheklangan deb e’tirof etilgan shaxslar;

qonun bilan o‘z zimmasiga yuklangan majburiyatlarni lozim darajada bajarmaganli uchun vasiylik yoki homiylik vazifalarini bajarishdan chetlashtirilgan shaxslar;

o‘z zimmalariga yuklangan majburiyatlarni bajarishdan bo‘yin tovlaganligi yoki ularni lozim darajada bajarmaganligi, ota-onalik huquqini suiiste’mol qilganligi, farzandlikka olinuvchilarga nisbatan shafqatsizlik bilan muomalada bo‘lganliklari, shuningdek, muttasil ichkilikbozlikka yoki giyohvandlikka mutbalo bo‘lganliklari uchun farzandlikka olish sud tomonidan bekor qilingan bo‘lsa, ilgari farzandlikka bola olgan shaxslar;

qasddan qilingan jinoyatlari uchun ilgari hukm qilingan shaxslar;

sog‘lig‘ining yomonligi tufayli bola tarbiyalash majburiyatini bajara olmaydigan shaxslar.

Qaysi kasallikka chalingan taqdirda bolani tarbiyaga olish taqiqlanadigan kasalliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Sog'lijni saqlash vazirligi tomonidan belgilanadi.

41. Bolani (bolalarni) farzandlikka olishni xohlovchi shaxslar o'z yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga tutingan ota-onalar sifatida hisobga qo'yish to'g'risidagi iltimos bildirilgan arizani beradilar.

Arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

nikoh to'g'risidagi guvohnomaning nusxasi (agar nikohda bo'lsa) yoki nikohda turmasligi haqidagi ma'lumotnomasi;

er-xotindan biri tomonidan farzandlikka olinayotgan bo'lsa, boshqasining roziligi (agar er-xotin oilaviy munosabatlarni tugatgan, bir yildan ortiq birga yashamayotgan bo'lsa va arning (xotinning) yashash (turgan) joyi noma'lum bo'lsa, shuningdek, bu holatlarni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa, farzandlikka olishda uning roziligi talab qilinmaydi);

ish joyidan egallab turgan lavozimi va ish haqi ko'rsatilgan yoki boshqa daromad manbalari to'g'risidagi ma'lumotnomasi;

farzandlikka olishni xohlovchi shaxsning sog'lig'i holati haqida tibbiy xulosa (psixiatriya, sil kasalligiga qarshi kurash va narkologiya muassasalari, teri-tanosil kasalliklari ma'lumotnomalari);

qasddan sodir etgan jinoyati uchun ilgari sudlanmaganligi haqida ichki ishlar organining axborot markazidan olingan ma'lumotnomasi;

sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq bo'lgan mulk huquqidagi, ijara (ijaraga olish) shartlaridagi yoki boshqa asoslardagi uy-joy mavjudligini tasdiqlaydigan hujjat.

Ariza berishda shaxsni tasdiqlaydigan hujjat ko'rsatiladi.

Vasiylik va homiylik organi ariza berilgan kundan boshlab 10 ish kuni mobaynida oilaning turmush sharoitlarini, bolalarni tarbiyaga olishni istaganlarning moddiy ta'minlanganlik holatini tekshiradi, tekshirish dalolatnomasini tuzadi va tekshirish dalolatnomasi asosida ularni hisobga qo'yadi. Hisobga qo'yish yoki hisobga qo'yishni rad etish to'g'risidagi qaror ariza beruvchilar e'tiboriga qaror qabul qilingan kunidan boshlab 5 kun muddatda yetkaziladi. Hisobga qo'yish rad etilgan taqdirda ariza beruvchiga barcha hujjatlar qaytariladi va qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi tushuntiriladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan hisobda turgan shaxs vasiylik va homiylik organlari bilan kelishgan holda vasiylik va homiylik organlarida hisobda turgan va ota-onalar qarovisiz qolgan, shu jumladan, tarbiyalash va davolash muassasalaridagi, shuningdek, aholini ijtimoiy muhofaza qilish muassasalaridagi voyaga yetmagan bolalarning dastlabki tanlab olinishini amalga oshiradi;

42. Tutingan ota-onalarni tanlash vasiylik va homiylik organlari tomonidan amalga oshiriladi.

43. Bolalarni oilaga tarbiyaga berish ularning xohishini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. O'n yoshga to'lgan bolalarni faqat ularning roziligi bilan oilaga tarbiyaga berish mumkin.

O'zaro qarindosh bo'lgan bolalar, qoidaga ko'ra, bitta oilaga beriladi, tibbiy ko'rsatkichlar bo'yicha yoki boshqa sabablarga ko'ra ular birga tarbiyalanishi mumkin bo'limgan hollar bundan mustasno.

13-bob. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuv

44. Bolalarni farzandlikka oladigan oilaga tarbiyalash uchun berish ushbu Nizomga 1-[ilovaga](#) muvofiq tasdiqlangan namunaviy bitim asosida amalga oshiriladi. Bolalarni tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish to'g'risidagi bitim vasiylik va homiylik organlari bilan tutingan ota-onalar o'rtaida tuziladi.

45. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to'g'risidagi kelishuvda tutingan ota-onalar to'g'risida ma'lumotlar (yashash joyi, pasporti, oilaviy sharoiti), bolani ta'minlash sharoitlari, bolalarni tarbiyalash va ularga ta'lim berish, tutingan ota-onalarning huquq va majburiyatları, vasiylik va homiylik organlarining tutingan oilaga nisbatan majburiyatları, shuningdek, bunday kelishuvni bekor qilish asoslari va oqibatlari ko'rsatilishi kerak.

46. Vasiylik va homiylik organi tutingan ota-onalar bilan kelishuv tuzilishigacha bolani tarbiyaga olayotgan oilaning turmush sharoitlarini o'rganib chiqishi va ushbu oila a'zolari sog'lig'ining ahvoli haqida ma'lumotlar to'plashi shart.

14-bob. Tarbiyaga berilgan bolalarning moddiy ta'minoti

47. Vasiylik va homiylik organlari oilaga tarbiyalash (patronat) uchun berilgan bolalarni ushbu Nizomga **2-lovoga** muvofiq har yili bir marta kiyim-bosh, poyabzal hamda bolani o'z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarni qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda har oyda nafaqa bilan ta'minlaydilar.

48. Tutingan ota-onaga homiylar, tashkilotlar, idoralar, ayrim shaxslar tomonidan bolalarni tarbiyalash maqsadida turli moddiy va ma'naviy yordam berilishi ham mumkin.

15-bob. Bolalarni tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuvning bekor qilinishi

49. Bolalarni tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuv muddatidan oldin quyidagi sabablar bo‘lganda tutingan ota-onaning tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin:

kasalligi;

oilaviy yoki mulkiy mavqening o‘zgarishi;

bolalar bilan o‘zaro bir-birini tushunmaslik va boshqalar.

Bolalarni tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuv vasiylik va homiylik organining tashabbusi bilan yoki bolalar ota-onalarga qaytarilgan yoxud ular farzandlikka olinganda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin.

50. Bolalarni oilaga tarbiyaga olish to‘g‘risidagi kelishuvlarni to‘xtatish to‘g‘risidagi nizolar sud tartibida hal qilinadi.

16-bob. Oilaga tarbiyaga olingen bolalarning huquqlari

51. Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar:

o‘zlariga tegishli bo‘lgan aliment, shuningdek, pensiya, nafaqa va boshqa ijtimoiy to‘lovlarni olish;

uy-joyga bo‘lgan mulk egaligi yoki uy-joydan foydalanish huquqini;

qonun hujjatlariga muvofiq uy-joy olish huquqlarini saqlab qoladilar.

Farzandlikka oladigan oilaga tarbiyalash (patronat) uchun berilgan bolalarga qonun hujjatlarida ota-onalar qarovisiz qolgan bolalar uchun nazarda tutilgan barcha imtiyozlar tatbiq etiladi.

52. Oilaga tarbiyaga berilgan bolalar o‘z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ota-onasi va qarindoshlari bilan ko‘rishish huquqiga ham egadirlar.

53. Oilada o‘z manfaatiga daxldor har qanday masala hal qilinayotganida bola o‘z fikrini bildirishga haqlidir.

17-bob. Tutingan ota-onaning huquq va majburiyatları

54. Tutingan ota-onal tarbiyaga olingen bolaga nisbatan vasiy huquqlari va majburiyatlariga egadirlar, ya’ni o‘z qaramog‘idagi shaxslarning qonuniy vakillari hisoblanadilar va ular nomidan hamda ularning manfaatlarini ko‘zlab barcha zarur bitimlarni tuzadilar. Ular o‘z qaramog‘idagi shaxslarga o‘z huquqlarini amalga oshirishda va majburiyatlarini bajarishda ko‘maklashadilar, shuningdek, ularning huquqlari uchinchi shaxslar tomonidan suiiste’mol etilishidan himoya qiladilar.

55. Bolalarni tarbiyaga olgan shaxslar o‘z huquqlaridan g‘arazgo‘ylik yoki boshqa niyatlarda, tarbiyasidagi bolalarga zarar keltirgan holda foydalansalar, shuningdek, ularni nazoratsiz hamda zarur moddiy yordamsiz qoldirsalar, vasiylik va homiylik organlari bolalarni tarbiyaga olgan shaxslarni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo‘zg‘atishga haqlidir.

56. Vasiylik va homiylik organlari oilaga tarbiyaga berilgan bolalarning turmush sharoitlarini va ularning tarbiyalanishini kuzatib boradilar.

Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to‘g‘risidagi **nizomga 1-ILOVA**

**Bolalarni tarbiyalash uchun oilaga qabul qilish to‘g‘risida
NAMUNAVIY BITIM**

20__ y. “__” ____

_____-son _____ tumani (shahri)

_____ tumani (shahar) xalq ta’limi bo‘limi nomidan nizom

(tuman (shahar) nomi)

asosida faoliyat yurituvchi bo‘lim mudiri _____ (bundan

♦♦(familiyasi, ismi va otasining ismi)

buyon matnda Vasiylik va homiylik organi deb yuritiladi) bir tomondan,
fuqaro(lar)_____

(er-xotin yoki alohida fuqaroning familiyasi, ismi va otasining ismi)

(yashash manzili)

(pasport seriyasi, raqami, qachon va kim tomonidan berilgan)

(oilaviy sharoitining qisqacha tavsifi)

(bundan buyon matnda Tutingan ota-onalar deb yuritiladi) ikkinchi tomondan, bиргаликда Tomonlar deb yuritiladi, mazkur Bitimni quyidagilar haqida tuzdilar:

1-bob. Bitim predmeti

1. Vasiylik va homiylik organi ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan voyaga yetmagan 20____ yil “___” _____ da tug‘ilgan_____

(voyaga yetmaganning familiyasi, ismi va otasining ismi)

ning (bundan buyon matnda Tutingan bola deb yuritiladi) huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’milagan holda Tutingan ota-onalarga tarbiyalash uchun topshirish majburiyatini, Tutingan ota-onalar esa mazkur Bitim shartlariga asosan Tutingan bolaning barcha huquqlarini ta’milagan holda tarbiyalash uchun oilaga qabul qili♦ olish majburiyatini oladi.

2-bob. Umumiy shartlar

2. Tutingan bolani oilaga tarbiyaga olish (patronat) amaldagi nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.
3. Tutingan ota-onalar tomonidan Tutingan bolani oilaga tarbiyaga olish ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirish shakllaridan biri hisoblanadi.

3-bob. Tomonlarning huquqlari va majburiyatları

4. Vasiylik va homiylik organi quyidagi huquqlarga ega:

- a) mazkur Bitimning 16-bandida belgilangan asoslar mayjud bo‘lganda uni muddatidan oldin bekor qilish;
- b) Tutingan bolaning manfaatlari yo‘lida istalgan vaqtida bolaning sog‘lig‘i, ta’lim-tarbiyasi va turmush sharoitini borib o‘rganish;
- v) Tutingan ota-onalardan o‘z majburiyatlarining bajarilishi to‘g‘risida hamda Tutingan bola uchun sotib olingan kiyim-bosh va poyabzal bo‘yicha hisobotlarni qabul qilish;
- g) Tutingan ota-onalar o‘z huquqlaridan g‘arazgo‘ylik yoki boshqa niyatlarda, Tutingan bolaga zarar keltirgan holda foydalansalar, shuningdek, uni nazoratsiz hamda zarur moddiy yordamsiz qoldirsalar, ularni qonunda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish masalasini qo‘zg‘atish;
- d) mazkur Bitim bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar yuzasidan sudda ishtirop etish.

5. Vasiylik va homiylik organining majburiyatları:

- a) bir yilda kamida ikki marta Tutingan bolaning turmush sharoitlarini va tarbiyalanishini borib o‘rganish;
- b) Tutingan ota-onalarni sog‘lig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yangilash lozimligi haqida joriy yil tugashidan bir oy oldin ogohlantirish;
- v) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Tutingan bolani har yili bir marta kiyim-bosh va poyabzal bilan ta’minalash va Tutingan ota-onalarga har oyda nafaqa to‘lab borish choralarini ko‘rish;
- g) mazkur Bitim tuzilayotganda Tutingan ota-onalarga oilaga tarbiyalash uchun berilgan bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta’minalash hamda ularga belgilangan tartibda har oylik nafaqa to‘lash tartiblarini tushuntirish.

6. Tutingan ota-onalar quyidagi huquqlarga ega:

- a) mazkur Bitimning 15-bandida ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan hollarda uni muddatidan oldin bekor qilish yuzasidan Vasiylik va homiylik organiga murojaat qilish;
- b) Tutingan bolaga nisbatan vasiy (homiy) huquqlariga ega bo‘lish;
- v) Tutingan bola nomidan hamda uning manfaatlarini ko‘zlab qonun hujjatlari talablariga zid bo‘lmagan barcha zarur bitimlarni tuzish;
- g) Tutingan bolaga kiyim-bosh va poyabzal sotib olish uchun ajratilgan mablag‘larni naqd pul shaklida yoki bank plastik kartasiga pul o‘tkazish yo‘li bilan olish;
- d) Tutingan bolaning manfaatlari yo‘lida sarflash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida har oylik nafaqa olish.

7. Tutingan ota-onalarning majburiyatları:

- a) Tutingan bolaga nisbatan vasiy (homiy) majburiyatlarini bajarish;
 - b) qonuniy vakil sifatida Tutingan bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, unga o‘z huquqlarini amalga oshirishda ko‘malkashish va shart-sharoitlar yaratib berish;
 - v) Tutingan bolani keyingi yil uchun zarur bo‘lgan kiyim-bosh va poyabzal bilan ta’minlash maqsadida joriy yilning 15-dekabrigacha Vasiylik va homiylik organiga buyurtma taqdim etish;
 - g) o‘z majburiyatlarining bajarilishi to‘g‘risida hamda Tutingan bola uchun sotib olingen kiyim-bosh va poyabzal bo‘yicha hisobotlarni har yili 10-yanvargacha Vasiylik va homiylik organiga taqdim etish;
 - d) Tutingan bola uchun sotib olingen kiyim-bosh va poyabzal bo‘yicha hisobot bilan birga mazkur mahsulotlarning sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (kassa cheki yoxud tovarga haq to‘langanligini tasdiqlaydigan chekka tenglashtirilgan hujjat) taqdim etish;
 - e) o‘zining sog‘lig‘i to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har yili 10-yanvargacha Vasiylik va homiylik organiga taqdim etish.
8. Tomonlar qonun hujjatlari muvofiq boshqa huquqlar va majburiyatlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

4-bob. Tutingan bolani ta’minlash, tarbiyalash va ♦a’lim berish

- 9. Tutingan bolani ta’minlash, tarbiyalash va uning ta’lim olishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish Tutingan ota-onalar tomonidan amalga oshiriladi.
- 10. Tutingan bola tarbiyalanayotgan oiladagi bolalarning umumiyligi soni, o‘z bolalari va Tutingan bolalar bilan birgalikda, qoida tariqasida, 8 nafardan oshmasligi kerak.
- 11. Oilaga tarbiyalash uchun berilgan (patronat) bolalar har yili bir marta kiyim-bosh, poyabzal bilan ta’minlanadi. Tutingan ota-onalarga Tutingan bolaning manfaatlari yo‘lida sarflash uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida har oylik nafaqa to‘lanadi.
- 12. Tutingan ota-onalar Tutingan bolaning ta’minoti, unga ta’lim-tarbiya berish va uning sog‘lig‘ini saqlash bo‘yicha tegishli davlat organlari va muassasalaridan huquqiy, metodik, diagnostika va maslahat yordami olishi mumkin.
- 13. Tutingan ota-onalar Tutingan bolaning ta’lim olishi uchun barcha zarur shart-sharoitlarni ta’minlaydi.
- 14. Tutingan ota-onalar Tutingan bolaning sog‘lig‘i, jismoniy, ruhiy, ma’naviy va axloqiy kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qiladi.

5-bob. Bitimni bekor qilish asoslari va oqibatlari

- 15. Bitim quyidagi hollarda muddatidan oldin bekor qilinishi mumkin:
uzrli sabablar (kasalligi, oilaviy yoki mulkiy mavqeyining o‘zgarishi, Tutingan bola bilan o‘zaro bir-birini tushunmaslik va boshqa sabablar) mavjud bo‘lsa, Tutingan ota-onalarga tashabbusi bilan;
Vasiylik va homiylik organining tashabbusi bilan;
Tutingan bola ota-onasiga qaytarilganda;
Tutingan bola farzandlikka olinganda.
- 16. Mazkur Bitim quyidagi hollarda Vasiylik va homiylik organining tashabbusi bilan bekor qilinishi mumkin:
Tutingan ota-onalarga bundan keyin Tutingan ota-onalarga vazifasini bajarishiga to‘sqinlik qiluvchi holatlar paydo bo‘lsa;
Tutingan bolaning turmush sharoitlarini va tarbiyalanishini kuzatib borish jarayonida Tutingan ota-onalarga mazkur Bitim shartlariga rio♦ qilmayotganligi aniqlansa.
- 17. Mazkur Bitim Tutingan ota-onalarga tashabbusi bilan bekor qilish ularning arizasi asosida uch kun ichida Vasiylik va homiylik organi rahbarining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.
- 18. Mazkur Bitimning 15-bandini uchinchi — beshinchini xatboshtilarida nazarda tutilgan hollarda Bitimni bekor qilish Tutingan ota-onalarni kamida bir hafta oldin yozma ravishda ogohlantirgan holda Vasiylik va homiylik organi rahbarining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.
- 19. Mazkur Bitim bekor qilingan kundan boshlab Tutingan ota-onalarga tashabbusi bilan bekor qilish ularning arizasi asosida uch kun ichida Vasiylik va homiylik organi rahbarining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.
- 20. Mazkur Bitimning 15-bandini ikkinchi va uchinchi xatboshtilarida nazarda tutilgan asoslarga ko‘ra bekor qilingan hollarda Vasiylik va homiylik organi Tutingan bolaning qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda uni joylashtirish choralarini ko‘radi.

6-bob. Nizolarni hal qilish

- 21. Tutingan ota-onalarga Vasiylik va homiylik organining mazkur Bitimni tuzish, ijro etish, o‘zgartirish va bekor qilish bo‘yicha xatti-harakatlari (qarorlari) ustidan qonun hujjatlari belgilangan tartibda yuqori turuvchi organga yoki sudga shikoyat qilishga haqli.
- 22. Vasiylik va homiylik organi Tutingan bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari yuzasidan qonun hujjatlari belgilangan tartibda ariza bilan sudga murojaat qilishga haqli.

7-bob. Yakunlovchi qoidalar

- 23. Mazkur Bitim imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va Tutingan bola o‘n sakkiz yoshga to‘lguniga qadar amal qiladi.

24. Mazkur Bitimga qonun hujjatlariga o'zgartirish kiritilishi munosabati bilan va/yoki Tomonlarning kelishuviga muvofiq yozma shaklda o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin. Bitimning qonun hujjatlari asosida belgilangan shartlari o'zgartirilishi mumkin emas.
25. Mazkur Bitimda ko'rsatilgan majburiyatlarni bajarmaganligi uchun Tomonlar qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladi.
26. Mazkur Bitim ikki nusxada tuzildi, Vasiylik va homiylik organi hamda Tutingan ota-onalarda bir nusxadan saqlanadi.

8-bob. Tomonlarning yuridik manzillari va boshqa rekvizitlari

Tutingan ota-onalar

Yashash manzili: _____

Pasport ma'lumotlari: _____

Vasiylik va homiylik organi

Yuridik manzili: _____

Bank rekvizitlari: _____

MFO: _____

STR: _____

(F.I.O.) _____

(rahbarning F.I.O.)

_____ (imzo)

_____ (imzo, muhr)

Voyaga yetmagan bolalarni farzandlikka va bolalarni oilaga tarbiyaga olish (patronat) to'g'risidagi nizomga
2-ILOVA

Oilaga tarbiyalash uchun berilgan (patronat) bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta'minlash hamda bolani o'z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to'lash

TARTIBI

1. Tutingan ota-onalar oilaga tarbiyaga olingen bolani joriy yil uchun zarur bo'lgan kiyim-bosh va poyabzal bilan ta'minlash maqsadida bola oilaga tarbiyaga olingen kundan boshlab bir hafta muddat ichida, keyingi yil uchun esa, joriy yilning 15-dekabrigacha mazkur Tartibga **1-ilovaga** muvofiq shaklda tuzilgan buyurtmani (keyingi o'rirlarda — buyurtma) tegishli tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlariga beradi. Buyurtmada bolaning familiyasi, ismi, otasining ismi, yoshi, jinsi, mazkur Tartibga **2-ilovada** keltirilgan norma va ro'yxatga asosan kelgusi mavsumlarni hisobga olgan holda zarur bo'lgan barcha kiyim-bosh va poyabzal (ularning turi (nomi), soni, o'chami) va ularning bozor konyunkturasidan kelib chiqqan holda o'rtacha narxi to'liq ko'rsatiladi.

2. Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari joriy yil uchun taqdim etilgan buyurtmalarni qabul qilib olgan kundan boshlab uch kun ichida, keyingi yil uchun taqdim etilgan buyurtmalarni esa, joriy yilning 25-dekabrigacha Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalariga (keyingi o'rirlarda — xalq ta'limi boshqarmalari) topshirishi lozim.

3. Kiyim-bosh va poyabzal uchun qilinadigan xarajatlar miqdori tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlari taqdim etgan buyurtmaga muvofiq xalq ta'limi boshqarmalarining Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari bilan kelishilgan hisob-kitoblari asosida belgilanadi.

4. Bolalarga beriladigan kiyim-bosh va poyabzal uchun zarur mablag' bolaning qaysi tarbiya yoki davolash muassasalari yoxud aholini ijtimoiy himoyalash muassasalaridan olinishidan qat'i nazar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining tegishli qarorlari asosida Qoraqalpog'iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan ajratiladi va xalq ta'limi boshqarmalari orqali beriladi.

5. Oilaga tarbiyaga olingen bola uchun kiyim-bosh va poyabzal sotib olishga ajratilgan mablag'lar tutingan ota-onalarga naqd pul shaklida yoki ularning bank plastik kartasiga pul o'tkazish yo'li bilan beriladi.

6. Tarbiyalash uchun oilalarga beriladigan yetim bolalarga kiyim-bosh va poyabzal sotib olish uchun ajratilgan mablag‘lardan boshqa maqsadlarda foydalanish taqiqlanadi.

7. Tarbiyaga olingan bolaga zarur kiyim-bosh va poyabzal sotib olish uchun ajratilgan mablag‘lar tutingan ota-onalarga ular tomonidan taqdim etilgan buyurtmaga asosan bola tarbiyaga olingan kundan boshlab bir oy muddat ichida beriladi.

8. Tutingan ota-onalar oilaga tarbiyaga olingan bola uchun sotib olingan kiyim-bosh va poyabzal bo‘yicha hisobotni mazkur Tartibga **3- ilovaga** muvofiq shaklda tayyorlaydi va uni har yilning 10-yanvarigacha tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlariga taqdim etadi. Bunda hisobotga kiyim-bosh va poyabzalni sotib olganligini tasdiqlovchi hujjatlar (kassa cheki yoxud tovarga haq to‘langanligini tasdiqlaydigan chekka tenglashtirilgan hujjat) ilova qilinadi.

Hisobotlar tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlari tomonidan tasdiqlanib, tegishli xalq ta’limi boshqarmalariga yuboriladi.

9. Davlatga qarashli bolalar muassasalarida tarbiyalanayotgan bola tarbiyalash (patronat) uchun oilaga berilganda muassasaning xarajatlar smetasi shu vaqtidan boshlab ushbu bolaga sarflanadigan xarajatlar miqdorida qisqartiriladi.

10. Bolaning qaysi tarbiya yoki davolash muassasalari yoxud aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalaridan olinishidan qat‘i nazar, tutingan ota-onalarga o‘z tarbiyasiga olgan har bir bola uchun bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida har oylik nafaqa to‘lanadi. Mazkur xarajatlar uchun sarflanishi ko‘zda tutilgan mablag‘lar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining qarori asosida xalq ta’limi boshqarmalari orqali beriladi.

11. Tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash hamda bolalarni kiyim-bosh va poyabzal bilan ta’minalash xarajatlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalari tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budgetining, viloyatlar viloyat budgetlarining va Toshkent shahri shahar budgetining zaxira jamg‘armalaridan budget tizimi budgetlari xarajatlar tasnifining tegishli moddasi bo‘yicha mablag‘ bilan ta’minaladi va buxgalteriya hisobida ham shu modda bo‘yicha aks ettiriladi.

12. Xalq ta’limi boshqarmalari tomonidan har oyning 10-kunigacha tutingan ota-onalarga oylik nafaqalar naqd pul shaklida yoki ularning bank plastik kartasiga pul o‘tkazish yo‘li bilan beriladi.

13. Bola uchun sotib olingan kiyim-bosh va poyabzal xarajatlari hisoboti, shuningdek, tutingan ota-onalarga har oylik nafaqalar berilgani haqidagi hisobotlar xalq ta’limi boshqarmalari tomonidan qonunchilikda belgilangan muddatlarda mablag‘larni ajratgan tegishli moliya organlariga topshiriladi.

14. Kiyim-bosh va poyabzal xarajatlari hamda tutingan ota-onalarga har oylik nafaqalar uchun ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish bo‘yicha javobgarlik xalq ta’limi boshqarmalari rahbarlari zimmasiga yuklatiladi.

15. Bolalarni kiyim-bosh va poyabzal bilan ta’minalash uchun ajratilgan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi hamda sarflanishini nazorat qilish ushbu xarajatlarni moliyalashtiruvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining moliya boshqarmalariga yuklatiladi.

16. Ushbu Tartibning matni belgilangan tartibda tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limlarida, shuningdek, tarbiya va davolash muassasalari hamda aholini ijtimoiy himoya qilish muassasalarida barchaga ko‘rinadigan joyga osib qo‘yilishi lozim.

Bolani oilaga tarbiyaga olayotgan tutingan ota-onalar bilan shartnomal tuzilayotganda ularga mazkur Tartib talablari tushuntirilishi shart.

Oilaga tarbiyalash uchun berilgan (patronat) bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta’minalash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash tartibiga

1-ILOVA

**Oilaga tarbiyaga olingan bolaga kiyim-bosh va poyabzal olish uchun
BUYuRTMA**

(oilaga tarbiyaga olingan bolaning F.I.O.)
 _____ (bolaning
 yoshi)
 _____ (bolaning
 jinsi)

| T/r | Kiyim-bosh va poyabzalning nomi | Soni (dona, juft, komplekt) | Kiyim-bosh va poyabzalning o'chami | Kiyim-bosh va poyabzalning o'rtacha narxi |
|-----|---------------------------------|-----------------------------|------------------------------------|-------------------------------------------|
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |

Tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limi mudiri

(F.I.O.)

(imzo)

(tutingan ota (ona)ning F.I.O.)

(imzo)

M.O'.

20 ____ yil "___" _____

20 ____ yil "___" _____

Manzil: _____

Manzil: _____

Bank nomi: _____
 Hisob varaq raqami: _____

Oilaga tarbiyalash uchun berilgan (patronat) bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta'minlash hamda bolani o'z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to'lash tartibiga

2-ILOVA

Oilaga tarbiyaga olingan bolaga kiyim-bosh va poyabzal berish

NORMASI VA RO'YXATI

| T/r | Kiyim-bosh va poyabzalning turi (nomi) | O'ichov birligi | 3 yoshgacha bo'lgan har bir bolaga | | Maktabgacha yoshdagi har bir bolaga (3 — 6 (7) yosh) | | Maktab yoshidagi har bir bolaga (6 (7) — 18 yosh) | |
|-----|-------------------------------------------------------------------------|-----------------|------------------------------------|---------------------------|------------------------------------------------------|---------------------------|---------------------------------------------------|---------------------------|
| | | | soni | foydalinish muddati (yil) | soni | foydalinish muddati (yil) | soni | foydalinish muddati (yil) |
| 1. | Kurtka-kombinezon | Dona | 1 | 2 | — | — | — | — |
| 2. | Kurtka | Dona | — | — | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 3. | Palto | Dona | — | — | — | — | 1 | 2 |
| 4. | O'g'il bolalar kostyumi | Dona | 1 | 2 | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 5. | Maktab formasi (o'g'il bola uchun qora shim, oq ko'yvak, qiz bola uchun | Komplekt | — | — | — | — | 1 | 1 |

| | | | | | | | | |
|-----|------------------------------------------------------------|----------|---|---|---|---|---|---|
| | kofta va yubka) | | | | | | | |
| 6. | O‘g‘il bolalar ko‘ylagi | Dona | 2 | 1 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 7. | Qiz bolalar ko‘ylagi (shoyi va ip gazlama bluzka) | Dona | 2 | 1 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 8. | Qiz bolalar xalati | Dona | — | — | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 9. | Sviter (Djemper) | Dona | — | — | 1 | 2 | 1 | 2 |
| 10. | Yozgi bayram ko‘ylagi | Dona | — | — | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 11. | Qishki bosh kiyim | Dona | — | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 12. | Qiz bolalar trikosi | Dona | — | — | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 13. | Kolgotka | Dona | 2 | 1 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 14. | Ichki kiyim to‘plami (o‘g‘il va qiz bolalar uchun) | Dona | 2 | 1 | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 15. | Sport kostyumi | Komplekt | — | — | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 16. | Keda yoki krossovka | Juft | — | — | — | — | 1 | 1 |
| 17. | Paypoq, golf | Juft | — | — | 2 | 1 | 2 | 1 |
| 18. | Tuflı, sandalet | Juft | — | — | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 19. | Tapochka | Juft | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 20. | Etik yoki botinka | Juft | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 |
| 21. | Qiz bolalar uchun siynaband | Dona | — | — | — | — | 1 | 1 |

Oilaga tarbiyalash uchun berilgan (patronat) bolalarni kiyim-bosh, poyabzal bilan ta’minlash hamda bolani o‘z tarbiyasiga olgan tutingan ota-onalarga har oylik nafaqa to‘lash **tartibiga**

3-ILOVA

“T A S D I Q L A Y M A N”

(tuman (shahar) xalq ta’limi bo‘limi mudirining F.I.O.) _____

(imzo)

20__ yil “___” _____

Oilaga tarbiyaga olingan bola uchun 20__ yilda sotib olingan kiyim-bosh va poyabzal bo‘yicha **HISOBOT**

Men, _____, 20__ yil “___” _____ da

(tutingan ota (ona)ning F.I.O.)

bilan tuzilgan

(vasiylik va homiylik organining nomi)

_____ -sonli shartnomaga asosan voyaga yetmagan _____ ni

(oilaga tarbiyaga olingan bolaning F.I.O.)

oilaga tarbiyaga olganman.

Hisobot davrida tarbiyamda bo‘lgan _____ uchun

(oilaga tarbiyaga olingan bolaning F.I.O.)

quyidagi kiyim-bosh va poyabzallarni sotib oldim.

| T/r | Kiyim-bosh va poyabzalning turi (nomi) | Soni (dona, juft, komplekt) | Olingen kiyim-bosh va poyabzalning narxi (so‘m) |
|-----|----------------------------------------|-----------------------------|-------------------------------------------------|
| 1. | | | |
| 2. | | | |
| 3. | | | |

Kiyim-bosh va poyabzal sotib olinganligini tasdiqlovchi hujjatlar (kassa cheki yoxud tovarga haq to‘langanligini tasdiqlaydigan cheklar tenglashtirilgan hujjatlar) ilova qil?nmoqda.

(tutingan ota (ona)ning F.I.O.)

(imzo)

(sana)

Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-sod qaroriga
5-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va qo‘sishchalar

1. Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 2-avgustdagagi 164-sod qarori (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2010-yil, 31-sod, 260-modda) bilan tasdiqlangan Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni turar joylar bilan ta’minlash tartibi to‘g‘risidagi **nizomda**:

a) **16-bandagi** “aniqlash va dastlabki joylashtirish” so‘zлari “tuman (shahar) hokimligiga (agar bolaning yashash (doimiy propiska qilingan) joyi o‘zgargan bo‘lsa o‘sha” so‘zлari bilan almashtirilsin;

b) **34-bandga** quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi qo‘silsin:

“Tuman (shahar) hokimi tomonidan berilgan orderga asosan yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar turar joy joylashgan manzilga, ijara shartnomasida belgilangan muddatga tuman (shahar) ichki ishlar boshqarmasi (bo‘limi)ning xorijga chiqish-kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo‘limi tomonidan propiska qilinadilar”.

2. Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 22-sentabrdagi 269-sod qarori (O‘zbekiston Respublikasi QHT, 2014-yil, 39-sod, 490-modda) bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasida vasiylik va homiylik to‘g‘risidagi **nizomda**:

a) **23-bandga** quyidagi mazmundagi ikkinchi xatboshi qo‘silsin:

“bolani farzandlikka va oilaga tarbiyaga olish (patronat) istagini bildirgan shaxslarni har tomonlama o‘rganadi va o‘rganish natijasida potensial ota-onalarni aniqlaydi”;

b) 53-bandning **oltinchi** va **yettinchi xatboshilaridan** “vasiyligida yoki homiyligida va” so‘zлari chiqarib tashlansin;

v) 56-bandning **oltinchi xatboshisidan** “vasiyligida yoki homiyligida va” so‘zлari chiqarib tashlansin;

g) **70-band** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar davlat tarbiya, davolash-sog‘lomlashtirish, tibbiy-ijtimoiy muassasalariga, ushbu muassasalarni tamomlab akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarga ta’lim-tarbiyaga berilgan kundan e’tiboran to‘liq davlat ta’midotida bo‘ladi hamda ularga nisbatan vasiylik va homiylik majburiyatlarini bajarish ushbu muassasalar tomonidan amalgalashiladi.

Akademik litsey va kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlarda ta’lim olayotgan vaqtida yetim bo‘lib qolgan, ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarga nisbatan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda homiy tayinlanadi. Homiy tayinlashning imkoniy mavjud bo‘lmagan hollarda, muassasa joylashgan hududdagi tuman (shahar)

hokimining qarori bilan ushbu bolalarga nisbatan ular ta'lim olayotgan muassasa bola muassasani tamomlagunga qadar homiy etib tayinlanadi”;

- d) **71-bandga** quyidagi mazmundagi oltinchi xatboshi qo'shilsin:
“vasiy yoki homiy etib tayinlanishiga to'sqinlik qiladigan kasalliklarga chalingan shaxslar”;
- e) **oltinchi xatboshi** yettinchi xatboshi deb hisoblansin;
- j) Quyidagi mazmundagi 71¹-band qo'shilsin:

“71¹. Quyidagilar shaxsning vasiy yoki homiy etib belgilanishiga to'sqinlik qiladigan kasalliklar hisoblanadi:

I, II, V guruh dispanser hisobidagi barcha joylashinuv shaklidagi sil kasalliklari (faol va surunkali);

barcha joylashinuvli yomon sifatli onkologik kasalliklar;
narkologik kasalliklar (alkogolizm, narkomaniya, toksikomaniya);
aqli zaiflikning barcha turlari;
tanosil kasalliklarining maishiy yo'l bilan yuquvchi turlari (zaxm, so'zak);
mehnatga yaroqlilikni inkor etuvchi I va II guruh nogironligiga olib keluvchi barcha kasalliklar va jarohatlar”;

- z) **73-band** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:
“73. Ota-on a yashash joyida vaqtincha bo'lmaganda, agar bola ular tomonidan olti oydan ortiq muddatga qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining nazaratida qoldirilgan bo'lsa, bolaga nisbatan vasiy yoki homiy belgilanadi.

Ota-on a yashash joyida olti oydan kam muddatda vaqtincha bo'lmaganda, agar bola ular tomonidan qarindoshlarining yoki boshqa yaqin kishilarining nazaratida qoldirilgan bo'lsa, vasiylik yoki homiylik, agar bu bolaning manfaatlari uchun zarur bo'lsa belgilanadi.

Har ikki holatda ham bolaning ota-onasidan rozilik arizasi talab etilmaydi”.

3. Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 14-noyabrdagi 387-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2016-yil, 50-son, 566-modda) bilan tasdiqlangan Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish qoidalarining 204-bandi **ikkinci xatboshiga** “shuningdek FHDY organlari” so'zlaridan keyin “vasiylik va homiylik organlari” so'zlar qo'shilsin.

**Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-son qaroriga
6-ILOVA**

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanayotgan ayrim qarorlari

RO'YXATI

1. Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan me'yoriy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida” 1999-yil 12-apreldagi 171-son **qarori** (O'zbekiston Respublikasi QT, 1999-y., 4-son, 18-modda).

2. Vazirlar Mahkamasining “O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qiyotgan hamda to'liq davlat ta'minotida bo'lgan yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni moddiy ta'minlash normalalarini tasdiqlash to'g'risida” 2007-yil 29-noyabrdagi 247-son **qarori** (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2007-y., 48-49-son, 485-modda).

3. Vazirlar Mahkamasining “Ota-onasining qarovisiz qolgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalar uchun Bolalar shaharchalari to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2008-yil 22-maydaggi 104-son **qarori** (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2008-y., 22-23-son, 199-modda).

4. Vazirlar Mahkamasining “Mehribonlik uyi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida” 2008-yil 17-oktabrdagi 230-son **qarori** (O'zbekiston Respublikasi QHT, 2008-yil, 43-son, 435-modda).

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.11.2020-y., 09/20/739/1522-son)